

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

CHET MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI

fanidan ma'ruza matnlari

TO'PLAMI

Toshkent-2005

**«CHET MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI» fanidan
ma'ruza matnlari to'plami
--T.: TMI, 2005. 15,0 b.t.**

Annotatsiya

Mazkur ma'ruza matnlari to'plamida «Chet mamlakatlar soliq tizimi» fanining predmeti va vazifalari, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Italiya, Shveysariya, Shvetsiya, Norvegiya, Avstriya, Daniyada yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos hususiyatlari, korporatsiyalardan olinadigan korporatsiya solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi, qo'shilgan qiymat solig'ining amal qilish mexanizmini, aktsiz solig'i va boshqa mahalliy soliq va yig'imlarni hisoblash hamda byudjetga to'lash tartibi kabi masalalar keng yoritilgan.

Mazkur ma'ruza matnlari to'plami «Soliqqa tortish va sug'urta ishi» kafedrası majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

«2» iyul 2005 y. 14-son majlis bayoni.

**«Soliqlar va soliqqa tortish»
kafedrası mudiri:**

dots. A. Jo'raev

Mazkur ma'ruza matnlari to'plami institut qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

«7» avgust 2005 y. 4-son majlis bayoni.

**Rektorning o'quv va metodik
ishlar bo'yicha muovini:**

prof. A.Vohobov

Tuzuvchilar:

**dots. N. Qo'zieva
k.o'q. O.Shodiev**

Taqrizchilar:

**dots. I.Raximberdiev
Solik Akademiyasi
dots. X.Jamolov**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

CHET MAMLAKATLAR SOLIQ TIZIMI

fanidan

ma'ruza matnlari

**Oliy ta'limning 340 000-«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi: 5340800-«Soliqlar va soliqqa tortish» bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent-2005

1-mavzu: «Chet mamlakatlar soliq tizimi» fanining predmeti va vazifalari.

Rivojlangan davlatlarda soliqlarning mohiyati (2 soat)

Reja:

1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari.
2. Jaxon soliq modellarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining jahon soliq tizimi modellari bilan solishtirma tahlili.

1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlari va belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ularni biz shartli ravishda bir necha turlarga bo'lishimiz mumkin:

- *amerikacha model;*
- *yaponcha model;*
- *Evropa modeli;*
- *noandozaviy model;*

Bu modellarning umumiy belgilari haqida qisqicha to'xtalib o'tamiz:

- rivojlangan qonunchilik bazasining mavjudligi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar hamda turli xil holatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;

- soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, yuqori ish haqi, zamonaviy aloqa vositalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish darajasi);

- soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi;

- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralanib qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi;

- hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga ega ekanligi;

- kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldidan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar (jamoatchilik) bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi;

- soliqqa tortish tizimini tashkil qilish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti yuksak darajada o'zaro bog'liqligi, qabo'l qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi hisoblanadi;

- soliq idoralarining, ayniqsa, axborot almashinish sohasida moliya organlari va bank tizimi bilan chambarchas bog'liqligidir;

Endi bo'lardan tashqari har bir modelning bir-biridan farq qiladigan alohida belgilari to'g'risida to'xtalamiz, birinchi bo'lib amerikacha modelni ko'rib chiqamiz.

Amerikacha model quyidagi belgilari bilan klassifikatsiyalanadi:

- soliq tizimi bo'yicha soliq to'lovchilarining tushunishi uchun murakkabligi, shu sababdan mamalakatda 50 mingdan ortiq mustaqil holda xususiy soliq maslahatchilari ish olib borib, shu tizimga doir bo'lgan muammolarni echishga harakat qilmoqda;

- mamlakatning soliq tizimi juda katta boshqaruv tizimi hamda ijrochilik apparatiga egaligi bilan alohida ajralib turadi;

- soliq organlari umumiy tuzilishini mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirishning yo'qligi, mamlakat soliq idoralarining 3 darajali, ya'ni federal, shtat va shahar darajalarining har bir vakilining to'liq qarashligi va mustaqilligi;

- naqd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning (savdo rastalaridan savdo qiluvchilar, ko'chadagi savdo va xizmatlar va shularga o'xshagan faoliyat turlari) daromadlarini nazorat qilishning samarali usullari AQShda yo'lga qo'yilmagan;

- noqonuniy daromad manbalari (o'z daromadlarini yashiruvchilar va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlovchilar) to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'ngilli axborotchilar tarmog'ining mavjudligi;

Jahon soliq tizimining Yaponcha modeli quyidagi asosiy belgilari bilan xarakterlanadi:

- moliya, soliq, bank, sug'urta, bojxona xizmatlari va shu kabi davlat byudjetini sarmoyaga to'ldiradigan tizimlar Yaponiya Moliya Vazirligi nazorati ostida hisoblanadi;

- Yaponiyada juda yuksak darajada vatanparvarlik ruhi, mamlakatga, davlat boshqaruv organlariga, vazirliklarga, mehnat bo'limi bitimini imzolagan kompaniyaga, firmaga, muassasaga sodiqlik hissi mavjudligi va natijada kadrlar qo'nimsizligining yo'qligi, shu jumladan soliq organlari tizimida ham ko'zatilmaydi.

- quyidan to yuqorigacha bo'lgan boshqaruv apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya tamoyiliga qat'iy rioya qilinishidir. O'lis istiqbol uchun oldindan belgilangan ko'rsatkichlarning tuzilishi. Masalan, borib-borib soliq to'lovchilar va byudjetdan nafaqa oluvchilarning sonining oshib ketish tsiklini yaponlar hisoblab chiqqan bo'lib, buning natijasida nafaqaxo'rlar sonining oshib ketishi va soliq to'lovchilar sonining kamayib ketishini aniqlangan.

Evropacha model quyidagi belgilari bilan boshqa modellardan ajralib turadi:

- Evropadagi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy birlashishga doimiy intilish mavjud. Shuning uchun ularning iqtisodiyotdagi ayrim boshqaruv tizimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular bir-biriga juda yaqin. Shu boisdan ularning soliq tizimi jahon amaliyotida «Evropacha model» deb yuritiladi;

- soliq faoliyatining unitar shakllari mavjud bo'lib, bo'larga yagona andozalar, yondashuvlar, talqin qilishlar, soliq deklaratsiyalarining shakllari, ish printsiplarini kiritish mumkin.

Noandozaviy yoki moslashgan modellar odatda ayrim kichik hududli yoki orollarda joylashgan davlatlarda, erkin iqtisodiy zonaga ega (offshor zonali) davlatlarda va qator boshqa davlatlar (masalan, Kipr, Lyuksemburg, Maldiv orollari) soliq tizimlarida mana shu model amal qilishi mumkin. Ular uchun turli soliq imtiyozlari va engilliklari, «soliq ta'tillari» deb nomlanadigan hududlar shular jumlasidandir.

2. Jaxon soliq modellarining o'ziga xos xususiyatlari.

Amerikacha modelda:

- Federal, shtat, shahar (mahaliy) soliqlar mavjud.

- Federal soliqning asosiy xususiyati shundaki, federal byudjet tarkibida to'g'ri soliqlarning ulushi katta. Aholidan olinadigan daromad solig'i federal byudjetning asosiy qismi hisoblanadi.

- Amerikada har bir jismoniy shaxs o'zining soliq maqomiga ega: er-xotinning birgalikda yoki alohida soliq deklaratsiyasini to'ldirishi oilaviy ahvolga qarab guruhlanadi va soliq to'lovchiga ma'lum imtiyozlar beriladi.

Daromadlarni hisoblash 3 bosqichdan iborat, ya'ni:

1. yalpi daromad (tushum)
2. hisoblangan daromad
3. soliqqa tortiladigan daromad, yalpi daromaddan ayrim chegirmalar va ajratmalar chegiriladi.

Evropacha modelda:

Buyuk Britaniya soliq tizimi 5ta yirik guruhga bo'linish xususiyati bilan ajralib turadi:

1. To'g'ri soliqlar;
2. Egri soliqlar;
3. Mahalliy soliqlar;
4. Ishbilarmonlikka soliq;
5. Boshqa soliqlar;

Bo'larning ichida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqqa ega.

Bundan tashqari:

- Buyuk Britaniyada daromad solig'i boshka davlatlarnikidan farq qiladi, ularda jismoniy shaxslar daromad solig'i shedullar asosida hisoblanadi;
- egri soliqlar ichida eng yuqorisi QQS, 2-o'rinda aktsiz solig'i hisoblanadi;

- Buyuk Britaniya soliq tizimi markazlashgan va mahalliy soliqlardan iborat;

Markazlashgan soliqlarga: daromad solig'i, korporatsiyalar faoliyatidan olinadigan soliq, ish haqiga daromad solig'i, QQS, aktsiz, bojxona bojlari va boshqalar kiradi.

Mahalliy soliqlarga: mol-mulk solig'i, biznesdan olinadigan soliq, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromad solig'i, ko'chmas mulkdan olinadigan soliq va boshqalar kiradi.

Frantsiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Hozirda Frantsiyada 3ta yirik soliq guruhlari mavjud:

1. Daromadlarni olish vaqtida to'lanadigan daromad solig'i;
2. Daromad sarflanayotganda undiriladigan iste'mol solig'i;
3. Kapital solig'i;

Frantsiya soliq tizimida QQS eng asosiy soliq turlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Aktsiz solig'ining ba'zilari davlat byudjetiga, ba'zilari esa mahalliy byudjetga borib tushadi.

Frantsiyada ham soliq turlari bo'yicha imtiyozlar va chegirmalar mavjud. Mahalliy soliqlar va yig'imlar 4ta asosiy guruhga bo'linadi:

- qurilish qilingan erlarga solinadigan soliq yoki yig'im;
- qurilish qilinmaydigan erlarga solinadigan soliq yoki yig'im;
- turar joylarga soliq;
- kasb-hunarga soliq;

Frantsiyaning davlat byudjeti tarkibida egri soliqlarning salmog'i katta.

Germaniya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Germaniya soliq tizimi federal, er va mahalliy soliqlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Germaniyada soliq turlari soni juda ko'p bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Federal soliqlar: spirtli mahsulotlarga soliq, boj yig'imlari, kapitalning harakatiga soliq, sug'urta solig'i, veksel solig'i, iste'mol mahsulotlariga soliqlardan iborat.

- Qo'shma soliq (federal va er)lar: ish haqidan olinadigan daromad solig'i, kapital daromadiga va korporatsiya solig'i, QQS, hunarmandchilik soliqlaridan iborat.

Erlar soliqlari: mol-mulk solig'i, er maydonini sotib olishga soliq, transport vositalariga soliq, pivoga soliq, lotereya o'yinlariga soliq, yong'in havfsizligini ta'minlash solig'i, bilyard o'yinlaridan olinadigan daromad soliqlardan iborat.

Munitsipal soliqlar: er solig'i, mahalliy iste'mol solig'i, it egalaridan olinadigan soliq, kosibchilik soliqlaridan iborat.

Ulardan daromad va kosibchilik soliqlari uchala byudjetga ham borib tushadi. Germaniyada aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida soliqlarni sinflarga bo'lgan, ya'ni soliq to'lovchilarning turmush darajasi, oilaviy ahvoli, bolalar sonini hisobga olgan holda amal qiladi.

Germaniyada cherkovlar, internatlar, bolalar bog'chalari, kasalxonalar er solig'idan ozod qilingan. Germaniyada mahalliy soliqlarning stavkalari mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi.

Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Yaponiyada soliqlar davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi.

Davlat soliqlarining ichida to'g'ri soliqlarning salmog'i yuqoridir.

To'g'ri soliqlarga: jismoniy shaxslar daromadiga soliq, korporatsiya daromadiga soliq, merosga soliq va er soliqlari kiradi. Davlat soliqlarining ichida egri soliqlar ham mavjud, ya'ni iste'mol solig'i (QQS), spirtli ichimliklarga soliq, tamaki mahsulotlariga soliq, yoqilg'i mahsulotlariga soliq, bojxona bojlari, avtomobil quvvatiga soliqlardir.

Mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat:

1. Prefekturalar (shaharlar) solig'i;
2. Munitsipal (shahar tipidagi hududlar) soliqlar.

Yaponiya soliq tizimini 4 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- daromaddan olinadigan soliq;
- mol-mulkdan olinadigan soliq;
- iste'mol solig'i;
- maxsus mahsulotlarga belgilangan soliqlar;

Yaponiyada aholi daromad solig'ining hisoblanishiga ko'ra 10ta guruhga bo'linadi:

1. Turli xil foizlardan olinadigan foyda;
2. Dividentlardan olinadigan foyda;
3. Asosiy fondlarning ijara haqi;
4. Biznes daromad;
5. Ish bilan band bo'lganlarning daromadlari;
6. Nafaqa yoshdagilarining daromadlari;
7. O'rmon mahsulotlarini sotishdan olingan daromad;
8. Kapital tushumlar;
9. Favqulodda daromadlar;
10. Turli-tuman daromadlar.

3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining jahon soliq tizimi modellari bilan solishtirma tahlili.

Amerikacha model bilan solishtirma tahlili.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining AQSh soliq tizimi bilan o'xshash jihatlari:

- soliqlardan imtiyozlar va chegirmalar mavjud. Masalan, AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari ham O'zbekiston mamlakatiga o'xshash, ya'ni soliqning tabaqalashtirilgan uchta stavkasi mavjudligi.

Evropacha model bilan taqqoslama tahlili.

Buyuk Britaniya mamlakati soliq tizimi.

Hozirgi paytga kelib Buyuk Britaniya soliq tizimi beshta yirik guruhlardan iborat:

- To'g'ri soliqlar;
- Egri soliqlar;
- Mahalliy soliqlar;
- Ishbilarmonlikka soliq;
- Boshqa soliqlar;

Buyuk Britaniyada ham, O'zbekistonda ham byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqqa ega. Asosiy ulushi daromad solig'iga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniya jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortishning farqli jihati shundaki, daromad solig'i shedullar asosida to'zilgan.

Germaniya mamlakati soliq tizimi.

Germaniyada soliqlar byudjetga tushishiga qarab uchga bo'linadi:

federal, erlar (hudud) va mahalliy. Ularda 40ga yaqin soliq turi amal qiladi.

Bizning soliq tizimimizdan farqli o'laroq, Germaniyada byudjetlarning asosini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Yana bir farqli jihati, Germaniyada jismoniy shaxslar daromadiga soliq hisoblanganda oilaviy sharoiti hisobga olinadi.

Frantsiya mamlakati soliq tizimi.

Frantsiya soliq tizimi bizning soliq tizimimizga yaqindir. Ikkala mamlakatda ham byudjetning asosiy qismini QQS tashkil etadi. Byudjet tuzilishi markaziy va mahalliy byudjetlardan iborat. Frantsiya soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni undirish xususiyati o'xshashdir.

Yaponiya mamlakati soliq tizimi.

Yaponiyada soliqlar 4ta guruhga bo'lib o'rganiladi:

- daromaddan olinadigan soliq;
- mol-mulkdan olinadigan soliq;

- iste'mol solig'i;
- maxsus mahsulotlarga belgilangan soliqlar.

Ularni biz umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'lamiz.

Aholi daromadlaridan olinadigan soliqlar 10ta guruhga bo'linadi. Iste'mol solig'i guruhiga litsenziya va registratsiya solig'i, gerb yig'imi, irrigatsiya erlarini yaxshilash uchun soliq, elektroenergiya manbalarini rivojlantirish uchun soliq, mehmonxonalarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq, restoranlarda ovqatlanish uchun soliq.

Tayanch so'z va iboralar

Soliq

Soliq imtiyozlari

Soliq kanikullari

Soliq tizimi

Soliqlar indeksatsiyasi

Stagflyatsiya

Balans

Bandlik

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Rivojlangan mamlkatlarda soliq tizimi modellarining qanday asosiy belgilari mavjud?
2. Amerikacha modelining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
3. Yaponiya modelining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
4. Evropa modelining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
5. Noandozaviy modelining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining jahon soliq tizimi modellari bilan farqli va o'xshashlik jihatlari nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,4,5,7,11,14

Qo'shimcha adabiyotlar: 2,5,6,11,14

2-mavzu: AQSh soliq tizimini tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. AQSh soliq tizimiga tavsif.
2. AQSh soliq tizimining klassifikatsiyasi.
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
4. AQSh soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili.

1. AQSh soliq tizimiga tavsif.

Barcha rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq qiladi.

AQSh soliq tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u ba'zi bir belgilari bilan boshqa bir soliq tizimlaridan ajralib turadi. Jumladan:

- mamlakat soliq tizimida juda katta boshqaruv apparatining mavjudligi;
- soliq organlari umumiy tuzilishining mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirishning yo'qligi, mamlakat soliq idoralarining uch darajali; federal, shtat va shahar, (ba'zan ayrim grafliklar darajasidagi tumanlar) va ularning har birining to'liq mustaqilligidir.

Hozirgi kunda Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi takomillashgan bo'lib, bunda soliqlar faqatgina byudjetni to'ldirish, ya'ni fiskal funktsiyani bajaribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch elementlariga aylanadi.

AQSh iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishida byudjet vositalarining shakllanishi va harakat qilishi markaziy o'rinni egallaydi. AQSh moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib federal hukumatining byudjet mexanizmi hisoblanadi.

Yirik va doimiy tushum harakatiga ega bo'lgan soliqlar federal byudjetga yo'naltiriladi. Ular daromad va harajatlarning deyarli 70% ini tashkil etadi. Shtat qonun chiqaruvchi organlari federal soliq tizimiga zid bo'lmagan soliq turlarini chiqarishi va bekor qilishi mumkin. O'zini-o'zi boshqarish organlari shu shtat qonunchiligida ruhsat berilgan soliqlarni olishi va yig'ilishi mumkin. Mahalliy boshqaruv organlari o'z navbatida birinchi bo'lib mahalliy soliqlar evaziga ahamiyatiga ega bo'lgan o'z moliyaviy mablag'lari manbalarini yaratishga harakat qilishadi. Oxirgi 10-15 yil davomida AQShda ko'pgina sharbiy Evropa mamlakatlari singari moliya tizimi orqali umumiy fondga yig'ilgan mablag'lar hajmining o'sishi, mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy mablag'lar hajmining tez sur'atlar bilan o'sib borishi kuzatilmoqda, shu bilan bir qatorda harajatlar ham o'sib kelmoqda. Har bir shtat boshqaruv organlari moliyaviy mablag'larning tushumi va taqsimlanishini nazorat qiladi va asosiy manbasini ta'minlaydi.

1943 yilda AQSh soliq tizimiga ish haqidan olinadigan daromad solig'i kiritildi (hozirda ham amalda).

1986 yilda AQSh Prezidenti Ronald Reygen boshchiligida soliq islohoti o'tkazildi va bir nechta o'zgarishlar ro'y berdi.

Ushbu islohotda hukumat quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

1. Daromad (foyda) solig'i stavkalari va imtiyozlarini kamaytirish.
2. Defitsitni yo'qotish uchun davlat harajatlarini kamaytirish.
3. Soliq qonunchiligini qayta ko'rib chiqish.
4. Pul-kredit siyosatini olib borish.

O'tkazilgan soliq islohoti ijobiy natijaga erishdi, ya'ni unga ko'ra ba'zi soliq stavkalari pasaytirildi, imtiyozlar qisqartirildi hamda ba'zi soliqlar joriy etildi. Jumladan: savdo-sotiq solig'i, kredit chiptalari, univermag xaridi chiptalari, qarzni to'lash uchun foizlar to'lovlari va boshqa yig'imlar joriy etildi.

1999 yilda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, sog'liqni-saqlash, yo'l qurilishi va politsiya apparatini ta'minlash uchun mahalliy va shtat moliyaviy mablag'laridan 70-90%, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni asrash, fuqorolik va uy-joy qurilishiga 40%ga yaqin mablag' ajratildi.

2. AQSh soliq tizimining klassifikatsiyasi.

AQSh soliq tizimi uch darajali bo'lib, ular: federal, shtat va shahar soliqlariga bo'linadi.

AQSh moliya tizimining asosiy bo'g'ini federal, hukumatning byudjet mexanizmi hisoblanadi. Yirik va doimiy tushumga ega bo'lgan soliqlar federal byudjetga yo'naltiriladi. AQShning 70% daromad va harajatlari federal byudjet hissasiga to'g'ri keladi.

Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Shtat va mahalliy hukumat byudjetlariga egri soliqlar ko'proq tushadi.

Federal byudjetda jismoniy shaxslar daromad solig'ida keyin ikkinchi o'rinda (byudjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta ajratmalari kiradi. Bu ajratmalar ish beruvchi va ishchi o'rtasida teng 2 ga bo'linadi. Yig'im stavkasi har yilgi byudjet tizimiga qarab o'zgaradi. Stavka ish haqi fondining bir qismiga nisbatan qo'llaniladi. Bu yig'im aniq yo'nalish va maqsadga ega.

Korporatsiya birinchi 50000 \$ daromadidan-15% stavkada, keyingi 250000 \$ uchun-25% stavkada, qolgan qismiga 34% qo'llaniladi. Bundan tashqari 335000\$ dan oshgan daromadga 5% qo'shimcha yig'im ham olinadi.

Bu turdagi bosqichlar kichik va o'rta korxonalar uchun qo'llaniladi.

Korporatsiya daromadiga soliqni shuningdek shtatlar byudjetiga ham undiriladi.

Odatda stavkalar o'zgarmas bo'ladi. Eng yuqori stavka Ayova shtatida 12%, Konnektikutda 11,5%, Kolumbiya okrugida 10,25%, Missisipida 3-5% va Yutada-5% stavka amal qiladi.

Korporatsiya daromadiga soliq imtiyozlari juda ko'p. Sof foydadan shtat va mahalliy (soliqlar) daromad soliqlari chegiriladi, o'z mulki hisoblangan qimmatli qog'ozlardan kompaniyalardan olgan 100% dividend, soliqqa tortiladigan mahalliy kompaniyalardan dividendining 70-80% i, mahalliy hukumat va shtatlar qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, ijtimoiy ajratmalar ham chegiriladi, ilmiy-izlanish, konstruktorlik faoliyatiga imtiyozlar qo'llaniladi.

Agarda korporatsiya energiyaning muqobil variantidan foydalansa unga imtiyoz beriladi, ya'ni korporatsiyaning quyosh yoki havo energiyalaridan foydalanuvchi moslamasiga 50% li «soliq kredit» beriladi.

Korporatsiya aktivlarining narxi ko'tarilishi, agar u sotuvga qo'yilmasa korporatsiya foydasiga kirmaydi.

Korporatsiya kapital aktivlarini sotishdan olingan daromad solig'i ham umumiy daromad soliq stavkasida soliqqa tortiladi, soliq stavkasi-34%. Operatsiyada korporatsiya zarar ko'rsa, zarar summasi soliqqa tortiladigan daromaddan chegirilmaydi.

Aktsiz yig'implari federal byudjetda kichik ulushni egallaydi, daromadlilik kam. Federal aktsiz yig'implari alkagol va tamaki mahsulotlaridan, yo'l va havo transportida yuk tashishdan olinadi.

Aktsiz yig'implari orasida yo'l va havo transporti yig'implaridan kelgan daromad oxirgi yillar mobaynida ko'payishi kuzatilgan, oxirgi 10 yilda alkogolga yig'im turlari stavkalari oshmagan.

Oxirgi uch yilda bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjetida 635 mlrd. \$ga oshdi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar 429 mlrd. \$ yoki 17,9% ga oshdi. Korporatsiyalar daromadiga soliq esa 102 mlrd. \$ yoki 4,7% ga kamaydi. Aktsiz yig'implari esa 14 mlrd.ga, ya'ni 41,2% ga oshdi. Bu asosan byudjet taqchilligi tufayli pivoga, vinoga, tamaki mahsulotlariga yig'im stavkalarining ikki marta oshirilishi, qimmatbaho avtomobillar, shaxsiy samolyotga 10% li stavkalarda yig'im joriy etilishi hisobiga ro'y berdi.

Merosga qoldiriladigan va sovg'a qilinadigan mulkka soliq hajmi byudjet daromadlarida 133 mlrd. \$ bo'ldi. Bunda 10000 \$ gacha mulk bu soliqdan ozod etilgan. Bu soliq progressiv shaklida mulk qiymatining oshishiga qarab 18-50% stavkada undiriladi. Agar meros 2,5 mlrd. \$ dan oshsa 50 % li stavka asosida undiriladi.

Shtat soliqlari. Har bir shtat byudjeti federal byudjetga bog'liq, lekin ular o'z soliq tizimiga ega. Shtatlar byudjetning asosiy qismini jismoniy shaxslardan va korporatsiyalar daromadidan soliq egallaydi.

Shtat qonun chiqaruvchi organlari federal soliq tizimiga zid bo'lmagan soliq turlarini chiqarishi mumkin. O'z-o'zini boshqarish organlari esa shu shtat qonunchiligidan ruhsat berilgan soliqlar olishi va yig'ishi mumkin. Ayova shtatida - 12 %, Konnektikutda - 11,5 %, Kolumbiyada - 10,25 %, Missisipida - 3-5 % larni tashkil etadi.

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Federal byudjetni asosiy qismini tashkil qiluvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Barcha daromadlar quyidagilardan tashkil topgan:

- ish haqi;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- nafaqa va pul yordami;
- belgilangan summadan yuqori bo'lgan daromadlar;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar va boshqalar.

Mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar maxsus soliq bilan yoki shaxsiy daromad tarkibida soliqqa tortiladi. Bu holda jami yalpi daromaddan ish harajatlari chegirib tashlanadi. Bu harajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- kapital aktivlarini sotib olish harajatlari;
- er maydoni;
- ishlab-chiqarish qurollari va uskunalari;
- joriy ishlab-chiqarish harajatlari.

Bu harajatlar faqat tadbirkorlardan emas, balki erkin kasb egalarini olgan daromadlaridan chegiriladi. Harajatlar chiqarib tashlangandan so'ng soliq to'lovchining daromadi hosil bo'ladi. Soliqqa tortilmaydigan daromad hamma uchun imtiyoz bo'lib hisoblanadi va soliqqa tortilmaydigan minimumdan tashqari nafaqalar fondi badallari, shtat hukumatiga to'lanadigan badallar, mahalliy soliqlar, shtat va mahalliy boshqaruv organlarining hukumati chiqargan qimmatli qog'ozlar foizlari, aliment summalari, tabiiy xizmat harajatlari chegirib tashlandi.

Soliq to'lagunga qadar daromadni aniqlash uchun quyidagilarni topish lozim:

1) $YaD - IchX = SD$

bu erda:

YaD-yalpi daromad;

IchX-ishlab chiqarish harajatlari;

SD-sof daromad.

2) $SD - ShSI - STM = STD$

bu erda:

ShSI-shaxsiy soliq imtiyozlari;

STM-soliqqa tortimaydigan minimum;

STD-soliq to'lagungacha daromad.

3) farzandlar soni (summada)

$STD \text{ iqtisodiy ahvoli (summada) } \times \% = S$

oilaviy sharoit (st-na)

bu erda:

%-oxirgi natijani foiz stavkasi;

S-soliq miqdori

1-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini
hisoblashda oilaviy sharoitining ta'siri**

1-jadval

Soliqqa tortiladigan daromad					Soliq stavkasi %
0-40100	0-20500	0-24000	0-32150	0-32150	15
401010-96300	20501-48450	24001-58150	32151-83050	32151-83050	28
96301-147700	48451-73850	58151-92130	83051-134500	83051-134500	31
147701-263750	73851-131875	9213-263750	134501-263750	134501-263750	36
263750 va undan yuqori	131875 va undan yuqori	263750 va undan yuqori	263750 va undan yuqori	263750 va undan yuqori	39,6

Daromadni hisoblash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

- **Yalpi daromad** (tushum)-ish haqi, peniya, qimmatbaxo qog'ozlardan olingan daromad, stipendiya, renta to'lovlari, ko'chmas mulk ajratmalari.

- **Aniqlangan daromad** - jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar, ishlab-chiqarish yoki savdo imtiyozlari, qimmatli qog'ozlar savdosidan olingan daromad, avans to'lovlari, pensiya ajratmalari, ishsizlik ajratmalari kiradi.

- **Soliqqa tortiladigan daromad**.

Daromad solig'ini hisoblashda ijtimoiy ta'minot harajatlari, tabiiy ofatlardan yo'qotishlar (agar daromadning 10% idan oshsagina hisobga olinadi), tibbiyot maqsadida qilingan harajatlari (aniqlangan daromadning 7,5 %igacha), tajriba harajatlari, malaka oshirish harajatlari, xizmat safarlari harajatlari. Ushbu harajatlari daromad solig'ini hisoblashda daromaddan chegirib tashlanadi (ushbu imtiyozlar yalpi daromadning 50 % igacha bo'lishi mumkin).

Yuqorida jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, soliqni to'lash daromadlar darajasiga qarab 15 % dan 39,6 % gacha progressiv soliq stavkalari asosida hiso-kitob qilinadi. Ko'rib o'tganimizdek AQShda oila ahvoriga nihoyatda katta e'tibor beriladi. Soliqqa tortiladigan daromad oilani oilaviy birgalikdagi daromadiga, yoki oilaviy alohidalikka egami, yakka soliq to'lovchimi, to'laydigan shaxs oila boshlig'imi, shunga qarab guruhlariga ajratilgan. Bu erda birinchi navbatda oilaviy sharoit qaysi guruhga mos kelishi aniqlab olinadi va olingan daromadning darajasiga qarab soliqqa tortiladi. Xuddi shu jihatlari bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i boshqa davlatlarnikidan tubdan farq qiladi.

4. AQSh soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali:

1. Umumdavlat soliqlari
2. Mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Yuqorida ko'rganimizdek AQSh soliq tizimi uch pog'onali, ya'ni:

1. Federal soliqlari;
2. Shtat soliqlari;
3. Shahar soliqlari.

Respublikamiz **umumdavlat soliqlariga** asosan doimiy tushumga ega bo'lgan va byudjedga muhim o'rin tutadigan soliqlar yo'naltiriladi. Bularga: jismoniy shaxslar daromadiga soliq, yuridik shaxs daromadiga soliq, aktsiz solig'i, QQS, davlat boji, bojxona boji va boshqa soliqlar kiradi.

AQSh federal byudjet soliqlarida esa asosan to'g'ri soliqlar hissasi ko'proq to'g'ri keladi.

Ikki davlat uchun o'xshashlik jihati har ikkala byudjetga ham muhim ahamiyatga molik bo'lgan soliqlar yo'naltiriladi. **Farqli** jihati esa O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida hozirgi kunda egri soliqlar hissasi ko'proq, shu sababli egri soliqlar ham umumdavlat soliqlarida muhim ahamiyatga ega, AQSh federal byudjetida esa egri soliqlar deyarli yo'q, chunki mamlakat byudjetida egri soliqlarning hissasi kam bo'lib AQSh federal byudjetiga jismoniy shaxslar daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda (byudjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta ajratmalari va korporatsiyalar daromadiga soliq kiradi.

AQShda korporatsiya byudjetiga soliqlarni federal byudjetdan tashqari shtat soliqlari tarkibiga ham kiritiladi. Hozir bu soliqning stavkasi - 34 %, Respublikamizda esa - 24 %(2002 yilda).

Respublikamiz soliq tizimining ikkinchi pog'onasi mahalliy soliqlar va yig'imlardir.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan ijtimoiy masalalarni: maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shaharlar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Ammo Respublikamiz hududida mahalliy soliqlar xarajatlarni 30-40 % ini qoplaydi, holos.

Mahalliy byudjetini (soliqlarning) muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi. Boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

AQSh mahalliy soliqlari asosan: ijtimoiy ta'minot, yo'l qurilishi, sog'liqni-saqlash, xalq ta'limi mahalliy soliqlarga kiradi. Respublikamiz mahalliy soliqlariga esa: mol-mulk solig'i, er solig'i, reklama solig'i, yagona soliq va boshqa yig'imlar ham kiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida qimmatli qog'ozlar bozori ancha rivojlangan va bu tizimdan ham juda katta daromad olish imkoniyati mavjudligi tufayli mamlakat byudjetiga ushbu operatsiyalardan ham ma'lum miqdorda soliq tushumlari tushadi.

Respublikamiz hududida esa aksincha, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori hali to'liq shakllanmaganligi sababli ham soliq tushumlari kam. Respublikamiz soliq tizimida ham yanada bu bozorni rivojlantirish maqsadida ushbu operatsiyalardan, ya'ni qimmatli qog'ozlar operatsiyasidan daromad oluvchi huquqiy shaxslarga soliqlardan imtiyoz berilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida kompaniyalar va korporatsiyalarning soliq bazasidan ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlariga harajatlar butunlay, uskunalarni zamonaviylashtirishga harajatlar qisman chiqarib tashlanishi mumkin. Uncha katta bo'lmagan kompaniyalarga, ya'ni kichik biznesga maxsus imtiyozlar beriladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida yillik daromadi 75 ming dollargacha bo'lgan kompaniyalarga yil davomida qiymati

10 ming dollargacha bo'lgan (kompaniyalarga yil davomida) yangi uskunani to'liq hisobdan chiqarish huquqi beriladi. Kichik biznes uchun Amerikada, shuningdek, foyda solig'i uchun imtiyozli progressiv stavkalar belgilangan.

Respublikamiz misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes uchun juda ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 1998 yil 9-apreldagi I.A.Karimov qaroriga muvofiq kichik biznes va mikrofirmalarning yangi me'zonlari ishlab chiqildi. Unga ko'ra korxonalar ishchilar soni quyidagicha belgilandi:

- sanoat sohasida - 40 kishigacha;
- ishlab chiqarish sohasida - 20 kishigacha;
- noishlab chiqarish sohasida - 10 kishigacha qilib belgilandi.

Soliq stavkalari tabaqalashtirilgan tartibda belgilandi, ya'ni:

- noishlab chiqarish sohalari uchun - 25 %;
- sanoat va ishlab chiqarish uchun - 10 %;
- qishloq xo'jaligi korxonalar uchun - 5 % qilib belgilandi.

Ikki davlatning yana bir e'tiborga molik bo'lgan soliq va soliqsiz to'lovlaridan biri bu bojxona bojlaridir. Amerika Qo'shma shtatlarida iqtisodiyot ancha rivojlanganligi sababli mamlakat ichki bozori o'z ishlab chiqargan mahsulotlari bilan ta'minlangan. Shu qatori eksport ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu sababli ham mamlakatga import qiluvchi tovarlar uchun bojxonada rasmiylashtirish uchun bojxona va davlat bojlari nisbatan yuqori emas.

Respublikamizda esa ishlab chiqarish hali to'liq rivojlanmaganligi sababli o'z ichki bozoridagi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni himoya qilish va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida chetdan kelayotgan import tovarlar uchun soliqlar va bojlar yuqori stavkada qo'llaniladi. Aktsiz solig'i (aktsiz markalari) mahsulotni ikki barobar narxga ko'tarilishiga olib keladi.

Tayanch so'z va iboralar

Ijara haqi

Indeks

Inflyatsiya

Kichik biznes

Qimmatli qog'oz

Anotatsizm

Valyuta kursi

Gonorar

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. AQSh soliq tizimi nechta pog'onadan tashkil topgan?
2. Qanday soliqlar federal byudjetga kelib tushadi?
3. Shtat va mahalliy byudjetni shakllantirishda qanday soliqlar muhim ahamiyat kasb etadi?
4. AQShda to'g'ri va egri soliqlarga nimalar kiradi?
5. AQSh soliq tizimida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining tutgan o'rni qanday?
6. AQShda korporatsiyalar daromadiga soliq qanday tartibda undiriladi?
7. AQSh soliq tizimida qanday soliq stavkalari va imtiyozlari mavjud?
8. Mol-mulk solig'ining undirish usullari qanday?
9. AQShda kichik biznes bilan shug'ullanuvchilar uchun soliqlar tomonidan qanday engilliklar yaratilgan?
10. AQSh soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimi o'rtasida qanday o'xshashlik va farqli jihatlari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,4,6,7

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,5,11,13,15

3-mavzu: Buyuk Britaniya soliq tizimini tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. Buyuk Britaniya soliq tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari
2. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.
3. Kompaniyalarni soliqqa tortish.
4. Mahalliy soliqlar.

1. Buyuk Britaniya soliq tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Buyuk Britaniya soliq tizimi o'tgan asrda shakllandi, shunday bo'lsa-da daromadlarni soliqqa tortishning o'sha davrdagi xususiyatlari bugungi kun uchun ham xarakterlidir. 1973 yildagi soliq islohoti Buyuk Britaniya soliq tizimi strukturasi sezilarli o'zgarishlar kiritdi va uni umumiy bozor mamlakatlari soliq tizimlariga ancha yaqinlashtirdi. Hozirgi vaqtda davlat soliq tizimida barcha rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan muammolar natijasi o'laroq muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Soliq sohasidagi chora-tadbirlar leyboristlarning ham konservatorlarning ham moliya-iqtisodiy siyosatida katta o'ringa ega. Keyingi o'n yillikda ko'plab soliq islohotlari o'tkazildi, shu jumladan, daromad solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich tushirilishi (aholi uchun 30% dan 20% ga, korporatsiyalar uchun 52 % dan 33 % ga), aholi turli qatlamlari uchun soliq imtiyozlari berish shartlarining o'zgartirilishi amalga oshirildi, ba'zi turdagi soliqlar bekor qilindi, yangi soliqlar joriy qilindi.

Umuman, soliq qonunchiligidagi islohotlar soliq tizimining murakkab to'zilmesi, uning asosiy tamoyillarini takomillashtirish, aholi va korporatsiyalarni to'g'ri soliqqa tortish sohasida soliq bazasini kamaytirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish maqsadida amalga oshirildi.

Mamlakatning soliq islohotlarida ikki asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Shaxsiy daromad solig'iga tortish tizimini takomillashtirish (rejalashtirilgan chora-tadbirlar 1987 yilda tugallangan);

2. Korporatsiyalarni daromad solig'iga tortish sohasidagi o'zgarishlar (1987-88 yillar mo'ljallangan chora-tadbirlarni tugallash uchun o'tish davri sifatida belgilandi).

Soliq islohotlari tizimida asosiy voqea moliya ministri N.Louson tomonidan 1988 yil martda parlament muhokamasiga qo'yilgan 1988-89 moliya yili uchun to'zilgan davlat byudjeti bo'ldi. Moliya ministri fikricha, bu byudjet loyihasi soliq islohotlarining qat'iy dasturini o'zida aks ettiradi. N. Louson mamlakatda dunyodagi eng sodda soliq tizimini yaratishni va'da qildi.

Buyuk Britaniya soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy tadbirlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- shaxsiy daromad solig'ining eng past stavkasini 27% dan 20%ga pasaytirish;
- Aholi daromadlarini ko'p tabaqalarga bo'lish va ularga qo'llaniladigan progressiv stavkalarini bekor qilish, ilgari amal qilgan shkalalar o'rniga daromad solig'ining faqat 3 stavkasi qoldirish: 20, 24 va 40%;
- Er-xotin daromadlarini alohida soliqqa tortishni joriy qilish;
- Shaxsiy soliq stavkalarini sezilarli oshirish, shu bilan birgalikda soliq tizimini soddalashtirish. (Bu hali uning eng adolatli bo'lishini bildirmaydi). Ingliz iqtisodchilarining baholashlaricha, soliq islohotlari natijasida o'rta hol britaniyalik soliq to'lovchi daromadining soliqlar va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar ko'rinishidagi to'laydigan ulushi deyarli o'zgarmaydi, ayni paytda o'rtacha daromadga ega bo'lgan ishchi uchun o'rtacha soliq stavkasi 14% dan 16% ga o'sdi. Shu bilan birga daromadlari o'rtacha darajadan 5 marta ko'p bo'lgan shaxslar uchun o'rtacha soliq stavkalari 52% dan 35% gacha tushdi. Natijada yuqori ish haqi oladigan Britaniyaliklar rivojlangan davlatlar aholisi orasida eng kam soliq to'laydigan, kam ish haqi oladiganlari esa aksincha eng ko'p soliq to'laydigan bo'ldilar. Shunday qilib, o'rtacha ish haqiga ega bo'lgan, oilali va ikki bolasi bo'lgan shaxs o'z ish haqining 34 % ini soliqlar ko'rinishida (ijtimoiy sug'urta ajratmalarini o'z ichiga olgan holda) to'laydi, bu ko'rsatkich AQSh da 26% ni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyaning zamonaviy soliq tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy soliqlar: aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i (korporatsiya solig'i), neftdan olinadigan daromadga soliq, merosdan olinadigan soliq va egri soliqlar (QQS, aktsizlar, bojlar va gerb yig'implari);
2. Mahalliy soliqlar (mulk soliqlari).

Soliqlar Angliya davlat byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda asosiy rolni (qariyb 90% atrofida) o'ynaydi.

Domitsiliy – doimiy yashash joyi joylashgan mamlakatda turadigan shaxsdir. Domitsiliy tushunchasi fuqorolik va rezidentlik tushunchalaridan farq qiladi. Shaxs bir mamlakatdan ko'proq joyda rezident bo'lishi mumkin, lekin aniq vaqt davomida faqat bitta davlatning domitsiliysi bo'lishi mumkin. Buyuk Britaniyada yollanib ishlayotgan chet ellik shaxslar (rezident yoki norezident) bu mamlakatning domitsiyalisi deb qaralmaydi va bir qancha imtiyozlarga egalik xuquqi mavjud bo'ladi. Buyuk Britaniyadan chetda domitsiliy bo'lgan va xorijiy ish beruvchilarda yollanib ishlaydigan shaxs bu mamlakatda ko'rsatilgan ish beruvchilardan olingan daromadlarining 50% qismidan soliq to'laydilar. Agar bu shaxs yilning 9/10 qismida Buyuk Britaniyada rezident bo'lsa, uning 75% daromadi soliqqa tortiladi. Boshqa chet eldagi manbalardan keladigan daromadlarning faqat Buyuk Britaniyaga o'tkazib kelinadigan qismi soliqqa tortiladi.

2. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i jami daromad bo'yicha emas, balki alohida qismlar - shedullar bo'yicha undiriladi. Soliqqa tortish 6 xil shedul bo'yicha amalga oshiriladi:

- A shedul bo'yicha er binolar va h.k lardan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladi;
- V shedul bo'yicha tijorat maqsadlarida foydalanadigan o'rmon massivlaridan olinadigan daromadlar agar ular D shedul bo'yicha soliqqa tortilmasa;

- S shedul bo'yicha Buyuk Britaniyada chiqariladigan hukumat qimmatli qog'ozlari va Buyuk Britaniyada foizlar to'lanadigan xorijiy hukumatning qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar soliqqa tortiladi;

- D shedul bo'yicha ishlab chiqarish tijorat faoliyatida olinadigan foyda (savdoda, sanoatda, qishloq xo'jaligida, transportda), erkin kasb egalarining daromatlari, S shedul bo'yicha soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlardan daromadlar, qarzlar bo'yicha foizlar ko'rinishida olingan, xorijda olingan va Buyuk Britaniyaga olib kelingan daromadlar soliqqa tortiladi.;

- E shedul bo'yicha mehnat daromatlari, ish haqi, xizmatchilarning maoshlari va nafaqalar soliqqa tortiladi;

- F shedul bo'yicha deidentlar va boshqa taqsimlangan kompaniya daromatlari soliqqa tortiladi. To'lanishi: daromad solig'i summasini aniqlashda, haqiqatda olingan yillik daromaddan soliq imtiyozlari chegirib tashlanadi. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada har bir kishi shaxsiy chegirma deb ataladigan soliqqa tortilmaydigan daromadni chegirib tashlash huquqiga ega. Shaxsiy chegirma 1990-91 soliq yilida yiliga 3900 f.st.ni tashkil etgan. 3900 f.st.dan ortadigan daromad 20% stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Yuqori stavka (40%) daromadning 25500 f.st. dan oshadigan qismi uchun qo'llaniladi. Ilgari Buyuk Britaniya soliq qonunchiligi oilaviy juftlikni bitta soliq to'lovchi sifatida ko'zda tutardi. Xotin kishi er qaromog'ida hisoblangan va er yagona soliq deklaratsiyasini to'ldirishi va soliq organiga topshirishi lozim bo'lgan.

Xotin kishining har qanday daromadi erining daromadiga qo'shilgan, lekin bunda er qo'shimcha shaxsiy chegirma qilish huquqiga ega bo'lgan. Hozirgi vaqtda er-xotin daromatlari alohida soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortiladigan bazaga, shuningdek ko'rlarga, to'liqsiz oilalarga va uy xizmatkorlariga ehtiyoji bo'lgan, ularning xizmatlaridan foydalanadiganlarga beriladigan kichik imtiyozlar tizimi ham ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy chegirmalar va er-xotin uchun beriladigan imtiyozlardan so'ng nafaqa va boshqa fondlarga badallar uchun imtiyozlar ham katta ahamiyatga ega.

E shedul bo'yicha daromadlardan xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar, avtomobillarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini chegirib tashlashga ruxsat beriladi. Tadbirkorlik maqsadlarida o'z shaxsiy avtomobilidan foydalanuvchi shaxs o'z daromadlaridan avtomobilga xizmat kursatish va uning amortizatsiyasi bo'yicha joriy xarajatlarni chegirish mumkin. Uydan ishgacha yo'l xarajatlari chegirib tashlanmaydi.

Buyuk Britaniyadagi norezidentlik qoidasi bo'yicha daromad solig'idan shaxsiy chegirma qilish huquqiga ega emas. Biroq, quyidagi hollarda unga imtiyozlar berilishi mumkin:

- Britaniyalik millatga tegishli bo'lgan millatlar, hamdo'stlik yoki Irlandiya Respublikasi aholisiga;
- Buyuk Britaniya yoki Angliya koloniyalari davlat xizmati apparati xizmatchilari yoki sobiq xizmatchilariga;
- Men oroli va Normandiya orollari rezidentlariga;
- ilgari Buyuk Britaniya rezidenti bo'lgan, hozirda boshqa mamlakatlar rezidentlari bo'lganlarga, faqat ularning yoki oila a'zolarining sog'lig'i bilan bog'liq sabablarga ko'ra;
- davlat xizmatchilari bevalariga;
- Buyuk Britaniya bilan soliq kelishuvlari bo'lgan mamlakat rezidentlariga.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliqqa tortilmaydi: natural ko'rinishda beriladigan, faqat o'z oluvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan va pul ko'rinishida qaytarib berilmaydigan nafaqalar; milliy jamg'arma sertifikatlari bo'yicha foizlar; nogironlarga nafaqalar; stipendiyalar, talabalarga nafaqalar; ishsizlik, kasallik, onalik bo'yicha (ya'ni ijtimoiy sugurta tizimida to'lanadigan) nafaqalar va boshqalar.

Buyuk Britaniya soliq qonunchiligida boshqa davlatlardagi kabi shaxsiy daromadlar 2 ga bo'linadi: yollanib ishlashdan mehnat haqi ko'rinishida va investitsiyadan daromadlar. Investitsiyadan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish bazasiga foizlar, dividendlar va sof renta to'lovlari kiradi. Kapital o'sishi daromad solig'iga tortilmaydi. Kapitaldagi ulushli ishtirokdan olinadigan dividendlar daromad solig'iga tortiladi, lekin, bu ulushni sotishdan olinadigan daromad bunday soliq bazasiga kirmaydi. 1965 yilgacha bu daromadlar umuman soliqqa tortilmagan, 1965 yildan kapital o'sishiga maxsus soliq joriy qilindi. 1982 yildan boshlab kapital o'sishi ko'rinishidagi daromad inflyatsiya uchun chegirmalarni ajratgandan so'ng hisobga olinadi.

Manbada undirish tizimidan foydalanilmagan hollarda soliq to'lovchi o'z kutilayotgan daromadi haqida soliq inspektoriga ariza beradi, soliq inspektori soliq to'lovchi deklaratsiyasi va uning ilovalaridan ma'lumotlar asosida daromad solig'i hisobini olib boradi. Soliq yil davomida 4 ta teng ulushlarda to'lanadi. Soliq yili oxirida haqiqatda olingan daromadlar summasi aniqlanib, daromad solig'ining yakuniy hisob-kitobi tuziladi.

Ortiqcha to'langan soliq summasi soliq to'lovchiga qaytarib beriladi, kam to'langan bo'lsa, undirib olinadi.

Fuqarolar ish haqidan boshqa daromadlar olmaydigan hollarda besh yilda bir marta deklaratsiya to'ldiradilar. Dastlab doimiy ishga kirayotgan paytda deklaratsiya rasmiylashtiriladi. Bu soliq to'lovchining statusini aniqlovchi (sh.j. oilaviy ahvolini) barcha holatlarni belgilab olish uchun qilinadi. Bu ma'lumot asosida soliq xizmati soliq to'lovchi va ishchi beruvchiga shifrlangan hujjat hisoblangan, kodlangan xabarnoma jo'natadi. Oilaviy soliq to'lovchilar deklaratsiyalari "V" (er-xotin uchun) va "N" (yakka shaxs uchun) belgilariga ega bo'ladi.

Daromad solig'i jami yillik daromadni hisobga olgan kumulyativ asosda hisoblab chiqiladi va shu asosda yig'ib olinadi.

Agar oldin to'langan soliq hisobga olib bo'lingan bo'lsa yoki imtiyoz qo'llanilmaydigan darajada kichik bo'lsa, u holda foydalanilmagan imtiyozlar keyingi hafta uchun kelgusi soliq hisob-kitoblar uchun o'tkaziladi. Shuning uchun butun yil davomida to'lovlarning qat'iy hisobini olib borish lozim. Agar bu ish to'g'ri amalga oshirilsa, soliq to'lovchi yil oxiriga soliqning mos ulushini to'laydi va murakkab qayta hisoblashlar talab qilinmaydi. Bu tizimning afzalliklari bilan birga o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Har bir soliq to'lovchi butun yil davomida har haftalik soliq hisob-kitoblarini yozma ravishda yuritishi shart, bu esa ma'muriy jihatdan ancha qimmatga tushadigan operatsiya hisoblanadi. Soliq to'lovchi oilaviy ahvolining o'zgarishi ham vaziyatni qiyinlashtiradi. Bu holda o'zgarish haqida deklaratsiya boshqarmasiga xabar berib, shifrini o'zgartirish zarur bo'ladi.

Aholidan undiriladigan to'g'ri soliqlar ichida merosdan soliqlar ham amal qiladi (*interitane tax*). 1986 yilgacha u kapitalni o'tkazishga soliq (*capital transfet tax*) deb, undan oldin esa; mulk solig'i (*estate duty*) deb atalgan. Nomi o'zgargani bilan uning asl mohiyati o'zgarmay qoldi. U ko'p miqdordagi hadyalardan undirilmaydi (agar hadya qiluvchi hadya paytidan keyin 7 yil davomida vafot etmasa).

Bunday operatsiyalar, ya'ni mulk egalariining o'zgarishi davlat solig'i qonunchiligida soliqqa tortishdan asosan ozod qilinadigan operatsiyalar hisoblanadi. Soliq mulkni berish paytida undirilmaydi. Soliq stavkasi mulk qiymatining 200 000 f.st. dan oshadigan qismidan 40% qilib belgilangan.

Britaniya soliq ma'muriyati 2 asosiy xususiyatga ega. **Birinchi**dan, uning qanday ishlashini tushunuvchi kishilar ko'p emas, **ikkinchi**dan, uning xizmat ko'rsatishi juda qimmat. Amerikaliklar soliq inspeksiyalariga yiliga bir marta murojaat qiladilar. Angliyalik soliq to'lovchilar esa, ular bilan 4 marta uchrashishga majbur. Bu shu bilan izohlanadiki, soliqqa tortishning shedullar bo'yicha amalga oshirilishi va soliqni o'tgan yil asosida hisoblash yuqori malakali ekspertizani talab qiladi. Angliyaliklar faqat soliq deklaratsiyasini to'ldiradilar va

jo'natadilar, ularning soliqlari qanday hisoblanganini tekshirish imkoniga ega bo'lmaydilar, shundan so'ng soliqni to'lashga chek oladi xolos.

Buyuk Britaniyada soliqlarni yig'ish harajatlari soliq tushumlarining 2 foizini tashkil qiladi, bu Shvetsiya yoki Kanadadagidan 2 marta, AQSh dagidan 4 marta ko'pdir. Bunda soliq organlaridagi shtatlar soni AQSh da Buyuk Britaniyadagidan 2 marta kam, soliq to'lovchilar soni esa 4 marta ko'pdir.

3. Kompaniyalarni soliqqa tortish.

Korporatsiya solig'i, ya'ni kompaniyalarning daromad solig'i Buyuk Britaniyada 1965 yilda joriy qilingan. 1965 yilgacha ular jismoniy shaxslar bilan teng soliqqa tortilgan va bunga qo'shimcha 15% li foyda solig'ini to'laganlar.

Buyuk Britaniyada 1965 yildan 1973 yilgacha amal qilgan korporatsiya solig'ining klassik tizimi o'rniga **imputatsion tizimi** deb ataladigan (*imputation system*) korporatsiya solig'ini undirish tizimi vujudga keldi.

Korporatsiya solig'i rezident kompaniyalarning butun soliq yili davomida olgan foydalariga qo'llaniladi. Angliya soliq qonunchiligi "kompaniya" tushunchasiga quyidagilarni kiritadi: korporativ organlar, korporativ assotsiatsiyalar (o'rtoqliklardan tashqari).

Korporativ organ, agar uning faoliyati shu mamlakatda amalga oshirilsa va nazorat qilinsa, ya'ni shu erda kompaniyaning bosh ofisi joylashgan bo'lsa, rezident kompaniya hisoblanadi.

Korporatsiya solig'i kompaniyalar daromadidan barcha ruhsat etilgan chegirmalarni ayirib tashlangandan so'ng undiriladi. Soliq stavkasi davlat byudjeti bilan birgalikda har yili tasdiqlanadi va kelgusi moliya yili daromadlariga qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda 33% va 24% (kichik biznes uchun) stavkalari amal qilmoqda. Korporatsiya solig'iga tortish 12 oydan oshmaydigan hisobot davridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Agar hisobot davri 2 moliya yiliga to'g'ri kelsa, kompaniya daromadlari 2 qismga bo'linadi va har biriga mos moliya yilidagi soliq stavkasi qo'llaniladi. Odatda soliq hisobot davri tugagandan keyin 9 oy o'tgandan so'ng to'lanadi.

Imputatsion tizimga muvofiq, kompaniya olgan barcha foyda summasidan korporatsiya solig'ini to'laydi. Agar bu foyda aksionerlar o'rtasida taqsimlansa, u holda kompaniya tomonidan to'langan soliqning unga mos qismi aksionerlardan daromad solig'ini undirishda hisobga olinadi.

Imputatsion tizim 5 asosiy xususiyat bilan karakterlanadi:

* Kompaniya (korporatsiya) solig'ini o'zining hamma foydasi (taqsimlangan va taqsimlanmagan) dan so'ng yagona stavkada to'laydi:

* Dividendlar bo'yicha daromad solig'i manbada undirilmaydi.

* Agar kompaniya dividend to'lasa, u holda u korporatsiya solig'i hisobiga oldindan to'lovni amalga oshirishi, ya'ni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan foyda summasiga hisoblangan korporatsiya solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lashi kerak.

* Buyuk Britaniyada dividend oluvchi rezidentlarga daromad solig'ini to'lashda bo'nak to'lov summasiga chegirma qilishga ruhsat etiladi. Chegirma stavkasi shaxsiy daromad solig'ining asosiy stavkasiga bog'liq.

* Hisobot davri tugaganda kompaniya tomonidan korporatsiya solig'i bo'yicha to'langan bo'nak to'lovlari korporatsiya solig'i hisobiga, majburiyatlardan chegirib tashlanadi.

Norezident korporatsiyalar, agar ular o'z filiallari yoki bo'limlari orqali Buyuk Britaniyada savdo-sotiqni amalga oshirsa, korporatsiya solig'iga tortiladilar. Bunda **“savdo-sotiq qilish”** tushunchasini aniqlashda tovarning oldi-sotdi qilinishi etarli emas, balki ingliz is'temolchilariga ko'rsatish yoki sotish bo'yicha shartnomalar tuziladigan joy muhim omil hisoblanadi.

Norezident kompaniyalar (Buyuk Britaniyada o'z bo'limlari orqali savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan) quyidagilar bo'yicha korporatsiya solig'iga tortiladi:

a) o'z bo'limlari orqali to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita amalga oshirilgan savdo-sotiqdan olingan daromadlar bo'yicha;

b) bu bo'limlar foydalanadigan mulkka egalik huquqidan yoki mulkdan olinadigan daromadlar bo'yicha;

v) bo'limlar foydalanadigan aktivlardan olingan (kapital) sarmoya o'sishidan.

Norezident kompaniya Buyuk Britaniyada olingan, kapital o'sishdan olinadigan korporativ soliqqa tortilmaydigan har qanday daromaddan bazaviy stavkada daromad solig'iga tortiladi. Norezident kompaniya taqsimlangan foydadan korporatsiya solig'ining bo'nak to'lovlarini to'lamaydi.

Kompaniyalarning soliqqa tortiladigan daromadi kompaniyaning yalpi daromadidan hisobot soliq yilida qilingan, qonunchilik tomonidan ruhsat etilgan barcha harajatlarni chegirish yo'li bilan aniqlanadi. Chegirib tashlanishi uchun bu harajatlar “joriy-harajatlar” bandiga kirishi va tadbirkorlik faoliyatida to'liq foydalanishi shart.

Quyidagi harajatlar yalpi daromaddan chegirib tashlanadi:

1. Faoliyat bilan bog'liq joriy harajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish bino-inshootlarini ijaraga olish (ularni sotib olish emas), ta'mirlash ishlari qiymati (o'zgartirishlar, kengaytirish va rekonstruktsiya qilish emas), valyuta kursidagi o'zgarishlar natijasida valyuta qarzlari bo'yicha yo'qotishlar, agar bu qarz “joriy harajatlar” bandiga kirsa va hokazo. Uy-joylarni ijaraga olish, noishlab chiqarish harakteridagi har qanday yo'qotishlar, imoratlarni modernizatsiyalash

harajatlari, foizlar bo'yicha katta yo'qotishlar, hamkorlarning qarz majburiyatlari, turli xil yillik to'lovlar, soliq jarimalari, kapital qo'yilmalar harakteridagi harajatlar chegirib tashlanmaydi.

2. Ishlab chiqarish ehtiyojlardan kelib chiqib, ishchi va xizmatchilarni bo'shatishda to'lanadigan kompensatsion to'lovlar, kadrlarni texnik va malakaviy qayta tayyorlash harajatlari, mukofotlari va sovg'alar ko'rinishidagi to'lovlar.

3. Kompaniyaning moliyaviy masalalari bo'yicha yuridik maslahatlarga ketadigan harajatlar, buxgalteriya hisobi bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq transport harajatlari.

4. Litsenziya to'lovlari va shunga o'xshash to'lovlar, shuningdek kelgusida foyda olish bilan bog'liq to'lovlar, masalan: bir necha yildan so'ng hosil beradigan qishloq xo'jalik ekinlari uchun qilinadigan harajatlar, natsionalizatsiya o'tkazilmasligini kafolatlovchi siyosiy partiyalarga to'lovlar (siyosiy partiyalarga to'lanadigan boshqa har qanday to'lovlar chegirib tashlanmaydi).

5. Kompaniya hamkorlariga va xorijiy sheriklariga qilinadigan ko'ngil olish harakteridagi vakillik harajatlari (agar ular tadbirkorlik maqsadlarida qilinmasa) ma'lum chegarada; reklama harakteridagi sovg'alar; (10 f.s. qiymatida oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlaridan tashqari); kompaniya mahsuloti namunalari ko'rinishidagi sovg'a harajatlari; (har bir sovg'a oluvchi uchun sovg'a harajatlari 1 yilda 10 f.s. dan oshmasligi zarur).

6. Xayriya maqsadlarida xizmat ko'rsatishga jalb qilingan xodimlarning haqi uchun harajatlar, shuningdek (1987 yildan) o'qituvchilar ishi uchun harajatlar.

7. Ta'mirlash uchun asbob-uskunalarga ketadigan harajatlar sotib olish chog'ida chegirilmaydi. Lekin bu harajatlar agar joriy harajatlarga kiritilsa yoki sotib olish paytida ta'mirlashni bekor qilishga ob'ektiv sabablar bo'lsa, chegirib tashlanadi.

8. Ish haqi, suv ta'minoti, elektr energiyasi, gaz, yoritish, pochta jo'natmalari, isitish, telefon, kantselyar tovarlar uchun harajatlar, agar ular ishlab chiqarish maqsadlarida to'liq o'zlashtirilsa yoki qisman amalga oshirilsa (bunday hollarda qisman chegirma beriladi).

9. Xayriya fondlariga badallar va xayriyalar. Bu harajatlar bo'yicha chegirmaning yuqori darajasi oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar summasining 3% ni tashkil etadi.

10. Tijorat va notijorat zararlar.

11. Foizlar, ijara va patent to'lovlar bo'yicha daromad-lardan kompaniyadan manbada undirilgan daromad solig'i, bunday to'lovlarni amalga oshirishda kompaniyadan undirilgan daromad solig'idan chegirib tashlanadi.

12. Hisobot davrida hisobdan chiqarilgan muddati o'tgan qarz-lar, (faqat tijorat harakteridagi qarzlar). Ilmiy tadqiqot ishlariga harajatlar to'liq chegirib tashlanadi.

Shimoliy dengizda neft qazib oladigan kompaniyalar uchun maxsus soliqqa tortish tartibi o'rnatilgan. Bu kompaniyalar neft korporatsiyalar solig'ini 75% stavkada to'laydilar. Shu bilan birgalikda ular umumiy korporatsiya solig'ini ham to'laydilar.

Buyuk Britaniya kompaniyalari kapitalning o'sishidan soliqni ham to'laydilar. Norezident kompaniyalar bu soliqni to'lamaydilar.

Is'temolga solinadigan soliqlar orasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) katta rol o'ynaydi. Buyuk Britaniyada bu soliq 1973 y 1 apreldan joriy etilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i Moliya vazirligining Bojxona bojlari va aktsizlar Boshqarmasining ixtiyoriga berilgan. Tadbirkor har chorakda soliq deklaratsiyasini to'ldiradi va soliq summasini bu boshqarmaga o'tkazadi yoki ortiqcha to'langan summani qaytarib oladi. Deklaratsiya chorak tugaganidan so'ng bir oy muddatda jo'natiladi.

Vazirlik bilan kelishilgan holda bu muddat 7 kunga uzaytirilishi mumkin.

Boshqarma, shuningdek, import qilinayotgan tovarlar, tamaki, alkogol ichimliklar, o'yinlar biznesi bo'yicha aktsizlar va yig'imlar uchun ham javobgar hisoblanadi.

Ichki daromadlar Boshqarmasi (bu boshqarma barcha to'g'ri soliqlar uchun javobgardir) bilan ushbu boshqarma o'rtasida axborot almashinuvi sohasida ishonchli aloqalar o'rnatilgan.

Garchi soliqni undirish o'z-o'zini soliqqa tortish tamoyili bo'yicha amalga oshirilsada, Bojxona bojlari va aktsizlar Boshqarmasi xizmatchilari 1 yildan 9 yilgacha oraliqda muntazam tekshiruvlar olib boradilar. Yirik tadbirkorlar uchun har oyda tekshirish o'tkazilishi mumkin. Barcha hujjatlar 6 yil saqlanishi shart.

Kompyuter texnikasining keng yoyilishi bilan bu sohada Moliya vazirligi bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ldi. Bojxona bojlari va aktsizlar Boshqarma xizmatchilari mijozlar foydalanadigan kompyuterlar kirishlari, bu kompyuterlarda ishlashlari mumkin (axborotlarni tekshirish maqsadida), shuningdek, ular tekshirilayotgan firma xodimlari ko'magidan foydalanish huquqiga ega.

Yiliga 22100 f.st.dan yoki chorakda 7500 f.st.dan oborotga ega bo'lgan yoki shu miqdordagi oborotni mo'ljallayotgan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash uchun Boshqarmada ro'yxatdan o'tishlari shart.

Agar tadbirkor o'z oborotining ro'yxatdan o'tish uchun zarur bo'lgan summadan kam bo'lishini taxmin qilsa, u 30 kun muddatda ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilishni so'rab, soliq organiga murojaat qilish huquqiga ega.

Tovarlar va xizmatlar hisobi ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab, choraklar bo'yicha amalga oshiriladi. Soliq deklaratsiyasi o'zini-o'zi soliqqa tortish tamoyiliga binoan to'ldiriladi. Chorak oxirida soliq xizmati soliq deklaratsiyalari shakllarini to'ldirish uchun yuboradi, ular chorak tugagandan so'ng 30 kun muddatda boshqarmaga qaytarilishi zarur.

Bojxona bojlari va aktsizlar Boshqarmasi deklaratsiyalarni bir yilda bir marta to'ldirilishiga ham ruhsat berishi mumkin, xususan, imkoniyatlari soni cheklangan kichik biznes korxonalarini uchun ko'zda tutilgan bo'lib, ular uchun har bir chorakda deklaratsiyalar to'ldirish katta qiyinchilik tug'diradi.

Shuningdek, soliq deklaratsiyalarini har oyda to'ldirish ham ko'zda tutiladi. Agar ro'yxatga olingan shaxs boshqarmaga ortiqcha to'langan soliqlarni qaytarish bo'yicha tez-tez murojaat qilishiga majbur bo'lgan hollarda bu usul qulay hisoblanadi. Odatda, doimiy eksport va boshqa operatsiyalarni amalga oshiradigan va nollik stavkada soliqqa tortiladigan shaxslar uchun oylik deklaratsiyalar topshirish qulaydir.

Agar to'lov bank o'tkazmalari orqali amalga oshirilsa, vazirlik soliqni to'lash bo'yicha barcha texnik operatsiyalarni tugallash uchun qo'shimcha muddat (7 kun) beradi.

Bojxona bojlari va aktsizlar Boshqarmasiga o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasini hisoblashda soliq to'lovchi tomonidan tovarlarni sotib olishda to'langan soliq summasini chegirib tashlash va hosil bo'lgan farqni to'lashga ruhsat beriladi.

Agar biror chorakda chegiriladigan summa katta bo'lib, to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasidan oshib ketsa, boshqarma bu farqni deklaratsiya olingandan keyin 10 kun muddatda qaytarib beradi.

Odatdagi sotuv hajmidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda hisobot davridagi etkazib berishlar (mijozlardan keladigan kassa va hisob-kitob tushumlari emas) asos qilib olinadi. Bunda schet-fakturalar, ya'ni kengaytirilgan yuk xatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'z mahsuloti uchun to'lovni olmasdan turib tadbirkor boshqarmaga soliq to'lashga majbur bo'lib qolishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tadbirkorlar va soliq organlari o'rtasida yuzaga keladigan bahsli masalalar mustaqil organ sifatida ushbu maqsadlarda maxsus tashkil etilgan tribunaldagi arizalarga ko'ra hal qilinadi. Agar masalaning echimi topilmasa, ish Oliy Sudga oshiriladi.

Buyuk Britaniya va Evropa Ittifoqi qonunchiliklar orasidagi bahsli masalalar paydo bo'lsa, ish Strasburgdagi Evropa Sudida ko'rib chiqiladi.

Qonunchilikda turli hil qonunbuzarlik, xususan, ma'lum jinoiy harakatlar uchun yolg'on ma'lumot va ko'zbo'yamachilik, ro'yxatdan o'tishning kechiktirilishi, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash maqsadlarida ruhsat qilinmagan hujjatlar chiqarish (ro'yxatga olish muddatidan oldin), soliq majburiyatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq qonunbuzarlik uchun, belgilangan qoidalarni buzganlik uchun, jinoiy va boshqa javobgarlik choralari ko'zda tutiladi. Misol uchun jinoiy hatti-harakatlar uchun ishning holatiga qarab, soliq summasining 3 karrasi miqdorida jarima to'lash shuningdek, 6 oydan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ro'yxatdan

o'tishning kechiktirilishi uchun soliq summasining 30% i miqdorida jarima ko'zda tutilgan. qonunga xilof ravishda soliq undirish uchun ham xuddi shunday jarima to'lanadi.

Buyuk Britaniya qonunchiligida, qo'shilgan qiymat solig'i olinadigan shaxslar belgilab qo'yilgan. Bular, asosan tovarlar va xizmatlarni sotuvchi shaxslar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining 3 ta stavkasi amal qilmoqda -0; 8; va 17,5 %.

Nol stavka 17 guruhdagi tovar va xizmatlar shu jumladan: oziq-ovqat mahsulotlari; suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlari; kitoblar; ko'rlar va nogironlar uchun nafaqalar; uy-joy binolari qurish; yoqilgi va isitish; qo'riqlanadigan binolar; xalqaro xizmatlar; transport, harakalanuvchi-uy va qayiq-uy; oltin; qimmatli qog'ozlar; dori-darmon; eksport; xayriyalar; kiyim-kechak va oyoq kiyimlariga qo'llaniladi.

8 foizlik stavka bo'yicha notijorat korxonalar va tashkilotlarni yoqilg'i va elektr energiya bilan ta'minlash xizmatlari soliqqa tortiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan tovarlar va xizmatlar guruhlari ham mavjud. Bularga: er; sug'urta; pochta xizmatlari; o'yin biznesi va lotereyalar; moliya; ta'lim; sog'liqni saqlash; dafn qilish xizmatlari; tred-yunion va professional jamiyatlar musobaqalari; san'at mahsulotlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan foydalanish tajribalari ko'rsatdiki, bu soliqni tushunish va uning amal qilishining soddaligi hayotda o'zini oqlamadi. Biroq, mutaxassislar fikricha, qo'shilgan qiymat solig'i o'z samaradorligini to'liq ko'rsata olganicha yo'q.

Gerb yig'implari-Buyuk Britaniyadagi eng qadimiy soliqlardan hisoblanib, 1694 yilda joriy qilingan. Qat'iy aytadigan bo'lsak, gerb yig'implari hujjatlarga solinadigan soliq (bitimlarga ham emas, shaxslardan ham emas). 1891 yilda qabul qilingan va ba'zi o'zgarishlar bilan haligacha amal qilayotgan qonun bo'yicha, bu soliq shaxslar tomonidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni rasmiylashtirishda undiriladi. Deyarli barcha tijorat va yuridik hujjatlarida bu soliqning to'langanligini tasdiqlovchi maxsus shtamp bo'lishi shart. Ba'zi hollarda gerb yig'implari stavkalari qat'iy summalarda (25 pensdan 2 f.st.gacha) belgilanadi, boshqa hollarda bitimdagi mulk qiymatidan ma'lum foizlarda undiriladi. Masalan mulkchilik huquqini boshqaga berish to'g'risidagi hujjatlar, agar mulk qiymati 60000 f.st.gacha bo'lsa, gerb yig'imidan ozod qilinadi. Agar mulk 60000 f.st.dan yuqoriga baholansa, mulk qiymatining 1% i miqdorida gerb yig'imi undiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimni ro'yxatdan o'tkazishda, qimmatli qog'ozlar uchun to'langan summaning 0,5 % i undiriladi.

4. Mahalliy soliqlar.

Buyuk Britaniyada mahalliy byudjetlar daromadlariga soliq tushumining manbai bo'lib, ko'chmas mulklar, er, uy-joy, magazinlar, tashkilotlar, zavodlar va fabrikalardan undiriladigan soliq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi erlari va undagi qurilishlar, imoratlar, (uy-joylardan tashqari), cherkovlar soliqa tortilmaydi. Soliq bazasi bo'lib mulkning yillik sof qiymati hisoblanadi. Mol-mulklar qiymati muntazam qayta baholab boriladi.

Angliya va Uelsda mulkning soliqa tortiladigan qiymati ochiq bozordagi ijara qiymatiga teng bo'lib, ijara shartlariga ijarachi barcha harajatlarini, shu jumladan, ta'mirlash, texnik-xizmat ko'rsatish va sug'urta qilish harajatlarini o'z zimmasiga olishi kiritiladi.

Soliqa tortish maqsadlarida mol-mulknini baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi. Asosiy soliq to'lovchilar ijarachilar va kvartiralarini ijaraga oluvchi hisoblanadi.

Soliq stavkasi mulkning funt sterlinglardagi qiymatidan foiz ko'rinishida o'rnatilgan. M: 1 f.st.dan 120 pens stavkada, 500 f.st.lik mulk egasi yiliga 600 f.st.soliqni mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazib berishi kerak bo'ladi. Soliqlar yarim yilda, chorakda bir marta yoki 10 marta teng bo'laklarda to'lanadi.

Sanoat binolari va imoratlaridan undiriladigan soliqlar ulushi (tijorat maqsadlarida foydalanadigan) 60 foizni qolgan 40 foizi uy-joylardan undiriladigan soliqlar ulushini tashkil etadi.

Mahalliy soliqa tortishda kam mulkka ega bo'lganlar uchun bir qancha imtiyozlar ko'zda tutilgan (soliq chegirmalari, stavkani 50% kamaytirish). Imtiyozlardan xayriya tashkilotlari ham foydalanadilar.

Tayanch so'z va iboralar

Xalqaro soliq munosabatlari
Xalqaro soliq bitimlari
Shaxsiy soliqlar
Soliq huquqi
Soliq okladi
Kommandit o'rtoqligi
Varrant
Kadastr
Konsignatsiya
Kontragent
Konosament
Frengays

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Buyuk Britaniyada hukumat almashuvi mamlakat soliq tizimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Daromad solig'iga tortishda Buyuk Britaniyadagi o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Buyuk Britaniyada korporatsiyalarni soliqqa tortishning "imputatsion tizim" tamoyili nimalardan iborat?
4. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishdagi shedullar nimalardan iborat, ularga qanday daromadlar kiradi?
5. Moliya va soliq yili nima, ularning muddatlari qanday?
6. Rezidentlikni belgilashda Buyuk Britaniyadagi o'ziga xoslik nimalardan iborat?
7. Soliqni undirish bo'yicha qanday davlat muassasalari javobgar?
8. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va imtiyozlari nimalardan iborat?
9. Gerb yigimlari nima?
10. Mahalliy byudjet daromadlarining manbai nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:3,4,7,9

Qo'shimcha adabiyotlar:1,2,6,7,11,13

4-mavzu: Germaniya soliq tizimining tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. Germaniya mamlakati soliq tizimining tarkibi.
2. Germaniya mamlakati soliqqa tortish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Germaniya soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlili.

1. Germaniya mamlakati soliq tizimining tarkibi.

1871 yilda Germaniya imperiyasi tashkil topib asosiy to'g'ri soliqlarning o'rnatilishi imperiya tarkibiga kirgan kichik davlatlar (erlar) ixtiyoriga berilgan edi. Imperiya faqat boj yig'implari, iste'mol mollariга umumimperiya soliqlarini (tamaki, pivo, aroq, shakar, to'z) o'rnatish huquqiga ega edi.

XIX asrning 90 yillarida qimmatbaho qog'ozlarga soliq gerb yig'imini 1906 yilda vorislikka soliq 1113 yilda mol-mulk solig'i va mol-mulkning o'sishiga soliq kiritildi. Birinchi jahon urushi natijasida vujudga kelgan katta moliyaviy qiyinchiliklar soliqqa tortish tizimining markazlashuvini talab qildi. Natijada Veymar respublikasida yagona moliyaviy boshqarma to'zildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniyada soliqqa tortish tizimi federatsiyalar, erlar va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Byudjet xo'jaligini mustaqil yuritish tamoyillari umumdavlat va erlarning manfaatlarni ko'zlagan holda olib borildi. Natijada hozirgi kun Germaniya Respublikasi soliq tizimida 40 soliq mavjud:

- ish haqidan olgan daromad solig'i;
- QQS;
- Kosibchilik solig'i;
- Qat'iy daromad solig'i;
- Korporatsiyalar solig'i;
- Tabiiy neftga soliq;
- Tamaki mahsulotlarga soliq;
- Cherkov solig'i;
- Er solig'i;
- Avtotransport vositalariga soliq;
- Bojxona boji;
- Er maydonini sotib olishdan olgan soliq;
- Meros solig'i;
- Kofe;
- Pivo;

- Veksel;
- g'ng'in xavfsizligini ta'minlash solig'i;
- Kuchuklar;
- Shakarga;
- Choyga;
- To'z;
- g'ritg'ich asboblarini muhofaza qilish solig'i;
- Ovchilik, baliq tutish solig'i;
- Litsenziya solig'i;

Germaniyada soliqlar federatsiya, er, qo'shma (federal va erlar bilan birgalikda), munitsipal, jamoa, cherkov soliqlariga bo'linadi:

1. Federal soliqlar quyidagi soliqlardan iborat:

- spirt, spirt mahsulotlariga soliq;
- boj yig'implari;
- kapitalning xarajatiga soliq;
- sug'urta solig'i;
- veksel solig'i;
- iste'mol mahsulotlariga soliq;

2. Jamoa, qo'shma soliqlarga quyidagilar kiradi:

- ish haqiga soliq va o'rnatiladigan daromad solig'i;
- kapital daromadidan soliqlar va korporatsiyalar solig'i;
- QQS;
- hunarmandchilik solig'i;

3. Erklar solig'iga quyidagilar kiradi:

- mol-mulk solig'i;
- er maydonini sotib olishdan soliq;
- transport solig'i;
- pivoga soliq;
- lotoreya va ot o'yinlariga soliq;
- yong'in xavfsizligini ta'minlash solig'i;
- bilyard, kozinolardan soliq.

4. Munitsipal soliqlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- er solig'i;
- mahalliy iste'mol soliqlari;
- it egalaridan soliq;
- kosibchilik.

Qo'shma soliqlarining taqsimlanishi.

2-jadval

№	Soliqlar nomi	Soliqlarning soliq summasidagi ulushi (%da)		
		Federatsiyalarga	Erlarga	Jamoalarga
1.	QQS	67,5	32,5	-
2.	Qo'shimcha ajratmalar	1,5	1,5	-
3.	Daromad solig'i	42,5	42,5	15,3
4.	Deklaratsiyalanmagan daromad	50,0	50,0	-
5.	Korporatsiya solig'i	50,0	50,0	-
6.	Kosibchilik	9,0	9,0	82,0

Germaniya Respublikasida byudjetning markazlashmaganligi markaziy byudjet vositalarining mablag'larining qayta taqsimlanishi bilan emas, balki byudjet daromadlarni manbalarining qonuniy biriktirilib qo'yilishi bilan amalga oshiradi.

Har bir soliq bo'yicha deyarli alohida ma'yoriy hujjatlar mavjud. Germaniya Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'ri soliqlar ichida eng muhimi hisoblanadi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib ish haqi, erkin kasb daromadlari, gonorarlar, kapital daromadlari, banklar jamg'armalaridagi foizlar, ijara haqi, xususiy ish faoliyatidan olinadigan daromadlar va boshqalar kiradi. Germaniya Respublikasida 6ta soliq informatsiyalari mavjud bo'lib ular ishchi va xizmatchilarning ommaviy xolatini, bolalar sonini, hisobga olgan holda amal qiladi.

1 sinfga: bo'ydoqlar, bolasiz ishchilar, ajrashganlar, bevalar.

2 sinfga: ajrashib 1 ta bolasi borlar.

3 sinfga: oilalilar, agar bittasi ishlasa (ikkalasi ishlasa) ularning 1 tasi 5 sinfga o'tkaziladi.

4 sinfga: oilada er-xotin 1 vaqtda ishlasa daromadlari alohida soliqqa tortilganda.

5 sinfga: oilada ikkalasi ham ishlab ularning umumiy kelishuvga asosan 3 sinfga o'tkazilgan bo'lsa.

6 sinfga: 1 nechta ish joylarida daromad oluvchilar.

Yillik ish haqi 60 ming marka tashkil etuvchilardan olgan daromad solig'ini aniqlash

3-jadval

Soliq sinfi	Bolalar soni						
	0	1	2	3	4	5	6
I	15453	14399	13369	12365	11385	10436	9516
II	-	12450	11469	10517	9595	8704	7847
III	9636	8960	8306	7474	7066	6480	5916
IV	15453	14923	14399	13881	13368	12863	12363
V	25820	-	-	-	-	-	-
VI	26462	-	-	-	-	-	-

Soliqqa tortilmaydigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1. Ish haqidan olinadigan daromad solig'idan har 1ta ishlovchi shaxsdan 450 marka yiliga chegiriladi.
2. Rojdestvo to'lovlari 600 marka.
3. Ishga borish va qaytish transport harajatlari 564 marka.
4. Maxsus harajatlar (hayot sug'urtasi, ish malakasini oshirish harajatlari) 270-540 marka.
5. Bolalari bilan yakka yashovchilar uchun oila byudjetini qo'llab quvvatlashiga 4752 marta yiliga.
6. Bolalar soniga qarab soliqdan ozod qilish 1ta bolasi borlarga 1ta ishlovchi uchun 2ta odam ishlasa 14904 marka.
7. Qarilikni ta'minlash uchun qo'shimcha ajratmalar - 3510 marka.

3. Germaniya mamlakati soliqqa tortish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Er solig'i munitsipalitetlar tomonidan undiriladi va uning ob'ekti bo'lib, qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaliklarining korxonalari, kompaniya va xususiy shaxslarning erlari. «Provintsiya er solig'i to'g'risidagi» yiriqnomasiga muvofiq er solig'i 2ga bo'linadi.

1. «A-er solig'i» (qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jalik korxonalariga solinadi).
2. «B-er solig'i» (kompaniyalar va xususiy shaxslarning er maydonlari va qurilmalariga solinadi).

Er solig'i stavkalari quyidagicha belgilangan:

1. Qishloq va o'rmon xo'jalik korxonalari uchun - 0,6%;
2. Qurilmagan er maydonlari uchun - 0,36%;
3. Xo'jalik er maydonlari uchun - 0,36%;

4. 1ta oila uchun uy-joy qurish er maydoniga uy qiymatini 75 ming markasigacha - 0,26%.
5. 2ta oila uchun qurilgan er maydoniga - 0,31%;
6. Er solig'idan quyidagilar ozod etiladi:
 - davlat tashkilotlarining er maydonlari;
 - cherkovlar;
 - bolalar bog'chalari;
 - kasalxonalar;
 - internatlar;
 - ilm-fan yo'nalishda foydalanishda bo'lgan er maydonlari.

Yangi qurilgan uy-joylar uchun er solig'idan bir yil davomida uy egalari ozod etiladi. Har 3 yilda er solig'i summasi belgilab beriladi va har kvartalda to'lanishi lozim.

Kapitaldan olinadigan daromad solig'i jismoniy shaxslardan olinib, dividendlar va foizlarga nisbatan hisoblanadi. Byudjetdagi jami daromadlarga ushbu soliqning salmog'i 2-3%ni tashkil etadi. Soliq stavkasi 25% qilib belgilangan. Buyuk Britaniyada - 25%, Yaponiyada - 20%, Italiyada - 30%, Frantsiyada -25%, Shvetsiya -35%, Ispaniya -20%, O'zbekiston Respublikasida -15%, Lyuksemburg va Daniyada bu soliq umuman yo'q.

Germaniyada mol-mulk solig'ining ob'ekti bo'lib:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulki.
2. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalarining mol-mulki.
3. Xususiy mulkning ayrim turlari.
5. Kompaniyalarning ishlab chiqargan moslamalari kiradi.

Yuridik shaxslar mol-mulki uchun 0,6% belgilangan. Jismoniy shaxslarning ko'chmas mulki, qimmatli qog'ozlari, banklarning foizlari, san'at asarlari, qimmatbaho buyumlari, xususiy samolyotlari (aholiing 10%), yaxtalari va boshqa mol-mulklari soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortiladigan minimum 70 ming markani tashkil etadi. QQS stavkasi 14%, imtiyozli stavka iste'mol mahsulotlari uchun 7% deb belgilangan. Eksport operatsiyalari uchun belgilangan soliqlar hech qanday imtiyozlarga ega emas.

Xom-ashyo, yarim-tayyor mahsulotlar import qilinsa bojlar undirilmaydi.

4. Germaniya soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlili.

Germaniya mamlakatini O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtiradigan bo'lsak bir qancha o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud. Ularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin:

O'zbekistonda soliqlar respublika va mahalliy soliqlarga bo'linsa, Germaniyada federal erlar (xudud) va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Germaniyada qo'shma soliqlar, ya'ni bir vaqtning

o'zida bir necha byudjetga tushadigan soliqlar mavjud. O'zbekistonda esa yo'q, xar bir soliq turi to'lig'icha bitta byudjetga tushadi.

Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha rivojlangandir va soliq turlari ham O'zbekistondagidan bir muncha ko'p. Germaniyada O'zbekistonda bo'lmagan, o'ziga xos hususiyatga ega bo'lgan soliqlar: cherkov solig'i, it solig'i va boshqalar mavjuddir. Shu bilan birga O'zbekistonda mavjud mol-mulk solig'i Germaniyada yo'q.

Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab to'zilishga ega. Buni er solig'i, jismoniy shaxslar daromadiga soliq misolida ko'rishimiz mumkin.

Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Korporatsiyalarni daromadini soliqqa tortishda daromadlar ikkiga bo'linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan.

O'zbekistonda bu soliq yuridik shaxslar daromadiga soliq deb yuritiladi. Yuridik shaxslarni faoliyatidan kelib chiqib kichik korxonalar yagona soliq, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi daromad solig'i va qolgan yuridik shaxslar umumiy tatribda soliq to'laydilar.

Germaniyada mol-mulk solig'i o'rniga jismoniy shaxslarga meros va sovg'aga soliq joriy qilingan. U qarindoshlik darajasiga qarab 3%dan 70% stavkagacha qo'llaniladi. O'zbekistonda meros va sovg'aga soliq bir martalik yig'im sifatida joriy qilingan.

Germaniyada er solig'i ulardan foydalanish turi hamda u erda yashovchi oilalar soniga qarab qo'llaniladi. O'zbekistonda esa er solig'i yuridik shaxslarga alohida va jismoniy shaxslarga alohida qo'llaniladi. Soliq stavkasini Vazirlar Mahkamasi har yili qayta belgilaydi.

Germaniyada QQS solig'ini pasaytirilgan stavkasi mavjud. O'zbekistonda esa QQS yagona stavkada qo'llaniladi.

Germaniya soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimi o'rtasidagi o'xshashlikka to'xtaladigan bo'lsak, har ikki davlatda ham bir qancha mohiyati jihatidan bir xil soliqlar mavjud. Masalan QQS, jismoniy shaxslar daromad solig'i, aktsiz solig'i.

Tayanch so'z va iboralar

Jamoa mulki

Byudjet

Veksel

Davlat daromadlari.

Daromadlar solig'i

Reklama

Korporatsiya

Ko'chmas mulk

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Germaniyada soliqqa tortish tizimi nechaga bo'linadi?
2. Federal soliqlar tarkibini qaysi soliqlar tashkil etadi?
3. Munitsipal soliqlar tarkibini qaysi soliqlar tashkil etadi?
4. Qo'shma soliqlar nima va ular qaysi byudjetni shakllantiradi?
5. Germaniyada mol-mulk solig'ining ob'ekti nima?
6. Germaniyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i o'ziga xos xususiyatini nimada ko'rishimiz mumkin?
7. QQS bo'yicha imtiyozli stavkalar qaysi imtiyozlar uchun qo'llaniladi?
8. Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston soliq tizimi bilan o'xshashligi nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:1,4,5,7

Qo'shimcha adabiyotlar:1,2,3,4,11,15

5-mavzu: Frantsiya soliq tizimining tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. Frantsiya mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati.
2. To'g'ri va egri soliqlar, ularning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Frantsiya mahalliy soliqlarning o'rni va ahamiyati.
4. Frantsiya mamlakati soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimining solishtirma tahlili.

1. Frantsiya mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati.

Hozirgi kunda Frantsiya mamlakati soliq tizimida 3 ta yirik soliq guruhlari mavjud:

1. Daromadlarni olish vaqtidan to'lanadigan daromad solig'i.
2. Daromad sarflanish vaqtida undiriladigan iste'mol soliqlari.
3. Kapitalga solinadigan soliqlar guruhi.

Frantsiya byudjet tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib QQS hisoblanadi. Dunyo bo'yicha Frantsiya QQSning vatani sifatida tan olingan. Bu soliq 1950 yillarning boshlarida joriy etilgan bo'lib 50 yildan ortiq amal qilib kelmoqda. Aynan Frantsiyada davlat harajatlarini moliyalashtirishda egri soliqlardan foydalanish kabi boy an'ana uzoq muddatdan beri davom ettirib kelmoqda. Frantsiyada QQS mamlakat ichida iste'mol qilingan va ishlatilgan barcha tovar va xizmatlarni qamrab oladi. Tashqi dunyo bilan aloqador barcha operatsiyalar QQSdan ozod qilingan. Import operatsiyalari ichki tartib bo'yicha soliqqa tortiladi. Soliqning asosiy stavkasi 18.6% bo'lib, eng yuqori stavkasi 22%ni tashkil etadi. Ushbu yuqori stavka avtomobillar, kinolar, fotomahsulotlar, atir-upalari, mo'ynalar, qimmatbaho terilarga nisbatan qo'llaniladi. Kamaytirilgan soliq stavkasi 5.5% bo'lib, u asosan oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, kitoblar va medikamentlarga nisbatan qo'llaniladi. QQSdan quyidagilar ozod etiladi:

1. Ma'muriy, ijtimoiy, tarbiyaviy, madaniy va sport funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat tashkilotlarini faoliyati;
2. Qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish faoliyati;
3. Ba'zi erkin kasblar:
 - xususiy o'qituvchilik faoliyati;
 - xususiy shifokorlik amaliyoti;
 - erkin ijod bilan shug'ullanuvchilar.

2. To'g'ri va egri soliqlar, ularning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari.

QQS bilan bir qatorda iste'mol soliqlari tarkibiga kiruvchi aktsiz solig'i ham undiriladi. Aktsiz solig'ining ba'zilar davlat byudjetiga, ayrimlari mahalliy byudjetga kelib tushadi. Aktsiz osti mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

- alkagol ichimliklar;
- tamaki mahsulotlari;
- gurgurt, yondiruvchi vosita;
- qimmatbaho buyumlardan tayyorlangan mahsulotlar;
- zargarlik buyumlari;
- pivo;
- mineral suvlar va boshqalar.

Egri soliqlar tarkibiga, shuningdek, bojxona bojlari va davlat bojlari kiradi. Bojxona bojlarini undirishdan asosiy maqsad daromad olish emas, balki ichki bozorni himoya qilish, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarilishini nazorat qilish, milliy sanoatni va qishloq xo'jaligini nazorat qilish va himoyalashdir. Bojxona bojlari stavkalari bojxona xizmati organi tomonidan belgilanadi.

Korxonalar foydasidan olinadigan soliq - bu korxonani barcha operatsiyalar yig'indisi bo'yicha olingan sof foydadan undiriladi. Hozirgi kunda soliqning asosiy stavkasi 34% bo'lib, ushbu soliq stavkasiga ham pasaytiruvchi koeffitsient qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 42% dir,

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i har yili moliya yili tugugandan so'ng kelgusi yilning boshida deklaratsiya orqali undiriladi.

Yil davomida olingan barcha pul tushumlari daromad deb tushuniladi. Bunga asosan quyidagilar kiradi:

1. Ish xaqi;
2. Mukofotlar;
3. Pensiya va nafaqalar;
4. Umrbod renta;
5. Harakatlanuvchi mol-mulkdan olingan daromad;
6. Erdan foydalanish natijasida olingan daromad;
7. Qishloq xo'jaligidan olingan daromad;
8. Sanoat yoki tijorat faoliyatidan olingan daromad;
9. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalar bo'yicha olingan daromad va boshqalar.

Soliqqa tortiladigan bazadan qonunda belgilangan xarajatlar chegirib tashlanadi. Ushbu soliqlarning stavkasi progressiv harakterga ega bo'lib, "0" % dan - 56.8 % gacha o'zgaradi.

- 18440 frankdan oshmaydigan daromadlar soliqlarga tortilmaydi;
- 246770 frankdan ortiq daromadlar uchun eng yuqori soliq stavkasi qo'llaniladi.

Frantsiya byudjetiga mol-mulkka solinadigan soliq ham katta daromad keltiradi. Mol-mulkka solinadigan soliq ham katta daromad keltiradi. Mol-mulk solig'ining ob'ekti bo'lib:

- mol-mulk;
- mulkiy huquq;
- qimmatli qog'ozlar kiradi.

Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat, qishloq xo'jaligi korxonalar, harakatlanadigan mol-mulk, chorvalar va ko'p yillik daraxtlar kiradi.

Mol-mulk solig'i progressiv harakterga ega bo'lib, tabaqalashtirilgan. Frantsiyada shu narsaga alohida e'tibor beriladiki, daromad solig'i va mol-mulkka solinadigan soliqlarning umumiy summasi jami daromadning 85% dan ortib ketmasligi kerak.

Frantsiya mamlakatida mol-mulkka solinadigan soliqlarning asosiy stavkalari:

4-jadval

Mulk qiymati (frankda)	Soliq stavkasi (%da)
4260000	0
4260001-6920000	0.5
6920001-13740000	0.7
13740001-21320000	0.9
21320001-412280000	1.2
41280001 dan yuqori	1.5

Mol-mulkdan olinadigan soliq tarkibiga, shuningdek, korxonalar ro'yxatdan o'tkazish yig'imi, gerb yig'imi va davlat bojlari ham kiritiladi.

3.Frantsiya mahalliy soliqlarning o'rni va ahamiyati.

Frantsiya soliq tizimida mahalliy soliqlar ham sezilarli o'rinni egallaydi. Mahalliy idoralar 80000 ortiq mustaqil byudjetlarni birlashtiradi (kommunal, kommunal birlashmalar, departamentlar va regionlar). Mahalliy soliqlar va yig'imlar 4-ta asosiy guruhga bo'linadi va ular quyidagilardan iborat:

1. Qurilish qilingan erlarga solinadigan soliq va yig'imlar;
2. Qurilish qilinmaydigan erlarga solinadigan soliq va yig'imlar;
3. Turar joyga soliq;
4. Kasb-xunarga soliq.

Qurilish qilingan erlarga solinadigan soliqlarning ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- bino va inshootlar;
- qishloq xo'jaligi inshootlari;
- sanoat va tijorat maqsadlar uchun ishlatishga mo'ljallangan maydonlar.

Qurilish qilinmaydigan erlarga quyidagilar kiradi:

- dalalar, o'rmonlar, yaylovlar;
- botqoqliklar;
- qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan erlar;
- sun'iy yaratilgan o'rmonlar;
- qo'riqxonalar.


Turar joyga soliq turar joy egalari va ijarachilar tomonidan to'lanadi.

Kasb hunarga soliq erkin kasb bilan shug'ullanadigan, lekin ish haqi olmaydigan shaxslar tomonidan to'lanadi.

Mahalliy yig'imlarga quyidagilar kiradi:

1. Hududni yig'ishtirganlik uchun yig'im;
2. Qishloq xo'jaligi palatasini saqlab turish uchun boj;
3. Hunarmandlar palatasini saqlab turish uchun boj;
4. Avtotransport vositalariga bojlar;
5. Boshqa bojlar va yig'imlar.

Frantsiya soliq tizimining tarkibi.



4. Frantsiya mamlakati soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimining solishtirma tahlili.

Frantsiya soliq tizimini O'zbekiston soliq tizimi bilan o'xshashliklari juda ko'pdir. Bu o'xshash jihatlarni quyidagi soliq turlarini mavjudligi, ularni byudjetga to'lanish tartibi jihatlaridan solishtirma tahlil qilamiz:

Frantsiya soliqlari umumdavlat va mahalliy soliq'larga bo'linishi O'zbekiston Respublikasining bo'linishiga o'xshashdir.

Frantsiyada markaziy hukumat byudjet daromadlarining asosiy 93% ni soliq to'lovlari tashkil etadi. Byudjet daromadlarining qolgan qismini maxsus daromadlar tashkil qiladi. Maxsus daromadlar asosan ijtimoiy fondlarga to'lovlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida markaziy hukumat byudjet daromadlarining asosiy qismini 93-95%ni soliq to'lovlari tashkil etadi. Qolgan qismini pensiya fondi, bandlik fondi, yo'l fondi kabi fondlarga to'lovlar tashkil etadi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra Frantsiya va O'zbekiston Respublikasini soliq tizimi to'g'ri soliq va egri soliq'larga ajratiladi. To'g'ri soliqlar o'z navbatida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlardir. Bu soliq turlari quyidagilar:

- Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar:
 - korporatsiya foydasidan soliq;
 - korporatsiya mol-mulkiga soliq;
 - sug'urta jamiyatlarining daromad solig'i;
 - yuridik shaxslardan mahalliy yig'img'lar va boshqa soliq'lar ham undiriladi.
- Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq'lar:
 - jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
 - turar joyga soliq;
 - kasb-hunarga soliq'lar;
 - mahalliy yig'img'lar va boshqa yig'img'lar.
- Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq'lar:
 - qurilish qilinadigan erlarga soliq;
 - qurilish qilinmaydigan erlarga soliq;
 - reklama solig'i;
 - mahalliy yig'img'lar va boshqa to'lovlar.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Bu soliqlarni tarkibi Frantsiyaga taaluqli bo'lib, egri soliqlar tarkibi O'zbekiston Respublikasini egri soliqlari tarkibi bilan bir xildir.

O'zbekiston Respublikasining to'g'ri soliqlar tarkibiga yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ekologiya solig'i, savdo tashkilotlarini yalpi daromad solig'i, reklama solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq, mahalliy yig'imlar va boshqa soliqlar kiradi.

Frantsiyada byudjet daromadlarining 8,5 % ni egri soliqlar tarkibiga kiruvchi neft mahsulotlariga soliq va aktsiz solig'i egallaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i asosiy o'rinni egallaydi va byudjet daromadlarining 20-21%ni tashkil etadi. To'g'ri soliqlar ichida ikkinchi o'rinni kompaniyalar daromadiga soliq egallaydi. U byudjet daromadlarining 8-10%ni tashkil etadi.

O'zbekistonda umumiy byudjet daromadlarining 2002 yilda 19.8 % ni aktsiz solig'i egallashi prognoz qilingan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 % ni tashkil etishi prognoz qilingan. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining ulushi esa 9.2 % ni tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Frantsiyada kompaniyalar daromadiga soliqning asosiy stavkasi 34 % qilib belgilangan.

O'zbekistonda esa yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi 2003 yil uchun 20 % qilib belgilangan.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i Frantsiya davlatidagi fuqarolardan olinadigan daromad solig'i bo'lib, tarixiy xususiyatga ega. Frantsiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining xususiyati quyidagicha:

- davlat tomonidan ijtimoiy siyosat yurgizishga ta'sir etadi;
- har bir kishining daromadidan emas balki oila daromadiga nisbatan hisoblanadi.

Ushbu soliqning to'lovchilari 18 yoshga to'lgan va undan kattalar hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i Frantsiya davlat byudjetidagi ulushi 20 % ni tashkil etadi. Daromad solig'idan tushgan mablag'larni kam ta'minlangan oilalarga, ta'lim, maorif, sport va boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari jismoniy shaxslarning daromad solig'iga aholining omonat kassalariga, ko'chmas mulkka pul qo'yishini, aksiyalar sotib olishni rag'batlantirish funktsiyalari yuklatilgan.

Soliq miqdori progressiv harakterga ega bo'lib, eng yuqori stavka 16.8 % ni tashkil etadi. Frantsiyada istiqomat qiluvchilarning barchasi mamlakat ichida yoki chet elda olgan daromadlaridan daromad solig'i to'laydilar. Yil davomida olingan barcha pul tushumlari daromad deb tushuniladi. Bunga asosan quyidagilar kiradi: ish xaqi, mukofotlar, pensiya va nafaqalar, renta,

harakatlanuvchi mol-mulkdan olingan daromad, qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan daromad, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha olingan daromad va boshqa daromadlar kiradi.

Frantsiya davlatida aholidan olinadigan daromad solig'i yalpi daromadga nisbatan hisob-kitob qilinadi va fuqarolar yiliga bir marta topshiriladigan deklaratsiya asosida soliq hisob-kitob qilinadi. Daromad solig'ini hisoblashda soliq to'lovchining daromadi 7 ta kategoriyaga bo'linadi:

1. g'llanma ish uchun mehnatga haq to'lash;
2. Erdan olinadigan daromad;
3. Aylanma mablag'lardan olinadigan daromad;
4. Qayta sotishdan olinadigan daromad;
5. Hissadorlik jamiyati hisoblanmagan korxonalarining sanoat va savdo operatsiyalaridan olingan daromad;
6. Notijorat daromadlari;
7. Qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan daromadlar;

O'zbekiston jismoniy shaxslaridan undiriladigan soliq Frantsiya jismoniy shaxslaridan olinadigan soliqqa mohiyatan o'xshab ketadi. Ularning biroz farqi stavkalaridadir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida quyidagi guruh stavkalari belgilangan:

- Jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlarining differentsial stavkalari;
- Jismoniy shaxslarning dividend va foizlarga stavkalar;
- Manbalar to'langan norezidentlarning daromadlariga stavkalar.

Soliq ob'ekti bo'lib yillik jami daromad bilan soliq qonunchiligi bo'yicha chegirilib tashlanadigan chegirmalar orasidagi farq sifatida aniqlangan miqdor soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Demak, soliqqa tortiladigan daromad – bu jami daromaddan chegirmalar va soliqqa tortilmaydigan daromadlar chiqarib tashlangan summadir.

Frantsiya byudjetiga mol-mulikka solinadigan soliq ham katta daromad keltiradi. Mol-mulk solig'ining ob'ekti bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: mol-mulk, mulkiy huquq, qimmatli qog'ozlar. Mol-mulk tarkibiga binolar, inshootlar, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari xarakterlanadi. Mol-mulk, chorva mollari va ko'p yillik daraxtlar kiritiladi. Ushbu soliq progressiv xarakterga ega bo'lib, tabaqalashtirilgan. Frantsiyada shu narsaga alohida e'tibor berilganki daromad solig'i bilan mol-mulikka solinadigan soliqning birgalikdagi umumiy summasi jami daromadning 85 foizidan ortib ketmasligi kerak.

O'zbekistonda mol-mulk solig'i Frantsiyadagi mol-mulk solig'i bilan deyarli bir xil ahamiyatga ega bo'lib, ular soliq stavkalari va hisoblanishi jihatidan farq qiladi.

QQSning vatani Frantsiya bo'lib, 1954 yilda Lore tomonidan joriy qilingan. QQS birinchi bo'lib markaziy byudjetga kelib tushadi. Uning 10 % i esa bevosita mahalliy byudjetga borib tushadi. QQSning asosan 3ta stavkasi mavjud:

- pasaytirilgan stavka – turistik otellar, pansionat, korxonalar oshxonasida tayyorlangan oziq ovqatlar uchun, shakar, yog', sut mahsulotlari, murabbo, ximikatlar, o'g'itlarga nisbatan 2,1 % ni tashkil etadi.
- o'rtacha stavka – import mahsulotlariga, savdo-sotiq operatsiyalariga, gaz, elektr, issiq suvga, choy, kofe, mo'zqaymoqlar va restorandagi xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Uning stavkasi 4-5.5 % ni tashkil etadi.
- yuqori stavka - qimmatbaho toshlarga, hayvonlar terisiga, mo'ynalar, kinoapparatura, audio, video apparaturalar, avtomobillar, tamaki mahsulotlari va gugurtlarga nisbatan 18,6 % qilib belgilangan.

O'zbekistonda QQS tovarlarni ishlab chiqarish, sotish va O'zbekiston xududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishni bildiradi. QQS oborotdan olinadi. QQS stavkasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 20% li proporsional stavka qilib belgilangan. O'zbekistonda tovar, mahsulot, ko'chmas mulk, imoratlar va inshootlar qo'shib elektr-energiya, issiqlik energiyasi, gaz, suv, bajarilgan qurilish montaj, ta'mirlash, ilmiy tekshirish, tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyiha qidiruv, ta'mirlash va boshqa ishlarga QQS solinadi.

Frantsiya soliq tizimida mahalliy soliqlar ham ahamiyatli bo'lib, mahalliy idoralar 80 000 dan ortiq mustaqil byudjetlarni birlashtiradi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar 4 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- qurilish qilingan erlarga solinadigan soliq - ob'ekti bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: bino va inshootlar, minoralar, sanoat va tijorat maqsadlarida ishlatilishga mo'ljallangan maydonlar.
- qurilish qilinmaydigan erlarga solinadigan soliq ob'ekti bo'lib dalalar, o'rmonlar, yaylovlar, botqoqliklar sho'r erlar, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan erlar, qo'riqxonalar va boshqalar.
- turar joylarga soliq - ob'ekti turar joy egalari va ijarachilar mol-mulki.
- kasb-xunarga soliq - erkin kasb bilan shug'ullanadigan lekin ish haqi olmaydigan shaxslar tomonidan to'lanadi.

O'zbekiston mahalliy soliqlari Frantsiyaniqidan bir muncha farq qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i, yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar reklama solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq, infrato'zilmani rivojlantirish solig'i, savdo huquqini olish yig'imi va boshqalar.

Tayanch so'z va iboralar

Ijtimoiy himoya

Hamkorlikdagi tadbirkorlik zonalari

Aktsizlar

Assortiment

Daromad solig'i

Departament

Dividend

Yig'imlar

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Frantsiya soliq tizimida qanday soliq guruhlar mavjud?
2. Frantsiyada qaysi mahsulot turlariga nisbatan engillashtirilgan QQS stavkalari qo'llaniladi?
3. Frantsiyada QQSdan nimalar ozod etiladi?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. Frantsiya mamlakatida mol-mulk solig'i nimalarga nisbatan solinadi?
6. Mahalliy soliqlar tarkibini qaysi soliqlar tashkil etadi?
7. Mahalliy yig'imlar tarkibini qaysi yig'imlar tashkil etadi?
8. Frantsiyada gerb yig'imini undirish tartibi qanday?
9. Frantsiya va O'zbekiston soliq tizimlari o'rtasida qanday farqlar va o'xshashliklar mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:1,4,5,6

Qo'shimcha adabiyotlar:1,2,4,5,11,13

6-mavzu: Yaponiya davlati soliq tizimining tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. Yaponiya davlat soliq tizimining tarkibi.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar, meros solig'i va sovg'alarga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Yaponiyada iste'mol soliqlari.
4. Yaponiya soliq tizimi bilan O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili.

1. Yaponiya davlat soliq tizimining tarkibi.

Hozirgi davri Yaponiya soliq tizimi 1949 yilda moliya sohasidagi amerikalik mutaxassis Shouppning taklifiga binoan soliq islohoti o'tkazilgandan keyin tashkil topdi. Soliq tizimi rivojlangan davlatlarga qaraganda ancha keyin rivojlangan bo'lib, soliqlarning milliy daromaddagi hissasi 27,9%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatgich Germaniyada 30,6%, Frantsiyada 33,9%, AQShda 26,1% ni tashkil etadi.

Yaponiyada to'g'ri va egri soliqlar mavjud bo'lib, to'g'ri soliqlarga korporatsiya daromadiga soliq, vorislikka soliq va er solig'i kiradi.

Egri soliqlarga iste'mol soliqlari, spirtli ichimliklarga, tamaki mahsulotlariga, shakar, benzin, neft, aviatsiya yoqilg'isi, chet el valyutasi va qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarga, yo'lovchilarni tashish, avtomobil vositalariga bojxona bojlari kiradi.

Daromad solig'i to'g'ri soliqlarning eng ko'p qismini, ya'ni 35%ni tashkil etadi. Daromad solig'i bo'yicha 5 darajali soliqqa tortish shkalasi to'zilgan. Soliqqa tortish kattaligi yillik daromaddan 0,2%-50,1%gacha o'zgaradi.

Soliqqa tortishning minimal chegarasi 3 million ienaga teng. 1 kishilik oila uchun stavka 0,2% belgilangan. 2 kishilik uchun 6,9% belgilangan.

Yirik daromad egalari 50 mln. ienadan yuqori daromad olsalar 50,1%gacha soliq stavkasi asosida soliqqa tortiladi.

Korporatsiyalarga solinadigan foyda solig'i 32%ni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koeffitsient qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 48,8%ni tashkil etadi.

Vorislikka soliq va sovg'alarga solinadigan soliq summasi 8 mln. ienadan boshlab hisoblanadi. Ushbu soliq bo'yicha 13 darajali shkala belgilangan. Uning asosiy stavkalari 10%dan 70%gacha o'zgaradi.

Yaponiyada er solig'i 200 kv. m. dan kichik bo'lgan erlarga pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladi. Undan yuqori er uchastka egalari er solig'ini asosiy to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Iste'molga soliq 9%ni tashkil etadi. Uni hisoblashda tovar va xizmatlarning qiymati shartnomalarda belgilangan narxlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bu soliq Yaponiyadagi barcha

tijorat shartnoma va kelishuvlarda, ssuda berish, mulkchilik shakllarini o'tkazish va barcha xizmatlarda amal qiladi. Bu soliq shuningdek, tibbiyot mahsulotlari, tibbiyot uskunalari, dori darmonlar, mehmonxona anjomlari, darsliklar, o'qish ashyolariga ham belgilangan. Temir yo'l chiptalari, taksi, telefon, pochta xizmatlaridan, import tovarlariga ularni qabo'l qiluvchilardan olinadi.

Bu soliq erga egalikni o'tkazilganda yoki ssudaga erni foydalanish uchun berilganda amal qilinmaydi.

Qimmatbaho qog'ozlar operatsiyasiga, bank depozitlarining foizlariga, jamg'armalarga, patent litsenziyalarga, ro'yxatga o'tkazilganda, chet valyutasi operatsiyalariga, tibbiyot xizmatlariga, bola bog'chalariga, maktab va universitetlarga kirish va o'qish xarajatlariga, pochta markalari, 10 ming ienadan qimmat bo'lgan chet el tovarlariga nisbatan qo'llaniladi.

Yaponiyadagi chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar boshqa barcha korxonalar qatori soliqqa tortiladi.

Yaponiya davlati soliqlari.

5-jadval.(1 mln. iena)

Davlat soliqlari	Summada	%da
1. Bevosita soliqlar	379,27	61,6
a) Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	208,820	63,8
b) Korporatsiyalarga soliq	144,320	35,1
s) Likyorga soliq	24,610	24,3
d) Er solig'i	1,520	-4,1
2. Egri soliqlar	215,542	36,2
a) Iste'mol solig'i	98,130	16,5
b) Spirtli ichimliklarga soliq	20,610	3,5
s) Tamakiga soliq	10,620	108
d) g'qilg'i mahsulotlarga soliq	19,560	3,3
e) Bojxona bojlari	10,930	1,8
f) Avtomobil quvvatlariga soliq	8,390	1,4
Jami davlat soliqlari	594,812	

Mahalliy soliqlar

6-jadval

1. Prefektura solig'i	160,714	43,4
2. Munitsipal soliqlar	209,429	56,5
Jami (II punkt)	370,143	100

2. Daromaddan olinadigan soliqlar, meros solig'i va sovg'alarga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari.

Yaponiyada soliq tizimini 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Daromaddan olinadigan soliq.
2. Mol-mulk solig'i.
3. Iste'mol solig'i.
4. Maxsus mahsulotlarga nisbatan belgilangan soliqlar.

Ushbu 4ta guruh soliqlarining o'z navbatida milliy va mahalliy soliqlarga bo'lish mumkin.

Milliy daromad soliqlarga jismoniy shaxslardan va korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i kiradi.

Mahalliy soliqlarga prefekturada yashovchilar solig'i va shahar boshqarmalari soliqlari kiradi. Aholi daromadlari solig'ining hisoblanishiga ko'ra 10 ta guruhga bo'linadi.

1. Turli xil foizlardan olinadigan foyda;
2. Dividendlardan olinadigan foyda;
3. Asosiy fondlarni ijaraga berishdan olinadigan foyda;
4. Biznes daromadi (bu daromadga savdo-sotiqdan, ishlab chiqarishdan, qishloq xo'jaligidan, baliqchilikdan, meditsina xizmatidan va boshqa xil xizmatlardan kelib tushadigan daromadlar kiradi);
5. Ish bilan band bo'lganlarning daromadlari (ish xaqi, turli xil mukofotlardan olinadigan foyda, davlat tomonidan beriladigan ta'minotlar va boshqalar kiradi);
6. Nafaqa yoshlaridagilarning daromadlari.
7. O'rmon mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar;
8. Kapital tushumlar, erni, binolarni ijaraga berish orqali keladigan daromadlar (asosiy fondlarni lizing qilishdan olinadigan daromadlar kapital tarkibiga kiradi);
9. Tasodifiy daromadlar (lotoreya, ot choparlardan, har qanday musobaqalardan yutiladigan yutuqlar shuningdek, televidenie, radio, amalga oshiriladigan qiziqarli o'yinlardan yutuqlarga nisbatan);
10. Turli-tuman daromadlar (qo'l-yozmalarni vakolatini olishdan tushgan daromadlar, yozuvchilarning daromadlari, gonararlar va boshqalar kiradi).

Daromad solig'i progressiv stavka asosida hisob-kitob qilinadi va 10% dan 50%gacha o'zgaradi.

Soliq to'lovchilarni oilaviy sharoitini hisobga oluvchi soliqqa tortilmaydigan minimum belgilangan. Davolashga sarflangan mablag'lar soliq to'lashdan ozod etiladi. Katta oilalar qo'shimcha imtiyozlarga ega. 1999 yilning birinchi yarmida Tokio shahrida yashovchi shaxsning

o'rtacha yillik daromadlari 7 mln. 101 mingdan 7 mln 500ming ienani tashkil etadi. Yaponiyaning boshqa prefekturalarda yashovchilarning bu summasi ancha kam.

Bundan tashqari har daromad xajmidan qat'iy nazar yiliga 3200 ienani yashash uchun soliq sifatida to'laydilar.

Mol-mulk solig'ining tarkibiga meros solig'i va vorislik solig'i kiritiladi. Sovg'a yoki meros orqali kelgan boyliklarga egalik qiluvchi va Yaponiyada doimiy yashovchilar soliq to'lovchi hisoblanadi. Yaponiyada joylashgan mulklarga egalik qiluvchilar va u erda doimiy yashamaydigan shaxslar faqatgina mulklarga egalik qilgan davlarda soliqqa tortiladi. Meros solig'iga meros orqali egalik qilingan boyliklarni umumiy qiymati soliqqa tortiladi. Mulklarning soliqqa tortish bazasi mulklarga egalik qilgan davrlardagi mulklarning bahosiga qarab belgilanadi. Quyidagilar mol-mulk solig'iga tortilmaydi:

1. Diniy ishlar bilan va ilmiy ishlar bilan shug'ullanuvchi shaxslarga meros mulki bildirilganda va xalq farovonligi uchun yoki xalq manfaati uchun ishlatiladigan mulklar.
2. Iqtisodiy nochor kishilarga o'zaro yordam tariqasida berilgan mulklar.
3. Shaxslarning o'limi tufayli vafot etgan shaxslarning xayotiy sug'urtasidan kelgan tushumlar.

Joriy yilda egalik qilingan sovg'alar ham soliqqa tortiladi. Sovg'aga olingan mulklar joriy yildagi baxolarga qarab belgilanadi va quyidagilar ushbu soliqqa tortilmaydi:

1. Agar shaxslar mulklarini qarindoshlaridan ta'lim xaqini to'lash uchun olgan bo'lsalar.
2. Ilm-fan va ilmiy tekshirish ishlari uchun beriladigan sovg'alar.
3. Aholi farovonligini oshirish uchun berilgan sovg'alar.

Yaponiya soliq tizimida byudjet daromadlari eng salmoqli qismini umumdavlat soliqlari tashkil etadi. Mahalliy soliqlarning ulushi esa ancha pastdir.

3. Yaponiyada iste'mol soliqlari.

Hozirgi kunda Yaponiyada mamlakatida ishlab chiqarilgan va xorijdan keltirilgan spirtli ichimliklarga soliqlar muhim ahamiyatga egadir. Iste'mol soliqlari ichida eng ko'p daromad keltiradigan va eng ko'p foiz ko'rsatgichlariga ega bo'lgan soliq likyorga nisbatan solinadigan soliqdir.

Yaponiyada spirtli ichimliklar ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchilar litsenziyaga ega bo'lishlari shart. Litsenziyalar har bir ichimlik turi uchun alohida olinishi kerak. Bu litsenziyalik sistema spirtli ichimliklarni sifatini yaxshilash va spirtli ichimliklar solig'idan tushadigan daromadni nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan. Agar fuqarolar spirtli ichimliklarni litsenziyasiz ishlab chiqarsa 500 ming iena va undan ortiq summada jarima to'laydilar yoki besh

yilgacha qamoq jazo o'taydilar. Agar sotish bilan shug'ullansalar 200 ming ienadan ortiq summada yoki bir yillik qamoq jazosini o'taydilar.

Qimmatli qog'ozlarni almashtirish yoki sotishga belgilangan soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadi. Soliqqa tortish bazasi bo'lib qimmatli qog'ozlarni sotish bahosiga nisbatan belgilanadi.

Iste'mol soliqlari guruhiga, shuningdek litsenziya va registratsiya soliqlari, gerb yig'implari, irrigatsiya erlari holatini yaxshilash uchun soliq, elektr energiya manbalarini rivojlantirish uchun soliq, mehmonxonalarda yashash uchun soliq, restoranlarda ovqatlanish uchun soliq, issiq manbalarda cho'milish uchun soliq va boshqalar kiradi.

Ushbu soliqlar mahalliy hokimiyat tomonidan belgilangan summalardan ortib ketgandan keyin undiriladi. Masalan: restoranlarda ovqatlanish 7,5 ming ienagacha bo'lsa soliqqa tortilmaydi, oshgan qismi xizmat ko'rsatish bahosidan 3 foizlik soliqqa tortiladi.

Mahalliy byudjetlarga mahalliy soliqlar davlat soliqlarining 38,3%ini, ya'ni 370,143 ming trln ienani tashkil etadi.

4. Yaponiya soliq tizimi bilan O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili.

Solishtirma tahlil natijalari quyidagicha.

- Byudjetga kelib tushish bo'yicha:
 - O'zbekistonda soliqlar ikkita byudjetga kelib tushadi: umumdavlat byudjeti va mahalliy byudjet;
 - Yaponiyada ham ikki xil byudjet mavjud bo'lib ular quyidagicha nomlanadi: davlat byudjeti va mahalliy byudjet;
- Byudjetlar daromadlari shakllanishida soliqlar va soliqsiz to'lovlarning xissasi bo'yicha:
 - O'zbekistonda davlat byudjeti shakllanishida:
 1. Soliqlar xissasi 93%ni tashkil etadi.
 2. Soliqsiz to'lovlar xissasi 7%dir.
 - Yaponiyada davlat va mahalliy byudjetlarning daromad qismi quyidagicha:
 1. Soliqlar hisobiga 84%.
 2. Soliqsiz to'lovlar xissasi hisobiga 16%, mahalliy byudjetlarda esa 25% foizgacha soliqsiz to'lovlar hisobiga qoplanadi.
- Soliqlar turlarining soni bo'yicha:
 - O'zbekiston soliq tizimida hozirgi kunda 7 ta umumdavlat soliqlari va 8 ta mahalliy soliq turlari mavjud.
 - Yaponiyada esa 25 ta davlat soliqlari va 30 ta mahalliy soliqlar mavjud.

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha:
 - O'zbekistonda jismoniy shaxslardan daromad solig'i stavkasi progressiv xarakterga ega bo'lib ular, eng kam ish xaqqining (4335 (2002yil) so'm) 4 baravarigacha 13%, eng kam ish xaqqining 4 baravaridan 8 baravarigacha 23%, eng kam ish xaqqining 8 baravaridan yuqorisiga 33%li soliq stavkalari qo'llaniladi.
 - Yaponiyada ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi progressiv xarakterga ega bo'lib, soliq stavkasi 5 xildir: 10%, 20%, 30%, 40% va 50% soliq stavkalari.

Lekin Yaponiyada shaxslarning daromadini soliqqa tortishda oilaviy ahvolni ham hisobga oluvchi soliqqa tortilmaydigan minimum qo'llaniladi, bunday chora O'zbekistonda qo'llanilmaydi. Bundan tashqari Yaponiyada ko'p oilalilar qo'shimcha soliq imtiyozlariga ega bo'ladilar.
- Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i bo'yicha:
 - O'zbekistonda hozirgi kunda yuridik shaxslar o'z daromadlaridan 24%ni davlat byudjetga o'tkazadilar.
 - Yaponiya korxonalar va tashkilotlar o'z daromadlaridan 33,48 foiz davlat daromad solig'i to'lab, bundan 5 foizi yoki daromadning 1,67 foizi, prefektura, 12,3 foizi yoki daromaddan 4,12 foizi shahar (tuman) daromad solig'idir.
- Mol-mulk solig'i bo'yicha:
 - O'zbekistonda mol-mulk solig'i bo'yicha stavka 2% qilib belgilangan.
 - Yaponiyada mol-mulk solig'ini ham yuridik shaxslar, ham jismoniy shaxslar 1,4 foiz stavkada to'laydilar.

Umuman olganda ikki davlatning soliq tizimini barqarorligini solishtiradigan bo'lsak Yaponiya davlati soliq tizimi nafaqat O'zbekistonga nisbatan rivojlangan chet mamlakatlar soliq tizimlari ichida ham eng barqaror soliq tizimi desak bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Inspektsiya

Aktsiya indekslari

Arbitraj

Bandlik

Davlat daromadlari

Korporatsiya

Litsenziya

Kommunikativ malaka

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Yaponiyadagi to'g'ri va egri soliqlar salmog'i qanday va ular qanday soliqlardan iborat?
2. Yaponiya davlat soliqlariga qaysi soliq turlari kiradi?
3. Mahalliy soliqlar qaysi soliq turlaridan iborat?
4. Yaponiyada soliq tizimi necha guruhga bo'linadi?
5. Yaponiyada mol-mulk solig'ining imtiyozlari nimadan iborat?
6. Yaponiyada iste'mol solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Mahalliy xukumat organlarining soliqlari, soliq xizmatining vazifalari va huquqlari?
8. Yaponiya va O'zbekiston soliq tizimining o'xshashlik va farqli jihatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,5,6,8,

Qo'shimcha adabiyotlar: 2,3,6,7,8,12,14

7-mavzu: Kanada mamlakati soliq tizimini tuzilishi (2 soat)

Reja:

1. Kanada federal byudjetining daromadlari tarkibi.
2. Kanadada jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar, ularning tarkibi.
3. Kanada soliq tizimining xususiyatlari.
4. Kanada mamlakati soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimining solishtirma tahlili.

1. Kanada federal byudjetining daromadlari tarkibi.

Hozirgi kunda Kanada soliq tizimi 3 bo'linadi:

1. Federatsiyalar (Davlat daromadlariga nisbatan 48%)
2. Provintsiyalar (Davlat daromadlariga nisbatan 42%)
3. Mahalliy byudjetlar (Munitsipalitet).

Federatsiya byudjetining daromadining asosiy qismini ijtimoiy manfaatlardan olinadigan daromad solig'i tashkil etib, uning ulushi yildan yilga o'sib bormoqda. 1985 yilga nisbatan 1995 yilda daromad solig'ining ulushi 45% ga ko'paydi. Daromad solig'i tarkibiga korporatsiyalarga olinadigan daromad solig'i ham kiritiladi. Federatsiya byudjetining tarkibiga, shuningdek, tovarlarga va xizmatlarga soliq, aktsizlar, bojxona bojlari, ijtimoiy sug'urta fondlariga soliqlar kiritiladi.

Provintsiya daromadlarining soliq manbalari qo'yidagilardan tashkil topgan:

1. Sotishdan soliq
2. Korporatsiyalar daromadiga (foydalar) soliq
3. Aktsizlar
4. Ijtimoiy shaxslarning daromadiga soliq
5. Sovg'alarga soliqlar
6. Ijtimoiy sug'urta fondlariga soliqlar
7. Renta to'lovlari
8. Turli ro'yxatdan o'tish va litsenziyalar uchun yig'imlar
9. Boshqa yig'imlar.

Provintsiya soliqlarining asosiy qismini egri soliqlar tashkil etadi.

Mahalliy byudjetlar tarkibiga asosan ko'chmas mulkka solinadigan soliqlar va tadbirkorlar faoliyatidan olinadigan soliqlar kiradi.

Soliq siyosatini asosan "Moliya Vazirligining Iqtisodiy tahlil" bo'limi va "Soliq byudjeti siyosati" bo'limi yuritadilar.

Kelib tushgan daromadlar nazorati bilan "Kanada Milliy Daromad Vazirligi" shug'ullanadi. Soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklar esa soliq sudida ko'rib chiqiladi.

Kanada mamlakatida soliqlarning belgilash bo'yicha ayrim provintsiyalarga imtiyozlar berilgan. Masalan: Kvebek xududida foyda (daromad) solig'i bo'yicha belgilangan mustaqillikka egadir. Har kvartalga soliq stavkasini o'zgartirish huquqiga ega va kelib tushgan daromadlarini o'z ehtiyojlarini va harajatlarini qoplash maqsadlarida yig'iladi.

Soliq qonunchiligining asosini qo'yidagi me'yoriy hujjatlar tashkil qiladi:

1. Daromad solig'i tug'risidagi qonunlar. Bu qonunlar daromad solig'i va korporatsiyalar foyda soliqlarini undirishini tartibga soladilar.

2. Ishsizlikni sug'urta qilish to'g'risidagi qonun.

2. Kanadada jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar, ularning tarkibi.

Kanada soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i "Daromad solig'i" to'g'risidagi qonun asosida undiriladi. Ushbu qonunda daromad tushunchasi aniq belgilanmagan. Amaliyotda soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, yalpi daromaddan xarajatlar chegirilgandan so'ng qolgan farq daromad hisoblanadi. Ushbu soliqning sub'ektlari bo'lib Kanadada istiqomat qiluvchi, faoliyat ko'rsatuvchi va biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar hisoblanadi. To'liq 1 yil mamlakatda istiqomat qilib daromad oluvchilarning daromadlari (chet el daromadlari ham) soliqqa tortiladi.

Norezidentlar ham Kanadada olgan daromadlariga nisbatan daromad solig'iga tortiladilar.

Daromad tarkibiga turli xil manbalardagi tushumlar hisobga olinadi:

1. g'llanma ishchilarni ish haqi.
2. Tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar.
3. Ijaradan olinadigan daromadlar.
4. Investitsiyalardan olinadigan daromadlar, protsentlar, dividendlar.
5. Kapitalning o'sishidan olinadigan daromadlar.
6. Boshqa daromadlar (nafaqalar, dotatsiyalar, pullik daromadlar).

Soliqqa tortiladigan daromaddan qo'yidagilar chegiriladi:

1. Nafaqa fondiga badallar (to'lovlar).
2. Kasaba uyushmalariga a'zolik badallari(boshqa assotsiatsiyalarga a'zolik to'lovlari).
3. Bolalar bog'chalari uchun harajatlari.
4. Investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan kreditlar bo'yicha foizlar to'lovlar.
5. Boshqa chiqimlar.

Ushbu harajatlarni yalpi daromaddan chegirilgan holda ham daromad topiladi. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash uchun sof daromaddan qo'yidagilar chegiriladi:

6. O'tgan yilning (foydasi) kamomadi.
7. Kapitalning o'sish qismi.
8. Boshqa chegirmalar.

1987 yilning islohotlariga ko'ra Kanada soliq tizimida federal daromad soliqlari stavkalari.

7-jadval

Daromad (ming Kanada dollari)	Federal stavka
0-29590	17
29590-59180	26
59180dan yuqori	29

Kanada provintsiyalarida amal qiladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bir hudud uchun alohida belgilanadi.

Kanada provintsiyalarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy stavkalari.

8-jadval

Provintsiyalar	Daromad solig'ining stavkalari
1. Nyufaundlend	52,3
2. Yangi Shotlandiya	50,3
3. Shaxzoda Edvard oroli	50,3
4. Nyu-Braunsuik	52,9
5. Kvebek	-
6. Ontario	50,4
7. Manitoba	51,9

Soliq summasidan shuningdek soliq kreditlari ham chegirib tashlanadi:

1. Umumiy chegirma – 1020\$ (6000\$ o'rtacha yillik daromad oluvchilardan olinadi).
2. Oilalilar uchun – 850\$ (ishlamaydigan oilalar a'zolarining manfaatlari uchun)
3. Nochor aholi qatlami uchun – 250\$ (yilgi daromad 2500\$ tashkil etuvchilar uchun)
4. Qariyalar uchun 550\$ (60-65 yoshdan kattalar uchun)
5. Bolalar uchun 65\$ (1nchi 2 ta bola uchun 65\$, qolgan har 1 ta bola uchun 130\$ dan)
6. Dividendlarga kredit:
 - Nafaqa fondlariga ajratmalar;
 - Ishsizliklar uchun ajratmalar;
 - Meditsina me'yorlari uchun ajratmalar;
 - Ta'lim uchun ajratmalar;
 - Xayriya to'lovlari uchun ajratma (250\$ gacha bo'lsa 17%, ortiq bo'lsa 29%).
7. Siyosiy partiyalar fondlariga badallar.

3. Kanada soliq tizimining xususiyatlari.

Kanada federal byudjeti kamomadi yildan yilga o'sishi soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishga olib keladi. Natijada, imtiyozlardan foydalanish doirasi va ularning o'lchamlarini qisqartirishga olib keladi.

1917 yilda "Kanada daromadlar solig'i to'g'risidagi" qonun birinchi bo'lib kuchga kirdi. Bu soliq vaqtinchalik va asosan Jahon urushidagi harbiy xarajatlarni moliyalashtirishga qaratilgan. Navbatdagi qonun 1948 yilda qabo'l qilingan, 1962 yilda daromad solig'i bo'yicha islohotlar o'tkazilishi boshlandi. 1978 yilda "Daromadlar to'g'risidagi qonun" kuchga kirgan.

Ushbu qonunda soliq turlari, soliq stavkalari va soliq yuki og'irligi ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilgan. Hozirgi kunda Kanadada yuritilayotgan soliq siyosati quyidagi masalalarni hal etishni maqsad qilib qo'ygan:

1. Davlat byudjetini moliyaviy tushum manbalari bilan ta'minlash.
2. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish.
3. Kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularga imtiyozlar berish.
4. Mamlakatda iqtisodiy konyukturani barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sish darajasini ta'minlashga sharoit yaratish.

Kanada hukumatining soliq tizimi sohasida olib borilayotgan tadbirlari qo'yidagilarga mos kelishi lozim:

1. Soliq tizimi gorizontal bo'yicha tenglikni ta'minlashi shart
2. Soliq tizimi vertikal bo'yicha tenglikni ta'minlashi shart
3. Soliq tizimi kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashga va daromadlarni qayta taqsimlashga javob berilishi kerak.
4. Soliq tizimi iloji boricha soddalashtirilib, samarali olib borish tamoyillariga mos kelishi zarur.

Foyda solig'i stavkalari federatsiya stavkalari va provintsiyalari stavkalariga bo'linadi. Federatsiya stavkalari 28% (sanoatni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchilar uchun 23%), provintsiyalarda esa amal qiluvchi foyda solig'i stavkalari har bir hudud uchun alohida belgilangan.

Provintsiyalar	Provintsiya stavkalari
1. Nyufaundlend	43,2
2. Yangi Shotlandiya	45,2
3. Shaxzoda Edvard oroli	44,2
4. Nyu-Braunsuik	46,1
5. Kvebek	38,2-45,3
6. Ontario	44,6
7. Manitoba	44,3
8. Soskachevak	45,2
9. Alberta	46,1
10. Britaniya Kolumbiyasi	45,6
11. Yunen	43,1

Foyda solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar asosan soliq stavkalarini pasaytirish orqali namoyon bo'ladi. 500 ming Kanada dollaridan ko'p investitsiyalarni jalb etgan kompaniyalar uchun 2 barobar pasaytirilgan soliq stavkalari amal qiladi.

Yangi Shotlandiya 1993 yildan boshlab farmotsevtika, telekommunikatsiya, aerokosmik tarmoqlarida ish o'rinlarini tashkil etgan korporatsiyalar uchun pasaytirilgan soliq stavkalari amal qiladi. Rivojlanish jihatidan ancha sust bo'lgan va kam daromad keltiradigan Kvebek provintsiyasida eng ko'p soliq imtiyozlari qo'llaniladigan va belgilanadigan soliq stavkalari boshqa provintsiyalarga nisbatan ancha past.

Kanada soliq tizimida to'g'ri soliqlar egri soliqlarga nisbatan salmog'i ancha yuqori. To'g'ri soliqlar ichida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yuqori salmoqni egallaydi. Kompaniyalar foyda solig'i asosan iqtisodni tartibga solish uchun ko'llaniladi.

4. Kanada mamlakati soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimining solishtirma tahlili.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali.

1. Umumdavlat soliqlari.
2. Mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Umumdavlat soliqlariga qo'yidagilar kiradi:

- a. Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i.
- b. Jismoniy shaxslar daromad solig'i
- c. Aktsiz solig'i

- d. Qo'shilgan qiymat solig'i
- e. Ekologiya solig'i
- f. Bojxona bojlari va h.k.

Mahalliy soliqlarga esa qo'yidagilar:

- a. Mol-mulk solig'i,
- b. Reklama solig'i,
- c. Er solig'i,
- d. Infrato'zilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar

Kanada soliq tizimi esa 3 pog'onali soliq tizimidan iborat:

1. Federal soliqlari.
2. Provintsiyal soliqlari.
3. Mahalliy soliqlar.

Federal byudjetining daromadini asosiy qismini to'g'ri soliqlar tashkil etadi, ya'ni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va korporatsiyalar daromadidan olindigan soliqlar tashkil qiladi. O'zbekistonda esa uning aksi, ya'ni byudjetning asosiy qismini Kanada davlatidagidek to'g'ri soliqlar emas, balki egri soliqlar byudjetning asosiy qismini tashkil etadi.

Kanada davlatining federal byudjeti tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

1. Tovar va xizmatlarga soliq,
2. Aktsiz solig'i,
3. Bojxona bojlari,
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
5. Ijtimoiy sug'urta fondlariga to'lovlar.

Provintsiya tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

1. Korporatsiyalar daromadiga (foydasiga) soliq,
2. Aktsizlar,
3. Sotishdan soliq,
4. Sovg'aga soliq,
5. Renta to'lovlari,
6. Turli xil ro'yxatdan o'tganlik uchun va litsenziya uchun to'lovlar.

Mahalliy soliqlar qo'yidagilardan iborat:

1. Mol-mulk solig'i.
2. Ko'chmas mulkka soliq.

Kanada davlatida soliq siyosati bilan asosan Kanada Moliya Vazirligining iqtisodiy tahlil bo'limi shug'ullanadi. Bundan tashqari Kanada soliq sudi ham mavjuddir.

Kanada soliq tizimida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i alohida ahamiyatga ega, u byudjet daromadining asosiy qismini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, daromad solig'i to'g'risidagi qonun asosida undiriladi. Amaliyotda soliqqa tortiladigan ob'ekt bo'lib, Kanada davlatida istiqomat qiluvchi, faoliyat ko'rsatuvchi va biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar hisoblanadi. To'liq bir yil davomida mamlakatda istiqomat qilib daromad oluvchilarning daromadi soliqqa tortiladi.

Kanada provintsiyalarida amal qiladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i har bir hudud uchun alohida belgilangan.

Masalan, Nyufaundlendda 52,3% bo'lgan soliq Kvebekda umuman yo'q qilingan.

Bizning mamlakatimizda esa barcha viloyat va tumanlarda bir xil soliq stavkalar amal qiladi.

Kanada soliq tizimida byudjetga to'lanadigan soliq summasini aniqlash uchun bir qancha jarayonlardan foydalaniladi:

1. Yalpi daromad – ishlab chiqarish xarajatlari = sof daromad.
2. Sof daromad – boshqa harajatlar = soliq to'laguncha bo'lgan daromad.
3. Soliq to'laguncha bo'lgan daromad * soliq stavkasi = soliq summasi.
4. Soliq summasi – soliq krediti = byudjetga to'lanadigan soliq summasi.

O'zbekiston soliq tizimida esa soliq bir vaqtning o'zida bevosita ikki byudjetga bo'linmaydi.

Kanada soliq tizimida esa bir vaqtning o'zida bevosita byudjetlar taqsimlanadi. Masalan, foyda solig'i korporatsiyalardan bevosita federal va provintsiyalarga to'lanadi. Federal byudjetda korporatsiya daromad solig'ining ulushi 10%, provintsiya byudjetida esa 4% ni tashkil etadi.

Savdo sotiq uchun soliq. Federal xukumat va ayrim provintsiyalarning xukumatlari tomonidan undiriladi. Federal va provintsiya byudjetlariga umumiy tushumlar hajmida muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning bu turi federal va provintsiya darajalarida ishlab chiqariladigan, shuningdek Kanadaga tashqaridan olib kiriladigan barcha sanoat tovarlaridan undiriladi.

Aktsiz solig'i ham ayrim zebyi-ziynat buyumlaridan turli stavkalarda undiriladi.

Bizning mamlakatimizda esa aktsiz osti mahsulotlariga spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Tayanch so'z va iboralar.

Investitsiya siyosati

Innovatsiya

Erkin savdo zonasi

Bonus

Valyuta siyosati

Divident

Ish haqi

Korporatsiya

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Federatsiya byudjetining daromadini qaysi soliqlar tashkil etadi?
2. Provintsiya daromadlarining soliq manbalari qaysilar?
3. Mahalliy byudjetlar tarkibini qaysi soliqlar tashkil etadi?
4. Kanada mamlakatida jismoniy shaxslarning daromad solig'i qaysi qonunlarga asoslangan?
5. Jismoniy shaxslar daromad solig'i manbalarini ko'rsating?
6. Daromad solig'idan chegirma va imtiyozlarni tushuntiring.
7. Kanada hukumatining soliq tizimi sohasida olib borilayotgan tadbirlarning mohiyati nimalardan iborat?
8. Kanada mamlakatining soliq tizimini O'zbekiston soliq tizimi bilan o'xshashligi nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,4,7,9

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,3,4,13,15

8-mavzu. Shveysariya davlati soliq tizimining tuzilishi (2 soat)

Reja:

1. Shveysariya soliq tizimining tuzilish asoslari.
2. To'g'ri va egri soliqlarning tarkibi.
3. Maxalliy byudjetning shakllanishida maxalliy soliqlarning tutgan o'rni.

1. Shveysariya soliq tizimining tuzilish asoslari.

Shveysariya–Konfederatsiya (markaziy shtat), 26 ta kanton va ularga kiradigan 3 ming munitsipalitetdan iborat konfederativ davlatdir. Kantonlar suveren ma'muriy-hududiy birliklardir, munitsipal avtonomiya darajasi esa kanton qonunlarida belgilanadi. Shveysariya federalizmi printsipiga muvofiq mamlakatda soliqqa tortishning uch darajali tizimi mavjud. Soliqlarni konfederativ hukumat, kantonlar va munitsipalitetlar undiradilar.

Shveysariya soliqlari.

10-jadval

Boshqaruv organi	Daromaddan va mulkdan olinadigan soliqlar	Iste'mol va egalik qilishni soliqqa totish
1	2	3
Konfederatsiya	1.Daromad solig'i 2.Foydaga va kapitalga solinadigan soliq 3.Manbaning o'zidan undiriladigan soliq 4.Davlat yig'implari va hokazolar.	1. QQS 2. Tamakiga solinadigan soliq 3. Pivodan olinadigan soliq 4. Bojxona bojlari va hokazolar.
Kantonlar	1.Daromad solig'i va sof aktivlar solinadigan soliq 2.Jon boshidan olinadigan soliq 3.Foydaga va kapitalga solinadigan soliq 4.Meros va hadyadan olinadigan soliq. 5.Kapital o'sishiga solinadigan soliq 6.Ko'chmas mol-mulkga solinadigan soliq 7.Ko'chmas mulkni topshirishdan olinadigan soliq	1. Transport solig'i 2. It boqqanlikka solinadigan soliq 3. Tomoshalarga solinadigan soliq 4. Davlat yig'implari 5. Hidroelektrostantsiyalarga solinadigan soliq
Munitsipalitet	Kantonlar soliqlarining takrori.	Kantonlar soliqlarining takrori.

Shveysariya konstitutsiyasiga ko'ra, soliqlar asosiy qonun (konstitutsiya) ga qat'iyon muvofiq ravishda undiriladi. hokimiyatning har bir darajasi konstitutsiyada ko'rsatilgan soliqlarnigina yig'adi, konstitutsiyaning qoidalariga ko'ra, uchta organning birortasi ham boshqasiga xalaqit bermaydi, soliq to'lovchilar zimmasidagi yuk esa soliqqa tortishning iqtisodiy chegarasidan o'tmaydi. Umuman kantonlarning har qanday turdagi soliqlarni undirishlariga ruxsat

etilgan, yig'ilishi Konfederatsiyaning eksklyuziv yurisdiksiyasi (ya'ni faqat uning o'ziga tegishli huquqi) bo'lgan soliq turlari bundan mustasno. Ular o'z soliq qonunlarini yaratish huquqiga egalar. o'z navbatida, munitsipalitetlarning o'z soliqlarini yig'ish huquqlarini kantonlarning konstituttsiyasida belgilaydi.

Shveysariyada yig'iladigan soliqlar quyidagi ikkita katta guruhga ajratiladi: daromad va mulkka solinadigan soliqlar hamda iste'mol va egalik qilishga solinadigan soliqlar. Konfederatsiya, kantonlar va munitsipalitetlar ikkala toifadagi soliqlarni asosiy qonunga muvofiq ravishda undiradilar.

Shveysariya soliqlarini belgilash qo'yidagi ikki boshqa-boshqa printsiplarga asoslanadi:

- natijalovchi soliq solish- soliq (asosan tashkilotlar bo'yicha) soliq davri tugagandan keyin hisoblab chiqariladi;
- dastlabki soliq solish- soliq (asosan jismoniy shaxslar bo'yicha) yillik yoki ikki yillik soliq davri tugashidan oldin avvalgi bir yoki ikki yilda olinadigan daromad asosida hisoblab chiqariladi.

Shveysariya soliq haqidagi qonun hujjatlari quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- teng huquqlilik;
- savdo erkinligi;
- mulkchilik huquhini kafolatlash;
- kantonlararo ikki tomonlama soliqqa tortishni taqiqlash;
- asossiz soliq tushumlarini taqiqlash.

Mamlakatda soliq solishni (vertikal va gorizontal yo'sinda) uyg'unlashtirishga katta e'tibor beriladi.

2. To'g'ri va egri soliqlarning tarkibi.

Konfederatsiya soliq daromadlarining strukturasi 1990-yillarning ikkinchi yarmida quyidagi ko'rinishda edi: QQS – 29,1%; to'g'ri soliqlar- 23,6%; bojxona poshlinalari- 14,9%; hisob-kitob solig'i- 10,1%; davlat yig'implari-4,5%; boshqa soliqlar-5,5%; soliqdan tashqari yig'implar-12,3 %.

Qo'shilgan qiymat solig'i Shveysariyada EI mamlakatlarning soliq tizimlari bilan birxillashtirish uchun 1995 yilning 1 yanvaridagina (oborotdan olinadigan soliq o'rniga) kiritilgan. Shveysariyada QQS umumiy foydalanish va iste'mol qilishga solinadigan soliq bo'lib, u ishlab chiqarish va taqsimlashning barcha bosqichlarida, tovarlarning importidan, mamlakatdagi xizmatlar sohasidan va chet eldagi xizmatlarni sotib olishdan undiriladi. o'ziga xos tomoni shundaki, QQSni hisoblab chiqarish uchun oborotning quyidagi ikkita turi ajratiladi: QQSdan ozod qilingani (eksportga mahsulot etkazib beruvchilar, chegarani kesib o'tish bo'yich transport xizmatlari) va

soliqqa tortishdan istisno etiladigani (ijtimoiy sohadagi xizmatlar, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, pul va moliya soxalari va hokazo).

Bu soliq bo'yicha uchta stavka turi bor:

- standart stavka-7,5% (2000 yilgacha- 6,5%)
- maxsus stavka- 3,5% (2000 yilgacha-3,0%) (mehmonhonalar sektoridagi xizmatlarga);
- pasaytirilgan stavka- 2,3% (2000 yilgacha-2,0%) (oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar, parranda, tibbiyot tovarlari, gazetalar, jurnallar, televidenie, radio va hokozolar bo'yicha).

Tashkilotlarning savdo oboroti yiliga 250 ming Shveysariya frankidan ohsa, ular QQS to'lovchisi bo'ladilar. Xizmatlar importi yiliga 10 ming Shvetsariya frankidan oshmasa, QQS to'lashdan ozod qilinadi.

Bojxona bojlari import bo'yicha ham, eksport bo'yicha ham bojxona tariflarida belgilangan stavkalar asosida undiriladi. Poshlinalar qiymat bo'yicha emas, faqat vazn birligidan undiriladi.

To'g'ri soliqlar orasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yuridik shaxslardan oladigan foydasiga hamda ularning kapitaliga solinadigan soliqlar eng katta ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini Shveysariyada foyda olib faoliyat yuritadigan barcha shaxslar to'laydilar. Soliq ikki yillik davrga belgilanadi va har yili kantonlar tomonidan konfederatsiya uchun yig'iladi. Maishiy xizmatlar, pensiyalar, ko'p yil ishlaganlik uchun beriladigan ustamalar, taqdirlovlar, ko'char va ko'chmas mulkdan keladigan daromad, kapital o'sishi, lotereya sovrinlari va hokozolar federal daromad solig'iga tortish ob'ekti bo'ladi.

Daromad olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar jami daromaddan chegiriladi. Shuningdek transport xarajatlari (0,60 shv.franki km), soliq to'lovchi uyida ovqatlanmaydigan taqdirda ovqatlanish xarajatlari (yiliga 2800 shv.franki), ta'lim qiymati, kitoblar, asboblar, ish kiyimi (sof ish haqining 3,0%, yiliga 1800 shv.frankidan 3600 shv. frankigacha doirasida) chegiriladi. Xodimlar ijtimoiy sug'urta fondlariga badallar to'laydilar, bundagi qoidalar korporatsiyalar qoidalar korporatsiyalar qoidalariga o'xshashdir.

Quyidagicha qo'shimcha chegirmalar bor: yolg'iz ota-onalarga, boqimandalar va shu kabilarga beriladigan siylovlar, sug'urta yig'im va jamg'arma depozitlari bo'yicha to'lanadigan foizlar. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i undirishda qo'llaniladigan konfederativ stavkalar progressiv stavkalardir va ularning eng yuqori miqdori 11,5%ni tashkil etadi (soliq solishning 16 ta shkalasi belgilangan). Kantonlar va munitsipalitetlar stavkalarga daromad qaysi joyda olinganligiga

bog'liq bo'lgan koeffitsentlar qo'llaydi. Koeffitsentlar har yili siyosiy organlarning moliyaviy ehtiyojlariga muvofiq ravishda belgilanadi (Jeneva kantonida 1,485 koeffitsenti belgilangan, munitsipal koeffitsenti esa –0,455). Kantonlar o'z chegirmalarini belgilaydilar. Masalan, Jenava kantonida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 0,25%dan 17,95%gacha oralig'ida belgilangan.

Foydaga solinadigan federal soliq esa progressiv soliq bo'lib, u uch darajali shkala bo'yicha undiriladi. Soliqqa tortiladigan foydaning 4,0%dan ko'p daromad keltiradigan qismidan 3,63% miqdorida qo'shimcha soliq undiriladi. 4,84% miqdoridagi ikkinchi qo'shimcha soliq foydaning 8,0%dan ko'p daromad keltiradigan qismidan undiriladi. Eng yuqori soliq stavkasi jamlama foydaning 9,8%idan oshishi mumkin emas.

Soliq bazasini aniqlash uchun umumiy daromaddan foyda olish bilan bog'liq bo'lgan barcha bevosita xarajatlar chegiriladi. Uskunalarni ishlatiladigan holatda saqlashga, ma'muriy personalning ish haqiga qilingan sarf-xarajatlar, hom ashyo qiymati, zaxira fondlarini yaratishga yo'naltirilgan transfertlar chegirilishi mumkin. Sarflar sotib olishdagi qiymat yoki bozordagi narx bo'yicha baholanadi. Soliq solish maqsadlari uchun qiymatning 1/3 qismi chegirilishi mumkin. Amortizatsiya amaliy oborotda e'tirof etilgan qoidalar bo'yicha chegiriladi. Chiziqli usul yoki pasayadigan qoldiq usuli qo'llanilishi mumkin. Rasmiy stavkalar chop etiladi, lekin majburiy hisoblanmaydi. Jadallashtirilgan amortizatsiya muayyan turlardagi uskunalar yoki atrof muhitni muhofaza qilishda ishlatiladigan qurilmalar uchun qo'llanilishi mumkin (qiymatning 50,0%i foydalanishning birinchi yilida chegiriladi). Soliq solish maqsadlarida chegiriladigan zahiralari qo'yidagilar uchun yuzaga keltiriladi:

- tajriba-konstruktirlik ishlari va ilmiy ishlar uchun –soliqqa tortiladigan foydaning 10,0% miqdorida, lekin 1 mln.shv.frankidan oshmasligi lozim;
- joriy aktivlar bilan bog'liq zarar ko'rish xatarlarini sug'urta qilish uchun;
- boshqa zaxiralari.

Federal soliqni qo'llanishi uchun zaralar etti yil oldinga o'tkazib chegiriladi. Kantonlar o'z qoidalarini belgilaydilar. Masalan, Jeneva kantonida kanton byudjetiga kiritib qo'yiladigan soliqni hisoblab chiqarish uchun muayyan hollarda zaralarni vaqtini cheklamagan holda oldinga o'tkazib chegirish ruxsat etilgan.

Odatda bir taqvim yili soliq davri bo'ladi. Deklaratsiyalarni taqdim etish qoidalari kantonlar darajasida belgilanadi. Umumiy holda uzil-kesil soliq soliq yili tugaganidan keyin 2 oy mobaynida to'lanishi kerak. Bo'nak to'lovlar belgilangan emas, lekin ular ayrim transaktsiyalarda to'lanadi.

Korporatsiyalar ijtimoiy sug'urta fondlariga to'lovlarni 0,15% (kompensatsiyali harbiy to'lovlar)dan tortib, toki 4,20% gacha miqdordagi stavkalar bo'yicha to'laydilar (Pensiya fondi).

Kapitalga solinadigan soliq propartsional (mutanosib) soliqlardir. U olinadigan kapitaldan, shuningdek balansda aks ettirilgan va aks ettirilmagan zaxiralardan undiriladi. Soliq stavkasi soliqqa tortiladigan kapital summasining 0,08%i miqdoridadir. Xolding kompaniyalari imtiyozlarga egalar. har bir kantonda soliqning turlicha mahalliy stavkalari amal qiladi.

«Manbaning o'zida» undiriladigan soliq ko'char mulkdan olingan daromaddan undiriladigan dastlabki soliqdir. 35,0%li maxsus stavka foizlarga, dividendlarga, lotereya yutuqlariga, 8,0 yoki 15,0%li stavka esa sug'urta to'lovlariga qo'llaniladi. Aslida ushbu turdagi soliq odatiy sxema bo'yicha (qo'llanilishi soliqqa tortiladigan faoliyat sohasi turiga bog'liq bo'lgan stavkalar bo'yicha jami daromaddan) hisoblab chiqariladigan federal to'g'ri daromad soliqlarining o'rnini bosadi.

Davlat yig'implari aktsiyalar chiqarish yoki aktsiyalar nominalini oshirishda, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishda undiriladi. Aktsiyalar chiqarish bo'yicha yig'im 2,0%ni, qarz qarz majburiyatlari chiqarish bo'yicha 0,12%ni, o'rta muddatli bank veksellari bo'yicha 0,06%ni tashkil etadi. Ichki qimmatli qog'ozlar bo'yicha davlat yig'implari 0,15%li stavkada, chet el qimmatli qog'ozlari bo'yicha esa qimmatli qog'ozlar sotishdagi yoki sotib olishdagi narxining 0,3%i miqdoridagi stavkada undiriladi. Davlat yig'imiga sug'urta to'lovlari ham 5,0%li stavka bo'yicha tortiladi.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, kantonlarning o'zlari o'z qonun hujjatlarini yaratadilar. Lekin Federal parlament 1990 yilning 14 dekabrda «Soliqqa tortishni uyg'unlashtirish to'g'risi»da qonun qabul qildi. Qonun kantonlar va munitsipalitetlar soliqlariga tegishlidir, u 2001 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi. Unga muvofiq kanton va munitsipalitetlar 2001 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi. Unga muvofiq kanton va munitsipalitetlar 2001 yilning 1 yanvarigacha o'z qonunlarini o'zgartirishlari lozim.

Daromadlarga va sof aktivlarga solinadigan soliqlar davriy bo'ladi va ularni belgilangan vaqt davrlari bo'yicha kantonlar yig'adilar. Soliq stavkalari ikki komponentdan: belgilangan stavkadan va foiz ko'rinishida belgilangan stavkadan va foiz ko'rinishida belgilangan koeffitsent (yillik ko'paytirgich) yoki soliq stavkasi koeffitsentidan iborat bo'ladi.

3. Maxalliy byudjetning shakllanishida maxalliy soliqlarning tutgan o'rni.

Kantonlarda shuningdek bazaviy Federal stavka hamda kantonlar va munitsipalitetlarning qo'shimcha stavkalari bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliqlar summasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lanadi. Beshta kantonda qat'iy soliq stavkalari belgilangan, boshqa kantonlarda faqat bazaviy soliq stavkasi belgilangan. Uzil-kesil soliq summasini

hisoblab chiqarish uchun bazaviy soliq foizlarda yoki birliklarda ifodalangan koeffitsentga kupaytiriladi.

Jon boshiga solinadigan soliqda (uy xo'jaliklariga solinadigan soliqda) daromad solig'iga qo'shimcha ravishda undiriladigan to'lov summasi belgilab qo'yilgan bo'ladi. Soliqni tijorat faoliyatini amalga oshiradigan shaxslar to'laydilar. Soliq stavkalari minimaldir.

Yuridik shaxslar foydasi va kapitaliga solinadigan soliqni mazkur kantonda olingan ofis yoki boshqaruv organi bo'lgan yuridik shaxslar to'laydilar. Soliq sof foydadan, qo'shimcha soliq kapitaldan va zaxira fondlaridan to'lanadi. Sof foydadan olinadigan soliqlar progressiv soliqdir. Soliq stavkalari past proportsionaldir. Kapitaldan olinadigan soliq-proportsional yoki kam progressivdir.

Meroslar va hadyalardan olinadigan soliqlarni faqat kantonlar undiradilar. Bozor qiymati soliq solish uchun bazaviy baho bo'ladi. Jeneva kantonida qo'sh regressiya printsipti (qarindoshlik darajasi va hadyalar qiymati) bo'yicha stavkalar belgilangan. Stavkalar 0%dan 26,0%gacha o'zgaradi.

Jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham xususiy mulk sotish hisobiga daromadlar o'sishidan ko'chmas mulk o'sishiga solinadigan soliqni to'laydilar.

Ko'chmas mulk solig'ini uning joylashgan erida kantonlar undiradi, munitsipalitetlar esa soliqdan (kantonning daromadidan) muayyan foiz oladilar.

Mulkning o'tishiga solinadigan soliq kanton yoki munitsipalitetda joylashgan ko'chmas mulkka taalluqli bo'lgan har qanday o'zgarishdan undiriladi. Soliqni kantonlar, ba'zida esa bir vaqtning o'zida kanton va munitsipalitetlar undiradilar.

Tayanch so'z va iboralar.

Iste'mol solig'i

Bojxona boji

Davlat yig'implari

Transport solig'i

Mol-mulk solig'i

Qishilgan qiymat solig'i

Jon boshidan olinadigan soliq

Foydaga va kapitalga solinadigan soliq

Soliq printsiplari

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Shveysariyada qanday QQS stavkalari amal qiladi?
2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar stavkalarini aytib bering.
3. Tashkilotlardan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasi qanday hisoblab chiqariladi?
4. Shveysariya soliqlarini belgilash printsiplari qanday?
5. QQS ob'ekti, stavkalari, to'lovchilarini aytib bering.
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga ta'rif bering.
7. Foydaga solinadigan federal soliq ob'ekti, stavkalari, to'lovchilarini aytib bering.
8. Davlat yig'imlarini sanab o'ting va ta'rif bering.
9. Tashkilotlardan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasi qanday hisoblab chiqariladi?
10. Maxalliy soliq stavkalarini kimlar belgilaydi va qanday hisoblanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,6,7,9

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,4,5,13,15

9-mavzu. Italiya davlati soliq tizimining tuzilishi. (4 soat)

Reja:

1. Italiya soliq tizimining tarkibi.
2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i.
3. Korporatsiyalar daromadiga soliq.
4. Italiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

1. Italiya soliq tizimining tarkibi.

Hozirgi kunda Italiya byudjet daromadining asosiy qismi (80%ga yaqin) soliqlar hisoblanadi. Soliq munosabatlari Italiya parlamenti va davlatning iqtisodiy sig'satining asosi hisoblanadi.

Soliq tizimi faqatgina iqtisodiy munosabat (fiskal, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish, davlat qarzlarni kamaytirish va inflatsiya darajasini kamaytirish) bo'lib qolmay, Italiyada sig'siy munosabat (soliq yukini hammaga taqsimlash, ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun soliq stavkalarini tabaqalashtirilgan holda qqlash va xaqozo) ham bo'lib hisoblanadi.

Italiyada keyingi 15 yildagi moliyaviy barqarorliklarni shakllanishi soliq tizimining samarali qo'llanilag'tganidan dalolat beradi. Soliq tizimida katta o'zgarish Italiya Evropa hamjamiyatiga (ES) kirgandan sung yuz berdi. Bunda Italiya iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda daromadlarni bilvosita va bevosita soliqqa tortish amalga oshirildi.

1987-1988 yillar Italiya soliq tizimi uchun isloxatlar yili bo'ldi. Bu isloxotlarni asosiy moxiyati,Italiya milliy iqtisodiyotini va sharbiy Evropa Umumiy bozorini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Italiyaning zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish va byujedga o'tkazish munosabatlarini aniq va unifikatsiyalashgan holda xarakterlaydi. Italiya soliq tizimi tarkibiga to'g'ri va egri soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlar tarkibiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiradi. Bu soliq jismoniy shaxslardan va yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiradi. Bu soliq jismoniy shaxslardan va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga ulinadi.

2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i.

Bu soliqqa tortish munosabatining sub'ekti bo'lib, jismoniy shaxslar, ob'ekti bo'lib ularning daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning hamma daromadlarini manbalari beshta kategoriyaga bo'linadi va ularning har birini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu manbalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- A) er, ko'chmas mulk, inshootlar;
- B) kapital;
- S) g'llanib ishlash va erkin faoliyat (svobodnvyva professiya);
- D) tadbirkorlik;
- E) boshqa manbalar.

Erda olinadigan daromad (qishloq xo'jalik faoliyati yuritishi natijasida olgan daromad yoki u erga qurgan bino va inshootlardan olgan daromad) kadastr uslubi bino soliqqa tortiladi. Ko'chmas mulkning har bir turiga alohida soliq solinadi, bunda bu mulkdan daromad olgan-olmaganligi e'tibor berilmaydi. Erni kadastrli baxolash har 10 yilda o'tkaziladi. Italiya Moliya Vazirligi bu davr oraligida amal kilag'tgan normalarga qo'shimcha koeffitsientlar kiritish xuquqiga ega.

«Erga egalik» qilishdan kelgan daromadni hisoblashda faqat qishloq xo'jaligi uchun ishlatilag'tgan erlar inobatga olinadi. Shahar ko'rilishlari, davlat extig'jlari uchun ishlatilag'tgan erlar, hamda noqishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanish uchun ijaraga berilgan erlar bu daromad manbaiga kirmaydi.

Bu daromad oilaviy dehqonchilik qishloqdan yoki dehqonchilik uchun erni ijaraga berishdan keladi. Erda dehqonchilik va chorvachilik qilish ham bu daromad turiga kiradi. Agar bu ijaraga berilsa ijaradan olgan daromad ham, ijaraga olgan shaxsning qishloq xo'jaligi faoliyatidan olgan daromadi ham soliqqa tortiladi.

Qishloqlardan olinadigan daromadlarga yashash uchun shaxslardagi uylar, dala-hovlilar, boshqa inshootlar, mulk egasi ishlag'tgan yoki ijaraga bergan ko'rilishlar kiradi. Bu soliq turi qishloq xo'jaligi uchun ishlatilag'tgan ko'rilishlar (chorva mollarini saqlash uchun inshootlar, qishloq xo'jalik mahsulotini saqlash uchun omborlar va xkz), hamda savdo tashkilotlarinig bino-inshootlari(omborlar...) kirmaydi.

Qurilishlardan olinadigan daromadlar yuqorida aytilgandek kadastr koeffitsitsentlari orqali aniqlanadi, ammo ba'zi bir holatlarda umumiy qoidalardan chetga chiqishga to'g'ri keladi. Masalan, qurilish mulk egasining ayibsiz ishlatilmasa yoki ijaraga berilmasa kadastrli baxolash 70% gacha kamaytirish mumkin. Agar qurilish aholi ko'p bo'lgan joyda joylashgan bo'lsa va ishlatilmag'tgan yoki ijaraga berilmayotgan bo'lsa kadastrli baxolash 300% gachi oshirilishi mumkin.

Kapitaldan olingan daromadga hamma moliyaviy rentalar kiradi- qarzdin foizlar, joriy bank dipozitlaridagi schg'tlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan daroamdlar, lotoreya yutuqlari va xaqozolar. Bu soliq turining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki kapital egasi to'laydi. Bunda yana shuni e'tiborga olish kerakki, kapitaldan oladigan daromadning xajmidan qat'iy nazar soliq stavkasi o'zgarimasdan qoladi.

Soliq stavkasining tabaqalanishi ba'zi bir rentalarda bir xolos.

Bank schetlaridagi mablag'laridan keladigan foizlar 25% stavkada soliqqa tortiladi., 1 yanvar 1984 yidan boshlab abligatsiyalardan oladigan daromadlar 12,5% stavkada soliqqa tortiladi. Bunda emitent kimligiga e'tibor berilmaydi. (Bungacha davlat obligatsiyalari 10%stavka, kompaniyalar obligatsiyalari 20% stavka soliqqa tortilar edi). 18 oydan kam muddatga chiqarilgan bonlar va kredit sertifikatlari ham 12,5% stavkada soliqqa tortiladi.

Chet el qarzlardan olingan daromadlar 30%gacha soliqqa tortilishi mumkin. Davlat qimmatli qog'ozlari 1986 yil 20 sentyabrgacha soliqqa tortilmas edi. 1986 yildan boshlab bu daromad 6,25% stavkada soliqqa tortila boshladi. 1987 yil 1 yanvardan boshlab bu soliq stavkasi 12,5%gacha qsdi.

Kapitaldan oladigan daromadga soliq stavkasining proportsionalligini yuqorida qayd etgan edik. Bu holat davlatdagi tanqidchilar tomonidan qoralandi. Ular Italiya Konstitutsiyasining 53 moddasi hamda soliq solishda ijtimoiy adolatlik bo'zilgan deb hisoblashdi.

g'llanib ishlash va erkin faoliyat (kasb)dan oladigan daromadga barcha mehnat daromadlari (ish xaqi) kiradi.

g'llanib ishlashdan olgan daromad jismoniy shaxslar daromadining 80%ni tashkil kiladi. Soliq qonunchiligi jismoniy shaxslar daromadlari tarkibini yangitdan aniq kilib aniqlab berdi, ya'ni soliqqa tortiladigan daromadlar chegaralarini kengaytirib berdi. Endi bu soliq turiga faqatgina, ishchi va xizmatchilarning oylik ish xaqi emas, kompensatsiya va ish xaqiga qo'shimchalar pul shaklida yoki natura shaklida bo'lishidan qat'iy nazar hammasi soliqqa tortiladigan bo'ldi.

g'llanma ishchilarning daromadlariga quyidagilar kiradi:

1. Kooperativ a'zolari oladigan daromad va xizmat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi kooperativlaridan olgan ish xaqi;
2. Bajargan qo'shimcha ishi uchun barcha daromadlari;
3. Kompensatsiya va ish xaqiga qo'shimchalarning barcha turlari.

Erkin faoliyat (kasb)dan olinadigan daromadni aniqlash ancha qiyin hisoblandi. Chunki bu daromaddan oladigan soliqni hisoblash uchun etarli soliq qonunchiligi qabo'l qilinmagan. Bu kamchiliklar esa jismoniy shaxslarni o'z daromadlarini yashirishlariga olib kelmokda. Shuning uchun erkin faoliyat (kasb) bilan shug'ullanadigan eng ko'p soliq qonunchilik bo'zadigan jismoniy shaxslar hisoblanishadi.

Italiya soliq qonunchiligida erkin faoliyat (kasb) bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar aniq ko'rsatib berilmagan.

Erkin faoliyat (svobodnaya professiya)dan oladigan daromad bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Boshqaruvchi va nazoratchining ish xaqi, jurnalistlarning mualliflik mukofoti, gonorarlari;
2. Yangi yaratilgan tovar markalari, kashfiyotlar va boshqa «nou-xau»lar uchun to'lovlar;
3. Yangiliklar, kompensatsiyalar.

Tadbirkorlikdan olgan daromadlar tarkibi va uncha ko'p shakillanmagan (xususiy tadbirkorlar) daromadlari kiradi. Bu korxonalar uchun soliq Korporatsiya va kompaniyalar daromadlaridan olinadigan soliqlar kabi hisoblanadi, ammo ular jismoniy shaxslar daromadlari sifatida e'tirof etiladi.

Bu korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning a'zolari bitta oila a'zolari bo'lib hisoblanadi va ularning daromadlari 780 mln, lirdan oshmaydi.

«Oilaviy» korxonaning daromadi fuqarolik kodeksiga binoan oila a'zolar ishining sifati va soniga asoslangan holda proportsional taqsimlashi kerak. Soliq tashkilotlari tomonidan bu daromad oila a'zolari uchun teng taqsimlanadi.

Kichik korxonalar engilashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritishgani uchun ular hamma harajatlarni hisobga olisha olmaydi. Bu harajatlarni aniqlash uchun quyidagi koida karatilgan; agar daromad 12mln, lirgacha hisobga olinmagan umumiy daromadning 3% teng deb olinadi: 12-150 mln, lirgacha 1% 150-780 mln, lirgacha bo'lsa 0,5% deb hisoblanadi va daromaddan chegirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari bo'lib: erni, ko'chmas mulkni, madaniy boyliklarni olib sotishdan olgan daromadlar, chet elda joylashgan mol-mulkdan olgan daromadlar, bir martalik ko'rsatgan xizmatlari evaziga olgan daromadlari kiradi.

Jami daromad yuqoridagi daromad manbalarini hisobga olgan holda xosil bo'ladi va deklaratsiya to'ldirilgandan sung mumkin bo'lgan chegirmalar ayirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkasi murakkab arifmetik progressiya tashkil topgan.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalari

Soliqqa tortiladigan daromad, (mln,lir)	Soliq stavkasi %
6 gacha	12
6-12	22
12-30	28
30-50	34
50-100	41
100-150	48
150-300	53
300-600	58
600 dan yuqori	62

1989 yil 1 yanvarda o'tkazilgan islohatlar jismoniy shaxslar daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining tabaqalarini 9 tadan 7 taga tushirdi. Eng yuqori stavka 62% dan 50% ga tushirildi. Bundan yuqori va quyi daromad olinadigan jismoniy shaxslar yutadi xolos.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo'yicha bir qancha imtiyozlar bor. Bu imtiyozlarni ko'p qismini oilaviy holati bo'yicha imtiyozlar tashkil etadi. Ya'ni oilada bolalar soni qancha ko'p bo'lsa imtiyoz shuncha katta bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlardan chegirmalar.

12-jadval

Bolalar soni	Mumkin bo'lgan chegirma(xotini daromad olsa)	Mumkin bo'lgan chegirma(xotini qaramog'ida bo'lsa)	Mumkin bo'lgan chegirma (er-xotindan biri bo'lmasa)
1	48	96	360
2	96	192	456
3	144	288	552
4	192	384	648
5	240	480	744
6	188	576	840
7	336	972	936
8	384	768	1032
Keyingi har bitta bola uchun	48	96	96

3.Korporatsiyalar daromadiga soliq.

Yuridik shaxslarni daromad solig'i korporatsiyalarni soliqqa tortishning universal instrumenti hisoblanadi. Bu soliq turi Italiya xududiga hamma ishlab chiqarish, tijorat va bank-moliya kompaniyalari uchun qo'llaniladi. Bu soliqqa aksionerlik jamiyati bo'lgan, hamkorlik va kooperativ asosida tashkil topgan kichik korxonalar ham tortiladi.

Soliq ob'ekti bo'lib taqsimlangan foyda sifatidagi korxonaning sof daromadi hisoblanadi. Bu buxgalteriya hisobidagi tushum va sarf-xarajatlarni hisobga olgan holda quyidagi formula orqali hisoblanadi: yalpi daromad minus ishlab chiqarishni va tijorat faoliyatini yuritish uchun kerak bo'lgan sarf-harajatlar.

$$SD = LD - X (I / ch + T / f)$$

Yalpi daromad tarkibi:

- 1) Asosiy faoliyatdan tushgan tushum;
- 2) Ishlab chiqarish uchun sotib olingan ortiqcha hom ashyoni, material va yarim fabrikatlarni sotishdan tushgan tushum;
- 3) Asosiy kapital quyilmalarini (er,bino,inshootlar,jixozlar) sotishdan tushgan tushum;

4) Komission va boshqa aktivlar kiradi;

Soliqqa tortish uchun aniqlanadigan korxonaning moliyaviy natijasi quyidagilar bilan korrektirovka qilinadi: ombordagi zaxiralarning (xom ashyoni, tayg'r mahsulot) va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini o'zgarishi. Yalpi daromaddan chegirmalar, xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Shaxs ish kabi (boshqaruvchilarni daromadlaridagi xissalari bunga kirmaydi);
- Ekpluatatsiya xarajatlari: asosiy fondlari modernizatsiya va remont qilish xarajatlari (daromadning 5%idan oshmasligi kerak);
- Ilmiy izlanishlar uchun xaqiqatda qilingan xarajatlari.

Bundan tashqari korxonalar daromadlari soliqqa tortilmaydigan ba'zi bir fondlar to'zishi mumkin. Bu dargumon qarzlari bo'yicha hisoblanadi. Unga yiliga sotishdan tushgan yalpi tushumdan 0,5 % ajratishi mumkin. Ammo bu fond sotishdan tushgan yalpi tushumning 2 % ga teng bo'ladigan bo'lsa, u da unga ajratma sotishdan tushgan yalpi tushumning 0,2 %ga teng bo'ladi.

Yangi soliq qonunchiligiga binoan kompaniyalar kreditlaridan yo'qotishlar bo'yicha kompensatsiya fondini to'zishi mumkin. Bu fondga yiliga kredit summasining 0,5 % foiz miqdorida badal o'tqaziladi. Bu fondga badal o'tqazish fond miqdori kredit miqdorining 5% etganda to'xtatiladi. Bundan tashqari korxonalar uchun chet el valyutasi kursida o'zgarishlar natijasida bo'ladigan yo'qotishlar uchun ham fond tashkil qilish xuquqi beriladi.

Korporatsiya daromad soliqlarini hisoblashda amortizatsiya ajratmalari ham muhim rol o'ynaydi. Amortizatsiya erdan boshqa hamma kapital qo'yilmalarga tegishlidir. Amortizatsiya ajratmalari Moliya Vazirligi tomonidan o'rnatilgan normalar asosida hisoblanadi. Bunda amortizatsiya har bir asosiy vosita uchun aloxidadir. Hozirda amortizatsiya ajratmalarining quyidagi normalari mavjud.

Asosiy vositalar uchun amortizatsiya normalari

13-jadval

Asosiy vositalarning turlari	Yillik amortizatsiya(balans qiymatining % hisobida).
Bino	3-6
Jixozlar	10
Mashinalar	10-16
Inventar	40
Ofis jixozlari	12
Aftomobillar	20
Elektr jixozlar	18

Amortizatsiya uchun ajratma faqatgina asosiy vositani ishlab chiqarish uchun ishlatilgandagina hisobga olinadi. (Oldingi qonunchilik asosiy vositalar ishlatilsa amortizatsiya hisoblanar edi.)

Amortizatsiya hisoblash yuqoridagi normalar bilan belgilanib qo'yiladi, ammo asosiy vosita birinchi marta ishlatilayotgan bo'lsa % qisqartiriladi.

Yana amortizatsiyani tezlashtirish tartibi ham o'zgartiriladi. Eski qonun bo'yicha asosiy vositaning 15% nigina sotib olgandan sqng 3 yil ichida hisobdan chiqarish mumkin edi. Yangi qonunchilik bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash koeffitsienti 3 yil ichida olinadigan 1,5 marta ko'p.

Buni tushuntirish uchun quyidagi misolni keltiramiz: avtomabillar uchun 20% amortizatsiya ajratiladi. Unda qoida bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya yiliga 25%ni tashkil etish kerak. Avtomobil 4 yildan keyin hisobdan chiqarilishi mumkin. Agar korxonalar avtomobilni hisobdan chiqarmasa korxonani soliqqa tortadigan ba'zasi kattalashib ketadi va korxonalar ko'p soliq to'lashi mumkin. Shuning uchun korxonalar tezroq asosiy vositani hisobdan chiqarish boshqasini sotib olishga harakat qilishadi. Qonun jixozlarining narxi 1 mln,lirdan oshmagan bo'lsa, bir martada hisobdan chiqarishga ham yo'l qo'yishi mumkin.

Italiya amortizatsiya ajratmalari nomoddiy aktivlar uchun ham ishlatiladi. Amortizatsiyani aniqlash uchun nomoddiy aktivni amal qilish aniqlanadi. Agar amal qilish aniqlanmasa, unda nomoddiy aktiv uchun yiliga 20% amortizatsiya ajratish mumkin.

Italiya soliq qonunchiligi ishlab chiqarish texnik qayta ta'minlash va Italiya janubidagi xududlari iqtisodiyotga kapital qo'yilmalarini jalb etishni tezlashtirish uchun bir qator imtiyozlar belgilab bergan. Masalan, Italiyaning past rivojlangan janubiy xududlarida yangi tashkil topgan korxonalar 10 yil ichida daromad solig'idan ozod qilinadi. Shu bilan birga yangi yaratilgan ishlab chiqarish quvvatidan olingan daromad ham 10 yil ichida soliqqa tortilmaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun soliqlar bo'yicha yana boshqa ishlar ham bor. Masalan, agar asosiy kapitalni sotishdan daromad olingan bo'lsa va bu daromadni oxirgi 3 yil ichida investitsiya qiladigan bo'lsa, bu summa amortizatsiya fondi deb qabo'l qilinadi va soliqqa tortilmaydi.

Chetda olingan daromadlardan soliq olishni maxsus soliq qonunchiligida tartibga soladi. 1983 yildan boshlab soliq qat'iy 36 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Bungacha daromad solig'i stavkasi 25 % ni tashkil etgan. Bundan tashqari Italiya ikkita maxsus stavkalar ham bor. Faqat qimmatbaho qog'oz stavkalari bilan shug'ullanadagan moliya va xolding kompaniyalari 7:5 kamaytirilgan stavkada soliq to'laydilar. Nizom fondida davlat ulishi 50 % ko'p bo'lgan kompaniya va tashkilotlar 6:25 % stavkada soliq to'lashadi.

4. Italiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Soliqqa tortish tizimiga ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot xarajatlariga ajratmalar qilish moliyaviy mexanizim bevosita ta'sir ko'rsatadi. hamma Garbiy Evropa mamlakatlaridek, Italiya ham ijtimoiy siyosatlariga xarajatlarni qisqartirish va bu harajatlarni xususiy va davlat kompaniyalari, erkin kasb egalari o'tkazish hisobiga byudjetni «qayta yuklash» tendentsiyasi muntazam ravishda ko'zatilmoqda. Soliq sig'satining fikriga ko'ra bu muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, byudjet harajatlarning nisbatan pasayishi o'z-o'zidan soliqqa tortish stavkalariga ta'sir qiladi va ularning qisshini ushlab turuvchi muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarajatlar-ning yuridik va jismoniy shaxslarga o'tishi va xarajatlar tarkibiga qo'shilishi soliqqa tortiladigan foyda (daromad) ga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tish joyizki, ijtimoiy xarajatlarni daromadlar hisobidan moliyalashtirish ishlovchilar ijtimoiy ta'mi-noti ijtimoiy suurtasining korxonalaridagi ish natijasiga bevosita bog'liq bo'lishiga olib keladi hamda bu mehnatning unumdorligi va sifatini oshirish uchun qo'shimcha stimulyazifasini qataydi. Boshqa tomondan olib qaraganda ijtimoiy xarajatlarni ishlab chiqarish harajatlari tarkibiga kiritish bozor iqtisodiyoti sharoitida takror ishlab chiqarish xarajatlaridagi to'la xajmini bilish imkonini beradi. Va jonli mehnatni iqtisod qilishga, texnika va texnologiyalarni ko'proq jalb qilishga turtki bo'ldi.

Italiya iqtisodiy hayotida kooperativ xarajatlar muhim o'rin egallaydi. Ular 100 yildan oortiq vaqt davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Kooperativlar ishchilar, hizmatchilar, mayda ishlab chiqaruvchilarning o'z hohishlari bilan jamoa birlashmalariga birikishini ifodalaydi. Ular iqtisodiy faoliyatining turli sohalarida ma'lum maqsadlarga erishish uchun to'ziladi. Kooperativlar o'zlarida

birlashgan mayda ishlab chiqaruvchilar yoki istemolchilar manfaatlarini vositachilar, shuningdek yirik tadbirkorlar tomonidan ekspluattsiya qilinishidan himoya qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitda faoliyat yuritag'tgan kooperativlar uning shartlariga moslashishga majbur bo'ladilar. Kooperativ korxonalar o'z faoliyatining yo'q bo'lib ketmasliklari uchun ma'lum iqtisodiy natijalarga erishishlari, yani raqobatbardosh bo'lishlari lozim.

Kooperativlarning jamoa mulki kooperativ a'zolarining payli ulushlari asosida vujudga keladi. Kooperativlar aksioner jamiyatlaridan qator belgilar bilan farq qiladi. Birinchidan, Italiya kooperativ faoliyatini tartibga solib turuvchi qonunchilik xujjatlaridan ko'rsatilgan bo'ladi, ular faoliyatining asosiy maqsadi maksimal foyda olish emas, balki o'z a'zolari uchun yaxshi hayot faoliyati sharoitini ta'minlab berishdir.

Ikkinchidan, kooperativ boshqaruvchi ancha demokratik xarakterga ega bo'lib, har bir kooperativ a'zosi paylarining xajmidan qat'iy nazar paychilar yig'ilishida bir ovozga ega. Italiya davlat orginlari soliqqa tortishning imtiyozli tizimi orqali kooperatorlarga bozorda korxonalar bilan raqobat qilishiga yordam beradi va mamlakatga xos bo'lgan qator muammolar echimini raqobatlantiradi, masalan yoshlarning bandligini oshirish. Kooperativlar uchun soliq tizimiga xos narsa shuki, ko'pchilik hollarda ularning daromadlari va mulklari asta-sekin yoki to'laligicha yuridik shaxslarga solinadigan soliqdan ozod qilinadi. Shunday qilib Italiya ishlab chiqarish kooperativlari, agar ish haqiga harajatlar mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarning 60 % kam bo'lmagan qismini tashkil qilsa, ko'rsatilgan soliqlarni to'lashdan to'laligicha ozod etiladi, agar 40% dan kam bo'lmasa soliq summasi yarmiga qisqartiriladi. 40 % dan kam bo'lsa chorak qismiga qisqatiriladi. Kishloq ho'jaligi kooperativlari daromadlariumuman soliqqa tortilmaydi, boshqa turdagi kooperativlar daromadlari soliq tashdan qisman ozod etiladi. hamma turdagi kooperativ a'zolari daromadi «manbasida» jismoniy shaxslardan olinadigan soliqqa tortiladilar.

Italiya kooperativlar uchun qator chora tadbirlar yuritiladiki, ular ma'lum darajada kooperativlarning hususiy yoki aksioner kompaniyalarga aylanib ketish imkonini cheklaydi. Shunday qilib, kooperativ yillik dvidentlarning pay (minimal badal 5 ming lira) to'zilgan dastlabki kapitaldan oshadigan qismini a'zolari o'rtasida ruxsat etilmaydi. Shuning bilan yuqori foyda olishga intilishni chegaralaydi va kooperativ nizom fondi kengayishini rag'batlantiradi. Chunki dvidentlarni a'zolar o'rtasida taqsimlanmagan qismi shu erga olib boriladi. Bunda daromadlarning qayta taqsimlangan qismi soliqqa tortilmaydi. Kooperativ a'zolarining mehnat haqi uchun umumqabo'l qilingan ish haqining 20 % ga kattaytirilgan hajmida aniqlanadi.

Italiya mayda korxonalar ham mavjud bo'lib, ishchilar soni 50 kishigacha bo'lgan korxonalardan iborat. Ammo mayda tadbirkorlar va hunarmandlar konfederatsiyasi ishchilar soni 20 kishigacha bo'lgan korxonalarini birlashtiradi. Korxonalar egalari soliqqa tortish bo'yicha

to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlarga ega emas. Ular korxonalar foydasidan yuridik shaxslardan olinadigan soliqni, keyin esa ushbu soliqlarni to'lashdan olgan foydadan yana soliq to'laydilar va rezervga ajratmalar bilan obodonlashtirish maqsadida to'lovlar to'laydi. Kichik faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar esa jismoniy shaxslardan oladigan soliqlarni to'laydi.

g'lanib ishlovchi hunarmandlar mahsulotini sotishdan tushgan tushum bilan uni ishlab chiqarish harajatlari o'rtasidagi farq sifatidagi daromaddan soliq to'laydilar. Biroq kichik korxonalar va hunarmandlar uchun qator soliq imtiyozlaridan tashqari boshqa engilliklar ham belgilangan. Xunarmandchilik korxonalari moliyalashtirish uchun qisman davlat kassasi ham faoliyat ko'rsatadi. Ushbu kassa hunarmandlarga va kichik korxonalariga past foiz stavkada (5%) kredit beriladi. Bunda kredit uchun foizlarni faqatgina uchdan bir qismini hunarmandlarning o'zlari to'laydilar, qolganini esa davlat byudjet mablag'laridan to'lanadi. Davlat hunarmandchilik va kichik korxonalar rivojlanishiga qizikishining sababi mavjud. Birinchidan, bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishi Ko'llab-quvvatlovchi ishlab chiqarishni monopoliyadan chiqarish dastagi hisoblanadi. Ikkinchidan, hunarmandchilikning rivojlanishi yangi ish o'rinlarining ochilishiga olib keladi. Bu esa mamlakatdagi yuqori ishsizlik darajasini hisobga olganda juda muhimdir.

Kassadan kreditlar konkurs asosida beriladi. Kredit olishni xohlovchilar ko'p, ammo kassaning imkoniyatlari cheklangandir. Echimni mayda tadbirkorlar va hunarmandlar konferentsiyasi mahalliy komissiya qabo'l qiladi. Unda ko'proq yangi texnologiyani jalb qilgan hunarmandlar korxonalariga beriladi. Shunday qilib olingan kreditning 80 % iga yaqini texnologiyani yaxshilashga ishlatiladi, qolgan qismi esa yangi korxonalarni yaratishga yo'naltiriladi. Soliqdan tashqari imtiyozlarning keyingi turi bo'lib soddalashtirilgan buxgalteriya tizimidan foydalanish hisoblanadi. Buxgalteriya hisobini yuritishga harajatlarni kamaytirilishi umumiy harajatlarni iqtisod qilishda katta o'rin tutadi.

Italiya soliq tizimi bank muassasalari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Italiya bank tizimi davlat qarzi obligatsiyalarini chiqarish yo'li davlat byudjeti kamomadini qoplashda faol ishtirok etadi. Bu mamlakatning moliyaviy resurslarga bo'lgan siyosatini ta'minlash muommosini hal etishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida soliqqa tortish stavkasi darajasigi ta'sir qiladi. Ta'kidlab o'tish joizki byudjet kamomadini qoplashda korxonalar va aholining ishtirokini kengayishi davlatning qimmatli qog'ozlariga faol aralashuvini majbur qiladi.

Davlat nazoratining maxsus shakli sifatida mamlakat Markaziy banki xizmatini olish mumkin. Banklarga xos emissiya funktsiyasidan tashqari, Milliy bank bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyati nazoratini quyidagi yqnalishlarda amalga oshiradi:

1. Mamlakatning barcha banklariga investitsiyaga mablag' ajratishlari uchun kredit kvotalarini o'rnatadi.

2. Bank kapitalning banklar o'rtasida birdaniga qo'yilishining oldini olish maqsadida bankning aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha foyiz darajani o'rnatadi.
3. Bank likvidlik garantsiyasining ta'minlash uchun bank rezerviga mablag' ajratmalari kvotasini aniqlaydi.

Bu tadbirlarning hammasi mijozlarga kredit olish omonat qo'yishlarida teng yaratishga yo'naltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti lizing tashkilotlarini bank faoliyatining muhim element sifatida qarash mumkin. Soliqqa tortish tizimi lizing tizimi bilan ham chambarchas bog'liq. Lizing kompaniyalarning mablag'larini tezroq qaytishdan manfaatdorligini hisobga olib, soliq qonunchiligiga soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda, tezlashtirilgan amortizatsiya bilan birga olingan kredit uchun foizlar ham hisobga olinadigan haqiqiy ijara haqini tannarxga qqshishi ruxsat etilgan. Boshqa tomondan sotib olingandan keyin asosiy fondlarning mijozga o'tishini hisobga olsak, oxirgisida texnikani tezroq sotib olishga ob'ektiv qiziqsh mavjud bo'ladi.

Italiyadagi soliqqa tortish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliqlar bozor munosabatlarining keng rivojlanishini va davlat tomonidan markazlashtirilgan nazoratni qamrab oluvchi iqtisodiy tizim mikesida harakat qiladi.

Bozor mexanizmi davlat tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarga ijtimoiy rivojlantirish uchun byudjet xujjatlarini umumxalq va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni, mudofaa va boshqaruv harajatlarini moliyalashtirish bo'yicha teng kuchli shartlar qo'yilishi uchun zamin yaratadi. Foydaning o'rtacha me'yori qonunning amal qilishi keng foyda olishni ta'minlaydi.

Faoliyat turlari rivojlanishini rag'batlantiruvchi funktsiya soliq bo'yicha imtiyozlarni bajaradi. Bunda soliqdan quyidagilar ozod etiladi.

- investitsiyalar – tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmi orqali;
- ilmiy tekshiruv va amaliy konstruktorlik ishlariga xarajatlar;
- mayda koporatsiyalashmagan ishlab chiqaruvlar, hunarmandlar va kooperativlar.

Korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlovchi xavf-xatar fondiga, umidsiz qarzlarga shuningdek banklararo sug'urta fondiga ajratmalar soliqqa tortilmaydi. Soliq imtiyozlari, shuningdek aloxida zarar bilan ishlaydigan korxonalar uchun ham mavjud. Ammo bu imtiyozlar 5 yil muddatga kuchli kelishilgan shartlarda beriladi.

Soliqlar strukturasi, to'g'ri va egri soliqlar, jismoniy shaxslardan va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning o'zaro munosabati, Italiya umumiqtisodiy holati va mamlakat iqtisodiy sig'satini aks ettiradi. Soliq tizimi faoliyati tarmoqlangan mahalliy federal soliq boqimandalarini davlat va hususiy kompaniyalarning soliq xizmatini; doimo faoliyatda bo'luvchi kadrlar kvalifikatsiyasini oshirish tizimini murakkab soliq qonunchiligini tqri qqlash bo'yicha yo'riqnoma

va metodik qo'llanmalarining ko'p bo'lishini o'zida mujassamlashtiradigan mos moliyaviy boshqarmani to'zishni ma'qullaydilar.

Italiyadagi soliqqa tortish daromadlarini ikkilamchi soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga rioya qilish extig'jini hisobga olgan holda to'zilgan. Bu esa soliq tizimini o'zaro boliq elementlar tizimi sifatida qurishini taqazo etadi.

Italiya soliq tizimi mahalliy byudjet soliq bazasini kengaytirish asosida mahalliy xukumat organlarini mustaqilligini rivojlan-tirishga, mahalliy xukumat orginlarini mazkur xudud korxonalarini moliyaviy holatiga javobgarligini oshirishga yo'naltirilgan. Bunda Markaziy bankdan dotatsiyalarning qisqarishi nazarga tutilgan.

Soliqqa tortish ob'ektiv bo'lib asosiy va oborot vositalari, tabiiy resurslar shaklidagi kapital emas, balki real olingan daromadlar hisoblanadi. Soliqqa tortish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, undirishning eng samarali mexanizmi bu soliqlarini daromad «manbasida» undirib olishdir. Hozirgi kungacha dunyoda deklaratsiyalarda ko'rsatiladigan daromadlarning samarali nazorat mexanizmi ishlab chiqilmagan. Italiyadagi mavjud soliq to'zimi ishlab chiqarish harajatlariga hamma joriy ishlab chiqarish - savdo faoliyati harajatlarini kiritishini nazarda tutadi. O'z navbvtida foyda xajmi qo'shimcha qiymatini davlat bilan taqsimlashga tegishli qismini aks ettiradi. shunday qilib soliq tizimini yuritish, foydadan o'z iqtisodiy tarkibiga ko'ra ishlab chiqarish xarajatlarini chiqarib tashlash yo'li bilan taqsimlashning ob'ektini aniq belgilashni talab qiladi.

Soliq tizimini kiritish moliyaviy xujjatlarga soliq mutaxassislarini ham, aktsionerlarni ham maqullashni nazarda tutadi. hamma yirik korxonalar daromadlari, harajatlar va soliqlar xaqida hisobat topshiradilar. Bu nafaqat soliq to'lash nuqtai nazaridan kompaniya faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini yaratadi, balki ularning moliyaviy xolatini ko'zatishni, bu esa o'z navbvtida qimmatli qo'zlar bozoridagi aktsiovkasi ta'sir qiladi.

Tayanch so'z va iboralari

Iqtisodiy siyosat

Iqtisodiy munosabat

Moliyaviy rentalar

Davlat nazorati

Byudjet kamomadi

Bozor iqtisodiyoti

Bozor mexanizmi

Korxonalar faoliyati barqarorligi

Soliq imtiyozlari

Soliqqa tortish ob'ekti

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Italiya soliq tizimida qanday islohatlar ro'y bergan?
2. Jismoniy shaxslar daromadining tarkibiy qismi qanday?
3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari qanday?
4. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlar nimalardan ibora?
5. Italiya soliq tizimi qaysi qonunlarga asoslangan?
6. Italiya soliq tizimida davlat nazorati funktsiyalarini qaysi organ bajaradi?
7. Italiya soliq tizimi qanday soliqlardan tashkil topgan?
8. g'llanma ishchilarning daromadini soliqqa tortilishi to'grisida aytib bering?
9. Yalpi daromad tarkibiga nimalar kiradi?
10. Italiyada korxonalar faoliyatini barqarorligini ta'minlashda soliq tizimining ahamiyati?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,5,7

Qo'shimcha adabiyotlar:2,4,5,10,13

10-mavzu: Daniya davlati soliq tizimining tuzilishi (2 soat)

Reja:

1. Daniya mamlakati soliq tizimining tarkibi.
2. Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Egri va maxalliy soliqlarning ahamiyati.

1. Daniya mamlakati soliq tizimining tarkibi.

Skandinaviya mamlakatlarida yuqori soliq tizimi bir necha yillardan buyon amal qilinadi. Shulardan Daniya soliq tizimi alohida e'tiborga loyiqdir. Ko'pchilik bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar kabi, davlatning asosiy daromad manbai – bu daromad solig'idir. U 2 qismka bo'linadi: federal progressiv soliqlar (shkalali), qat'iy o'rnatilgan stavkali 30% munitsipial soliq.

Federal soliqlar gradatsiya shkalasi: 168000 ikron daromadga yiligi – 22%, 240000 kronagacha – 6% gacha qo'shiladi. Ya'ni stavka 28% gacha o'sadi. 240000 kronadan yuqori daromadga – yaqin 12% qo'shiladi, ya'ni 40% gacha oshadi.

Shu tarzda, munitsipial soliq stavkasi 52-70% orasida hisoblanadi. Naqd soliq imtiyozi stavkasi o'rtacha 49% ga tushadi. Lekin Daniyadan uy egalari 2,5 %, oxirgi uy tannarxi daromadiga qo'yiladi (soliqqa tortish vaqtida). Davlatda soliq solishni yangi islohtini qo'llash kutilmoqda. Bu loyihada ko'rsatilishiga ko'ra birinchi bo'lib federal soliqni pasaytirish tavsiya etiladi. 22% dan 14,5% gacha keyin 13000 kronadan boshlab unga 4,5% qo'shib va 19% undirib, 250000 kron daromaddan keyin yana 12,5% qo'shib, maksimal federal soliq - 31,5%. Munitsipal daromadni hisobga olgan holda ular orasidagi interval 44,5-61,5%ni tashkil qiladi.

Katta xajmdagi daromadlar QQSni vujudga keltiradi. Bu stavkani umumjahon darajasi bilan solishtirganda ancha yuqori, ya'ni – 25%. Korporatsiyalar daromadiga soliq stavkasi 24% undiriladi. Aktsiyazlar oddiy guruh tovarlarga har xil stavkalar bo'yicha tortiladi. Ularga spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, benzin, uylarni isitish uchun yokilg'i, engil avtomobillar misol bo'ladi. Ohirgi ko'rsatkichlarda stavka ancha yuqori – 180%. Eksport solig'i 3% ni tashkil qiladi. Uchdan ikki qismini ish beruvchi uchdan bir qismini yollangan ishchi qo'llaydi. Mol-mulk solig'ini munitsipalitetlar belgilaydi, lekin qonun buyicha 0% dan 6% gacha teng. Yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavka bo'yicha to'lashadi. Daniya davlat byudjeti daromadlari tuzilmasi ushlab qolinmagan bo'lsa, bu holda olingan dividendlar summasi soliqqa tortish bazasiga kiritiladi va dividendlar e'lon qilingan yilda soliqqa tortiladi.

Daniya davlat byudjeti daromadlari strukturasi tahlil qilish maqsadida quyidagi jadvalga murojat qilish mumkin.

Daromadlar takibi	Ulushi %da
Jismoniy shaxslardan daromad soligi	48
QQS	19
Aktsiz solig'i	17
Korporatsiyalar daromadiga soliq	8
Mol-mulk solig'i	4
Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	3
Boxona boji	1
Jami	100

Moliya yilida ko'rilgan zararlar keyingi 5 yil davomida hisobdan o'chirilishi mumkin. Lekin ular olingan yili foydasi hisobiga hisobdan chiqarilishi mumkin. Ish beruvchi to'lik ish kuni davimida band bulmagan har bir xodim uchun nafaka jamg'armasiga har oyda 1491 krona badal to'lashi lozim. Daniya rezidentibo'lgan yuridik shaxslar shu mamlakatlarda, shuningdek, uning tashqarisida olingan barcha daromadlar bo'yichatulik ravishda soliq majburiyati manbasi Daniya bo'lgan daromatlardangina, shu jumladan doimiy vakillik daromadlari, mualliflik haqlari, dividendlar, er uchatkalaridan olingan daromadlar va boshqa manbalardan solish to'laydilar. Soliq majburiyatlari moliya hisobot yilida olingan daromadlarga tadbiiq etiladi. Endigina tashkil etilgan kompaniyalar uchun moliya yili u ko'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlanadi.

2. Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari.

Korporatsiyalarga daromadiga solig'ining stavkasi 34% miqdorida belgilangan va rezidentlar ham norezidentlarga nisbatan birday qo'llaniladi. Kompaniyaning taqsimlangan va taqsimlanmagan daromadlarini soliqqa tortishda tafovut yo'q. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashga va unga tuzatishlar kiritishga doir ancha qat'iy qoidalar belgilangan. Soliqqa tortiladigan daromad-korxonaning hisobot yili uchun moliyaviy natijalari tug'risida yakuniy hisobotidan olingan daromadlardir. U biznes yurtishdagi haqiqiy harajatlar summasiga kamaytiriladi. Lekin agar bu harajatlar ko'ngilochar tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'lik bo'lsa, soliqqa tortish bazasidan faqat 25% gina chegaralanishi mumkin.

Kapital harajatlar odatda soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi, biznesni ochish va kengaytirish harajatlarining ayrim turlari (marketing tadqiqotlari, ekspertlarga to'lanadigan ganoralar bundan mustasno). Dividentlar va foizlar to'liq hajmda chegirilib kolinadi.

Boshqa qoidalardan qat'iy nazar, eskirgan va qiyin realizatsiya qilinadigan ob'ektlar bo'yicha korxonalar soliqqa tortish maqsadlarida moddiy zaxiralarning sof qiymati miqdorini korxonaning buxgalteriya daftarlari bo'yicha yiliga 12%ga qadar kamaytirilishi mumkin.

Bu chegirma shunday so'ng keyingi moliya yilida olingan yalpi daromadga qo'shib quyilishi kerak bo'ladi. Keyingi chegirma ham (soliqqa tortish bazasini kamaytirish zaruriyati paydo bo'lganda) shu tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunday imtiyoz keyingi yil daromadi hisobidan soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirish maqsadida beriladi.

Amortizatsiya kooperativ soliq bilan soliqqa tortish maqsadida hisobga olinmaydi va shunga muvofiq ravishda soliqqa tortiladigan daromadlarni aniqlashda aktivlarning balans qiymatlariga qo'shilishlari shart.

Tezlashtirilgan amortizatsiya mashinalar, uskunalar va binolar bo'yicha shartnoma to'lagan yildan boshlab, bu aktivlarni etkazib berish avqtigacha berilishi mumkin, ularning shartnoma qiymati 700000 Daniya kronasidan ortiq bo'lishi kerak.

Amortizatsiya chegirmalarining muddati tezlashtirilgan hisobdan chiqarish usuli buyicha shartnomaga doir umumiy qiymatning 30%idan ortmasligi lozim. Amortizatsiya chegirmalarining maxsus oshirilgan stavkalari erkin tadbirkorlik zonalarining hududida tashkil etilgan (ruyxatdan) o'tkazilgan korxonalar qo'shilgan bino, mashina va uskunalar uchun bildirilgan.

Qiymati 8600 daniya kronasidan oshmaydigan yoki xizmat muddati 3 yildan kam bo'lgan mashina va uskunalar sotib olingan yilning o'zidayok hisobdan chiqarilishi mumkin. Kapitaldan olingan daromadlar umumqabul qilingan kooperativ solik stavkalari 34% bo'yicha soliqqa tortiladi. Solish qiymatini sotib olish qiymatiga kamaytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi. Bu soliq bo'yicha soliqqa tortish bazasi foyda va zararlar, qarz to'lovlari va qarz talablari summasidan tashkil topadi.

Firma imidjidan sotishdan olingan daromada korporativ soliqning oddiy stavka bo'yicha soliqqa tortiladi 34%. 3 yildan ortiq vaqt davomida egalik qilingan aksiyalarning sotilishidan olingan daromadlar, agar qimmatli qog'ozga doir operatsiyalar maxsus faoliyat (daromadning asosiy manbai) hisoblanmasa soliqdan ozod etiladi.

3 yildan ortiq muddat davomida egalik qilish huquqiy bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarini tasarruf qilishdan olingan daromad mulkka egalik qilingan har bir yili uchun 5% gacha kamaytirilishi mumkin (inkubatsiya davrining 3 yili o'ngandan keyin) lekin 30% dan ortik emas. Dividentlar agar ularni oluvchi to'liq moliya davomida 25% dan kam bo'lmagan aksiyalar paketiga egalik qilgan bo'lsa, soliqdan ozod etiladi. qolgan hollarda taqsimlanmagan dividendlarning 66%i soliqqa tortilishi kerak. Agar xorijiy dividendlar uchun soliq to'lov manbasidan ushlab kolinmagan bo'lsa, ular Daniya qonunchiligi bo'yicha soliqqa tortilishi kerak. Agar xorijiy dividendlar uchun soliq to'lov manbasidan nafaka jamgarmasiga to'langan muddatlar korporativ soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi. Xorijda o'zining bo'limi yoki filialiga ega bo'lgan daniya

korporatsiyasi hisobot moliya yilida shu bo'lim tomonidan ko'rilgan daromada yoki zararlarni bosh kompaniyani daromadiga kritish shart. Biroq, ushbu bo'limga tegishli bo'lgan daromadlar barcha manbalardan olingan daromad summasiga soliq krediti olishi mumkin. Agar ikki yoklama soliqqa tortishdan saqlanish to'g'risidagi bitim tuzilgan bo'lsa, xorijiy manbalardan olingan daromadlarga nisbatan soliq majburiyatlarini to'liq barataraf etishga qadar soliqqa tortiladigan daromadga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Xorijiy bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirish maqsadida firmaga daromad solig'ining imtiyozli stavkasi ham belgilab berilishi mumkin.

3. Egri va maxalliy soliqlarning ahamiyati.

Hozirda xorijiy manbalardan olingan daromadlarni soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar muazam tugatib borilmoqda va 2000 yilga kelib bu imtiyozlarga butunlay barxam berish muljallanmoqda. QQS to'loviga doir moddiy zahiralalar bilan operatsiyalar yurtituvchi va 20000 Daniya kronasidan ortiq bo'lgan ro'yxatdan o'tishlari shart. Agar xorijiy vakolatxona daniya hududiy alohida yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmasa, bu holda uning nomidan Daniya rezidenti bilan jismoniy shaxs QQS sifatida ro'yxatdan o'tishi yoki Daniyadan ro'yxatdan o'tkazilgan boshqa yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Eksport tovarlari etkazib yoki ba'zi xizmatlarni (yo'lovchilarni tashish transporti, moliya, sug'urta va boshqalar) taqdim etishi QQSdan ozod etilgandir. Import tovarlardan QQS 25%lik stavka bo'yicha undiriladi.

QQS bo'yicha deklaratsiyalar soliq idoralariga har chorakda QQS to'lovi malga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birgalikda hisobot choragi tugashi kamida 10 kun qolguncha taqdim etilishi kerak. QQS to'lanmagan yoki noto'liq to'langan hollarda jarimi choralari qo'llaniladi.

Tayanch so'z va iboralar

Erkin savdo zonasi

Yangi industrial mamlakatlar

Byudjet.

Valyuta

Deklaratsiya

Divident

Er kadastri

Ish haqi

Nafaqa

Nominal

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Daniya daromad solig'i necha qismga bo'linadi?
2. Federal soliqlar shkalasini aytib bering.
3. Federal progressiv soliqlar bilan munitsipal soliqning farqi nimada?
4. Munitsipal soliq stavkalari qanday?
5. QQS stavkasi qanday?
6. Mol-mulk solig'ini kimlar belgilaydi?
7. Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi qanday?
8. Korporativ soliq stavkasi qanday hisoblanadi?
9. Daniya egri soliqlariga qaysi soliqlar kiradi?
10. Daniyada soliqlardan beriladigan imtiyozlar qanday?

Foydalanilgan adabietlar

Asosiy adabietlar: 2,4,5,7

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,3,4,8,15

11-mavzu: Avstriya davlati soliq tizimining tuzilishi (2 soat)

Reja:

1. Avstriya davlati soliq tizimi, yuridik shaxslar daromadiga soliqning taxlili.
2. Avstriya davlatida qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlarning ahamiyati.

1. Avstriya davlati soliq tizimi, yuridik shaxslar daromadiga soliqning taxlili.

Ko'pchilik Sharqiy Evropa mamlakatlari singari Avstriya ham murakkab soliqqa tortish tizimiga ega.

Soliqlarning katta qismi Federal soliq xizmati orqali yig'iladi. Mahalliy soliqlar ko'zga ko'rinarli darajada ko'p emas. Soliq og'irligi mamlakatning har xil joylarida deyarli bir xil. Soliqqa tortish tizimini taxlil qila turib federal va umumavstriya soliqlariga to'xtalish mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar soliqqa tortish ob'ekti sifatida chiqadi. Kompaniyalar o'zlarining hamma daromadlaridan soliq to'laydilar. Bundan faqat hamdo'stlik istisnodir, chunki soliq qonunchiligiga binoan, hamdo'stlik daromadi bir-biridan mustaqil sheriklar daromadining minimal summasi sifatida qaraladi. Avstriya qonun chiqaruvchi tashkilotlari hamma yuridik va jismoniy shaxslarni soliq ma'suliyati cheklanmagan va cheklangan soliq to'lovchilarga ajratadi. Cheklanmagan ma'suliyat bo'lib, soliq mamlakat ichida va tashqarisida olingan daromaddan to'lanadi degan ma'noni anglatadi. Bunday ma'suliyat doimiy yashash joyi Avstriya bo'lgan xuquqiy shaxslar, yuridik manzili yoki boshqarmasi Avstriyada bo'lgan kompaniyalarga yuklatilgan.

Cheklangan soliq ma'suliyati chet elda yashovchi xuquqiy shaxslar va mamlakatda yuridik manzili yoki boshqarmasi bo'lmagan yuridik shaxslarga tegishli. Bunday holda soliqqa, doimiy vakolatxona yoki bo'limi orqali faoliyatdan Avstriyadan olingan daromadning ayrim turlari tortiladi. Avstriya daromad solig'i xaqidagi qonun soliqqa tortiladigan daromadning 7 kategoriyasini hisobga oladi:

1. Qishloq xo'jaligi va o'rmon tayyorlov faoliyati;
2. Professional va boshqa xizmatlar ko'rsatish;
3. Sanoat va tijorat faoliyati;
4. g'llanma ish;
5. Kapital qo'yilma;
6. Shaxsiy mulkni ijaraga berish;
7. Boshqa manbalar.

Daromad solig'i sarmoya qiymati oshishi natijasida olingan daromaddan ham olinadi. Odatda bu daromad sarmoyaning ma'lum qismi sotilganda to'liq soliqqa tortiladi, faqat shu daromadning

boshqa asosiy fondlar sotib olishga ishlatilishi bunga kirmaydi. Agarda firma, uning hamdo'stlikdagi ulushi sotilayotgan yoki yopilayotgan bo'lsa, olingan daromad imtiyozli stavka bo'yicha soliqqa tortilishi mumkin. To'la sotilayotgan yoki yopilayotgan firmalar 100 000 avs.shilingi soliq, kredit hamda shu firma egasining hamdo'stlikda yoki firmadagi ulushi belgilab beradigan kreditning bir qismi maxsus imtiyoz bo'lib xizmat qilishi mumkin. Undan tashqari kapitalning o'sishidan olingan daromadning ayrim turlari kamaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha soliqqa tortiladi.

Kompaniyalar xorijiy filiallarning asosiy fondlarni sotishdan olingan daromadi soliqqa tortilmaydi.

Jismoniy shaxslar kapital o'sishidan olgan daromadlariga maxsus qoidalar qo'llaniladi.

Soliqqa tortiladigan daromad Avstriya qonunchiligi bo'yicha ko'rilgan zararlarni faqatgina joriy yilning tannarxiga emas, balki keyingi 7 yilga ham o'tkazilishi mumkin. Daromad solig'i olingan daromad bazasi asosida kalendar yil tugashi bilan hisoblanadi.

Asosiy hisob-kitob xujjati bo'lib, soliq to'lovchi to'ldiradigan soliq formasi hisoblanadi. Daromad solig'i avans to'lovi ko'rinishida har kvartalda o'tkaziladi. Bu to'lovlar xajmi oldingi to'langan soliqlar xajmiga bog'liq. Avanslar 10 mart, 10 iyun, 10 sentyabr va 10 dekabrda oldin o'tkaziladi. Daromad solig'i sarmoyasidan olingan daromadning ma'lum turlaridan olinadi.

2. Avstriya davlatida qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlarning ahamiyati.

Qo'shilgan qiymat solig'iga tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi, shuningdek soliq to'lovchining shaxsiy iste'moli va import tortiladi.

Shaxsiy iste'mol deganda, tovarlarning istalgancha bepul o'tkazilishi tushuniladi. QQS tovar realizatsiyasining hamma pog'onalarida undiriladi. Bunda hamma tovarlar uchun yuritiluvchi buxgalteriya xujjatlarida narx va QQS alohida ko'rsatiladi. Bu byudjetga yangi hosil bo'lgan baxoni farqini tushunib, olingan va to'langan QQSni hisoblash imkonini beradi. Shunday qilib, QQS oxirgi iste'molchi uni tannarxga o'tkazib yubora olmagan uchun oborotdan soliqqa aylanadi.

Avstriyada QQSning 3ta asosiy stavkasi mavjud. Standart stavka 20%ni tashkil qiladi. 10%li stavka ko'chmas mulkni ijaraga berganda, garaj va parkinglardan tashqari, fan va madaniyatning ayrim sohalarida, oziq-ovqat mollari realizatsiyasida qo'llaniladi. Ayrim kelishuvlar QQSdan ozod etilgan, masalan, nomoliyaviy operatsiyalar, eksport bitimlari va er sotish bitimlari. QQSni hisoblash davri bo'lib kalendar yili hisoblanadi. Birinchi soliq deklaratsiyalari qoida bo'yicha 1 oy va yana oy tugagandan keyin 10 kun ichida taqdim qilinishi kerak. Avans to'lovlari deklaratsiya to'ldirilishi bilan bir vaqtda o'tkazib berilishi kerak. Agar avans vaqtida va to'liq o'tkazilgan bo'lsa, birinchi deklaratsiyani to'ldirmasa ham bo'ladi.

QSSga soliq solishga qator imtiyozlar amal qiladi. Masalan, oldingi to'zilgan kompaniyalar guruhi yagona soliqqa tortiladigan sub'ekt sifatida registratsiya qilinishi mumkin. Bunday guruh ichida oborot soliqqa tortilmaydi. Nazorat qiladigan kompaniya Avstriyaniki bo'lishi shart emas. Bu holda sho''ba korxonasi yoki firma Avstriyada QSS bo'yicha soliqqa tortilmasligi ham mumkin. Boshqa soliq va yig'imga ham mavjud. Ekvivalent solig'i vorislikka soliq xajmiga mos kattalikda undiriladi va uni mol-mulk solig'i sub'ektlari bo'lgan yuridik shaxslar to'laydilar. Cheklanmagan soliq ma'suliyatida soliqqa tortish ob'ekti mol-mulkning qiymati hisoblanadi.

Avstriya korporatsiyalari, tijorat kooperativlari va qishloq xo'jalik assotsiatsiyalar mulkining, 10%dan ko'prok qismi cheklanmagan soliq ma'suliyati, yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, shu qismi ekvivalent solig'iga tortilmaydi. Ekvivalent solig'ining kattaligi – 0,5% ammo u qiymati 15000 avs.shilingidan oshgan va mol-mulk solig'i bilan bir vaqtda undiriladi.

Ko'chmas mulk solig'i ob'ekti bo'lib, avstriya xududida joylashgan mulk hisolanadi. Bu soliq Avstriya soliq organlari bahosi asosida hisoblanadi. Soliq stavkasi 25%li stavka amal qiladi. Bunday daromad turlariga Avstriya soliq qonunchiligi bo'yicha quyidagilar kiradi.

- aktsiya, pay, sertifikat va shunga o'xshash qimmatli qog'ozlardan dividendlar;
- firma ishlarida faol qatnashmaydigan hamdo'stlik a'zosining daromadlari;

Sarmoyadan olingan daromadning ayrim boshqa turlari 10% stavka bo'yicha soliqqa tortiladi (agar ular Avstriya banki tamonidan to'langan bo'lsa).

Bu kuydagilarga tegishli:

- boshqa bank operatsiyalari va depozitli qo'yilmalardan foizli daromad;
- ma'lum bir pul summasini to'lashni talab qiladigan veksel yoki boshqa qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- obligatsiyalardan daromadlar;

Bunda faqat 31 dekabr 1983 yildan keyin avs.shilingida yoki 31 dekabr 1989 yildan keyin xorijiy valyutada chiqarilgan, pul to'lash talabini o'zida tutgan qimmatli qog'ozlardan olingan daromad soliqqa tortiladi. Agar shu kabi qimmatli qog'ozlardan olingan daromad korxonasi asosiy faoliyatidan olingan daromadning bir qismini tashkil etsa, kapitaldan olingan daromad soliqqa tortilmaydi. Sarmoyadan olingan daromad solig'i daromad solig'i to'laganda hisobga olish mumkin. Avstriya daromad manbai oldida quyidagi daromadlar 20%li stavkada soliqqa tortiladi:

- Avstriyada yashovchi va daromad oluvchi rassomlar, arxitektorlar, ma'ruzachilar, yozuvchilarning mukofatlari va gonorarlari;
- Avstriya hamdo'stligining xorijiy hamdo'stlikka to'laydigan uning daromadining bir qismi;
- ma'lum xuquqlarni berilishidan olingan daromad (masalan, litsenziya);
- kompaniyalarni ko'zatuv kengashi a'zosiga beriladigan mukofat;

- Avstriya xududida amlga oshirilayotgan maslaxat xizmatlaridan daromad.

Bu soliq ma'suliyati cheklangan soliq to'lovchilarga tegishlidir. Daromad darajasiga bog'liq holda daromad solig'ining summasi daromadni tegishli stavkaga ko'paytirib korrektirlovchi summani ayirish bilan aniqlanadi. Taxminan yiliga 0,8ga teng har kvrtalda – 15 fevral, 15 may, 15 avgust va 15 noyabrda o'tkaziladi.

Qiymati 200000 avs.shilingidan oshgan, xech nima qurilmagan er uchastkalari (ishlab chiqarish foydalanilayotgan er uchastkalari ham kiradi) er solig'i obekti bo'lib hisoblanadi. Bu stavka soliqqa tortilmaydigan minimum 200 000 avs.shilingidan oshgan summaga- 1% er solig'i ham kvartalda to'lanadi.

Sovg'a va vorislikka soliq biror odam vafot etganda va sovg'a qilish akti sodir bo'lganda o'tadigan mulk tortiladi. Soliqning stavkasi meros (sovg'a) xajmiga meros qoldiruchi (sovg'a qiluvchi) bilan voris (sovg'a oluvchi) o'rtasidagi qarindoshlik aloqalariga bog'liq. Bu soliq va yig'implardan tashqari, Avstriyada aktsizlar (neft yoki tamaki mahsulotlariga), mulk sotib olganlik uchun yig'im (masalan, avtomobil, mototsikl sotib olganda), gerb va notarial yig'implar (masalan, kredit va qarz kelishuvlari 0,8% va 1,5% stavka bo'yicha soliqqa tortiladi) va sud yig'implari mavjud. Ko'p hollarda xo'jalik faoliyatini samarali tashkil qilish uchun xususiy firmalar va hamdo'stlik aksiyadorlik jamiyatlariga birlashishi yoki shu kabilar kirishi kerak. Avstriya xukumati bunday kompaniyalarga ma'lum imtiyozlar beradi, foyda va daromad solig'ining har xil turlaridan ozod qiladi, shuningdek gerb yig'imi va QQSdan ozod qilinadi. Ammo bu soliq imtiyozlari struktura o'zgarishining sodir bo'lish vaqtiga qarab cheklanishlarga ega bo'lishi mumkin.

**Avstriyada shaxsiy daromad solig'ining (avs. shil.) 2000 yilda
belgilangan stavkalari**

15-jadval

Soliqqa tortiladigan daromad	Soliq stavkasi % da	Korrektirovka qilinadigan summa
56800 gacha	0	-
56900-63600 gacha	10	25000
63700-150000 gacha	22	11000
150100-300000 gacha	32	26000
300100-700000 gacha	42	56000
700100 dan yuqori	50	112000

Tayanch so'z va iboralar.

Soliq ma'suliyati cheklangan soliq to'lovchi

Soliq ma'suliyati cheklanmagan soliq to'lovchi

Kapital qo'yilma

Shaxsiy iste'mol

Ekvivalent solig'i

Standart stavka

Sovg'a va vorislikka soliq

Sarmoyadan olingan daromad solig'i

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Avstriyada daromad solig'i to'lovchilari necha guruhga ajratiladi?
2. Soliqqa tortiladigan daromad necha kategoriyaga ajratilgan va nimaga asosan belgilangan?
3. Daromad solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.
4. QQSi ob'ekti, stavkalarini aytib bering.
5. Mol-mulk solig'i qanday hisoblanadi?
6. Sarmoyadan olingan daromad qanday stavkalardan soliqqa tortiladi?
7. Sarmoyadan olingan daromaddan soliq manbaini aytib bering.
8. Sarmoyadan olingan daromaddan soliqning hisoblanishi va to'lanishi tartibi, muddatlari qanday?
9. Avstriyada er solig'i ob'ekti, stavkasi va to'lash muddatlari haqida so'zlang.
10. Sovg'a va vorislikka soliq ob'ekti, stavkasi va hisoblanishini aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,5,8

Qo'shimcha adabiyotlar: 2,4,5,8,9,14

12-mavzu: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida soliq tizimini tuzilishi (4 soat)

Reja:

1. MDH mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ukraina mamlakati soliq tizimining tuzilishi.
3. Ozarbayjon mamlakati soliq tizimining tuzilishi.
4. Belarus mamlakati soliq tizimining tuzilishi.

1. MDH mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

SSSR yagona xalq xo'jaligi kompleksining, shu bilan birga soliq tizimining salbiy maylda parchalanishiga qaramasdan, MDHga a'zo mamlakatlar o'zlarining umumiy xususiyatlari (faziyatlari)ni va aloqalarini saqlab qolishgan. Jumladan, bo'larga ichki bozorni birlashtirish va monalashtirish, integratsion jarayonlarni kuchaytirish; soliq chegaralarini bekor qilish va tovarlarning erkin xarakatlanishiga sharoitlar yaratish; soliq tizimi tuzilishini oqilona tashkil etish va soliqlarni hisoblash va undirish tartiblarini birxillashtirish kabilar kiradi.

Hozirda MDH mamlakatlari o'rtasida yagona «MDH tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi», Rossiyaning alohida MDH mamlakatlari bilan daromad va mol-mulk soliqlariga tegishli ikkiyoqlamali soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi kelishuv, soliq qonunchiligiga amal qilishda o'zaro yordam va hamkorlik to'g'risidagi, xo'jalik faoliyatidagi cheklovlarni olib tashlash to'g'risidagi kelishuvlar amal qilmoqda. MDH ichkarisida savdo amalga oshirilayotganda QQS «Tovar yaratilgan mamlakat» printsipli bo'yicha undiriladi. Bu degani ushbu soliqqa eksport qilinadigan tovarlar tortilib, import qilinadigan tovarlar tortilmaydi.

Shu bilan birga milliy qonunchilikdagi farqlar MDH mamlakatlarining yagona bozor shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Jumladan daromad solig'i, QQS, aktsizlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, ko'chmas mulk solig'i, er soliqlari MDH mamlakatlari soliq stavkalarida o'z o'rniga ega. Lekin MDH mamlakatlari o'rtasida integratsion jarayonlarga to'sqinlik qiluvchi har bir mamlakat soliq tizimining o'zining xususiyatlari bor.

Soliqqa tortishning xususiyatlarini Belorussiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Ukraina mamlakatlari misolida tahlil qilamiz. Bu erda shuni belgilab olish lozimki, har bir mamlakatdagi egri soliqlar narxning shakllanish siyosatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Eng muhim egri soliq – bu QQSdir. MDH barcha mamlakatlarida QQSni hisoblashning umumiy tartibi **g'arbiy Evropa mamlakatlari tajribasidan o'zlashtirilgan bo'lsada**, o'zining milliy xususiyatlariga ega. MDH mamlakatlari doirasida soliq stavkasini 20%gacha bixillashtirishga erishilgan. Shu qatorda nolli va 10%li stavka amal qiladigan tovarlar ro'yxatida farqlar bor. Bojxonalar Ittifoqi doirasida aktsiz solig'i undirilayotganda: 1) ikki taraflama savdo

shakllanishining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va import qilinadigan tovarlar bahoning sun'iy ravishda oshishiga olib keluvchi ikkiyoqlamali soliqqa tortish muammosi vujudga keladi. Bojxona bojlarini rasmiylashtirishga to'sqinlik qiluvchi aktsiz osti tovarlar ro'yxati va ularning stavkalarida bir qator farqlar bor. Har bir mamlakatda ko'pchilik tovarlar uchun maxsus aktsiz stavkalari belgilangan bo'lib, ular milliy valyutalardadir, bu esa mazkur stavkalarni tenglashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

O'zining bir qator alohida xususiyatlariga qaramasdan daromad solig'i va yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) soliqlar MDHga a'zo barcha mamlakatlar soliq tizimlarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda mazkur soliqning to'lovchilari bo'lib barcha yuridik shaxslar, jumladan, xorijiy yuridik shaxslar ham hisoblanadi. Mazkur soliqni Qirg'izistonda faqatgina reziden yuridik shaxslargina to'laydi, Belorussiyada to'lovchilar bo'lib qo'shma faoliyat to'g'risidagi shartnoma qatnashchilari hisoblanadi, Rossiyada esa qo'shma faoliyatdan daromad shartnoma qatnashchilarining har birida hisoblanib, umumiy stavka bo'yicha undiriladi.

Soliq stavkalarida ham sezilarni farqlar bor. Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda daromad solig'ining asosiy stavkasi 30% qilib (hozirda Rossiyada 24%) belgilangan, Belorussiyada 25% va h.k.

Mahalliy organlar hokimiyatlari tovar oborotini, assortimentini va savdo tashkiloti turini hisobga olgan holda daromad uchun oldindan belgilangan soliq summasini o'rnatadilar. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib Rossiyada yalpi daromad, Belorussiyada – balans daromadi, Qozog'iston va Qirg'izistonda – jami olinadigan daromad, Tojikistonda yalpi daromad bilan chegirmalar o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Bojxonalar ittifoqi doirasida eng ko'p bir shaklga keltirilgan soliq - bu yuridik shaxslarning mol-mulkiga bo'lgan soliqdir. U Qirg'izistondan to'lovchilari bo'lib barcha tashkilot va korxonalar hisoblanadi. Soliq stavkasi etarli darajada past bo'lib, u Tojikistonda – 0,5% Belorussiya va Qozog'istonda – 1% bo'lib, Rossiyada esa uning har bir sub'ekt hokimiyatlari belgilash mumkin bo'lgan aniq stavka 2%lidan oshmasligi kerak.

2. Ukraina mamlakati soliq tizimining tuzilishi.

Soliq tizimiga 17 xil umumdavlat, 16 xil mahalliy soliqlar va yig'imlar kiradi (5-rasm).

QQS byudjet tizimini tashkil etuvchi, ya'ni hissasi barcha tushumlarga nisbatan 60% ni tashkil etuvchi soliq hisoblanadi. Ushbu soliq yagona stavka bo'yicha undiriladi, shuning uchun mazkur soliq bo'yicha ko'p imtiyozlar belgilangan. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib eksportda maxsulot bahosi hisoblanadi. Soliq to'lovchilar va soliqni hisoblash metodikasi Rossiyaga o'xshashdir.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i Rossiyadagi daromad solig'iga o'xshashdir.

Ukraina soliqlari

16-jadval

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliq va yig'imlar
1	2
1. QQS;	1. Reklama solig'i;
2. Aktsiz yig'imi;	2. Kommunal solig'i;
3. Korxonalar daromadiga soliq;	3. Mexmonxona yig'imi;
4. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq;	4. Avtotransport parkovkasi yig'imi;
5. Bojxona boji;	5. Bozor yig'imi;
6. Davlat boji;	6. Kvartiraga order berish yig'imi;
7. Ko'chmas mulk solig'i;	7. Kurort yig'imi;
8. Er to'lovi (solig'i);	8. Otchopar ot yugurishida ishtirok etganlik yig'imi;
9. Renta to'lovlari;	9. Otchopar ot yugurishidagi yutuq uchun yig'im;
10. Transport vositalari egalari daromadiga soliq;	10. Otchoparda totalizatorida ishtirok etganlik uchun yig'im;
11. Xunarmandchilik solig'i;	11. Mahalliy ramziy ifodani ishlatganlik uchun yig'im;
12. Geologik-rangli metallarni qidirish ishlari yig'imlari;	12. Kino va teles'emkani o'tkazish huquqi uchun yig'im;
13. Tabiiy resurslarning maxsus ishlatilishi yig'imi;	13. Mahalliy auktsionni (lotereyani) o'tkazish huquqi uchun yig'imi;
14. Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun yig'im;	14. Chegaraga tutash hududlardan chet elga ketayotgan avtotransportdan yo'l haqiga yig'imi;
15. Majburiy ijtimoiy sug'urta yig'imi;	15. Xizmatlar sohasi va savdo ob'ektlarini joylashti-rishni ruxsat berish uchun yig'imlar;
16. Davlatning majburiy pensiya sug'urtasi yig'imi;	16. It egalari daromadiga yig'imlar.
17. Davlat innovatsiya fondiga yig'imlar.	

Er solig'i to'lovchilari bo'lib, er egalari va erdan foydalanuvchilar hisoblanadilar. Soliqqa tortish ob'ektlariga foydalanishda bo'lgan er uchastkalari kiradi. Er uchun to'lov shakllari bo'lib, er solig'i va ijara to'lovi hisoblanadi. Er solig'i miqdori er uchastkasining maydoniga, uning puldagi bahosi va soliq stavkasiga bog'liq. Er ijara haqining miqdori, shartlari va muddatlari ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi tomonidan belgilanadi. Ijaraga beruvchilar bo'lib, mahalliy hukumat

organlari va er egalari hisoblanadilar. Agar ijaraga beruvchilar qishloqlar, shaharlar tumanlarining kengashlari bo'lib chiqilsa, u holda ijaraga oluvchilar ijara haqini mustaqil ravishda byudjetga to'laydilar. Er uchastkalariga soliq stavkasi foydalanish maqsadiga ko'ra (shudgorlik, piganzor, o'tloq, qurilishga va h.k.) differentsiialashgan foizlarda belgilanadi. Bundan tashqari er solig'i stavkasini tarixiy madaniy ahamiyatiga ko'ra belgilangan me'yordan ko'paytiruvchi koeffitsientlar kiritilgan. Energetika ehtiyojlari uchun suv resurslaridan maxsus foydalanish haqi yuridik shaxs maqomidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha sub'ektlar tomonidan to'lanadi. To'lov me'yorlarini (normativlarini) hukumat tasdiqlaydi. Belgilangan me'yorlarga quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: 0,1 – uy-joy (kommunal xo'jalik korxonalar uchun; 0,2 – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun; 0,5 – elektrostantsiyalar uchun; 0,8 – guruch etishtiruvchilar uchun.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimi o'z ichiga 2 xil soliq va yig'imni hamda 14 ta yig'imni oladi. Majburiy soliqlar va yig'imlar bo'lib, kommunal solig'i va savdo qilish uchun ruxsat berish, xizmatlar doirasi, transport parkovkasi, kvartiraga order berish, it egalaridan yig'imlar hisoblanadilar. Qolgan soliqlar mahalliy hukumat organlari tomonidan kiritilishi mumkin.

Kommunal solig'i to'lovchilari bo'lib, byudjet tashkilotlari va qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari barcha yuridik shaxslar hisoblanadilar. Soliq minimal ish haqi fondining va hisobdagi ishchilarning o'rtacha oylik sonining yillik 10%i miqdorida belgilangan.

Chegaraga tutash hududlardan chet elga ketayotgan avtotrasport yo'l haqi yig'imini chet elga ketayotgan shaxslar va fuqarolar to'laydilar. Soliq stavkasi miqdori yuridik shaxslar va Ukraina fuqarolari uchun fuqarolarning soliqqa tortilmaydigan minimal daromadlarining 0,5%ini tashkil etadi. Soliqning aniq stavkalari transport vositasining markasi va quvvatiga bog'liq.

Bozor yig'imini yuridik shaxs sifatida barcha turdagi soliqlarni to'lovchi statsi savdo joylaridan tashqari bozorda savdoni amalga oshiruvchi barcha yuridik shaxslar va fuqarolar to'laydilar. Soliq stavkasini mahalliy hukumat organlari belgilaydilar, lekin bu stavka yuridik shaxslar uchun 3 minimal okladan, fuqarolar uchun esa minimal okladning 20%idan oshmasligi kerak.

Mexmonxona yig'imi to'lovchilari bo'lib, mexmonxonada yashovchi shaxslar hisoblanadi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib ijaraga olingan turar joyning 1 so'tkalik bahosi hisoblanadi. Soliq stavkasi turar, joy ijara haqining 20%i miqdorigacha belgilanadi. Umumfoydalanish avtomobil yo'llarini qurilishi, qayta ta'mirlanishi, to'zatis va saqlanishiga ajratmalar majburiy to'lovlar bo'lib hisoblanadi. Mablag'lar byudjetning alohida hisoblariga kiritilib maqsadli yo'nalishga ega. To'lovlar korxonalar mablag'larining ajratmalarini, yoqilg'i moylash vositalari sotuvidan yig'imlarni, avtotransport ekspluatatsiyasi daromadidan ajratmalarni, Ukraina yo'llaridan yurish yig'imlarini va transport vositalari egalaridan soliqlarni o'z ichiga oladi.

Korxonalar mablag'laridan ajratmalar stavkasi xo'jalik faoliyati turiga bog'liq, masalan, sanoatqurilish va transport tashkilotlari ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bahosiga nisbatan 0,4%-1,2% gacha ajratma qilishadi, tovar tayyorlovchi va tarkatuvchi korxonalar tovaroborotiga nisbatan 0,03%-0,06% gacha.

Avtotransport ekspluatatsiyasiga daromadlaridan ajratmalar stavkasi 2% qilib belgilangan. Ajratmalar to'lovchilari bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar avtotransport korxonalari hisoblanadilar.

Transport vositalari egalaridan soliqni transport vositalari egalari sifatida ro'yxatdan o'tgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Soliq stavkalari dvigatel tsilindri hajmining 100 sm. kubga, elektrdvigateli vositalarning 1 kvtgga, yaxtalar; katerlar, qayiqalar uzunliklaring 1 sm.ga evroda belgilangan.

Nogironlarni ijtimoiy himoyalash fondiga ajratmalarni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlar amalga oshiradilar. Ajratma nogironni mehnat bilan ta'minlash uchun tashkil etilmagan har bir joy uchun korxonadagi 1 ishchining yillik o'rtacha ish haqi miqdorida belgilangan.

Davlat innovatsiya fondiga yig'imni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining barcha sub'ektlari to'laydilar. Yig'im realizatsiya qilingan maxsulot (ish, xizmat)ning QQS va aksiz yig'imi hisoblangandan so'ngi baxosiga nisbatan 1% miqdoridagi stavka bo'yicha to'lanadi.

3. Ozarbayjon mamlakati soliq tizimining tuzilishi.

Ozarbayjon Respublikasi hukumati 1995-yildan boshlab iqtisodiyot sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning yakuniga yuqori stavkali soliqqa tortishni, davlat harajatlarini qisqarishini, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini oshishini mo'ljallab qo'ygan edi.

Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimini tuzilgan aktlar bo'yicha qonuniy belgilangan jami soliqlar tashkil etadi.

Daromad (foyda) solig'i.

Soliq to'lovchilar bo'lib tashkilotlar va korxonalar, shu bilan birga banklar, sug'urta tashkilotlari va qonunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan muassasalar. Ushbu soliqdan tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun patent olgan korxonalar, shu jumladan, Milliy bank va uning idoralari, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalar va muassasalar ozoddirilar.

Soliqni hisoblashda soliqqa tortiladigan daromad ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar summasiga hamda bank kreditini qoplashga yo'naltirilgan mablag'larga kamayadi (qisqaradi).

Xuddi shunday tartibda soliqqa tortiladigan daromad hayriya tashkilotlari, ekologiya va sog'liqni saqlash fondlariga, diniy tashkilotlarga, individlar uyushmasiga va ularning korxonalariga ajratilgan summalarga shu bilan birga korxonalar tomonidan sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minlash, sport, madaniyat va san'at muassasalariga, boshqa ijtimoiy tashkilotlarga o'tkaziladigan mablag' summalariga qisqaradi.

Daromad solig'i stavkasi umumiy ishchilar soninig kamida 50%ini nogironlar tashkil etadigan korxonalar uchun 50%ga kamayadi. Bank va boshqa kredit muassasalarida soliqqa tortiladigan daromad kreditlarni qoplash uchun tuzilgan rezervga yo'naltirilgan daromad summasining umumiy hajmidan 20% miqdorida qisqartiriladi. Daromad solig'i stavkasi 1997 yildan boshlab 1999 yilgacha 35% dan 27% gacha o'zgargan.

Qo'shilgan qiymat solig'i. Soliq to'lovchilar bo'lib korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar), jumladan, xorijiy investitsiyali korxonalar, to'liq shirkatlar, tovarlar importda yuridik shaxs maqolini olmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan individual xususiy tadbirkorlar va jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

QQSning soliqqa tortish ob'ekti bo'lib realizatsiya qilingan tovar, ish va xizmatlarning oboroti hisoblanadi. QQS hisoblanishidan quyidagilar ozod: xususiylashtirish tartibida sotib olingan mol-mulk narxi, sug'urta operatsiyalari, ssuda to'lovlari, pullik omonatlar; xalq ta'limi, madaniyat va sohalariga hamda diniy birlashmalarga ko'rsatilgan xizmatlar. Ushbu soliqni to'lashdan invalidlar, mudofaa korxonalarini ishlab chiqargan tovarlar, ommaviy axborot vositalarining barcha turdagi sotish-sotib olish bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlari, kredit va ssuda ko'rinishidagi mablag'lar ozoddir.

QQSda nomli stavka bo'yicha MDH mamlakatlari tashqarisiga eksport qilinadigan tovarlar va MDH mamlakatlariga esa diplomatik vakolatxonalar foydalanadigan tovarlar va xizmatlar, shahar transport xizmatlari, darsliklar va bolalar adabiyotlari tortiladi.

Boshida soliq stavkasi 28%ni tashkil etgan bo'lsa, xozirga kelib 20%gacha tushirilgan.

Aktsizlar.

Aktsiz solig'ini to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar, shu jumladan xorijiy investitsiyasi bor korxonalar, va tovarni realizatsiya qiluvchi, xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Aktsizlanmaydigan tovarlarni chetga olib chiqib ketayotgan yuridik shaxslar respublika tashqarisiga realizatsiya qilinadigan tovarlar bilan belgilangan aktsiz stavka bo'yicha soliq tulaydilar. MDH mamlakatlari tashqarisiga eksport qilinadigan aktsiz osti tovarlar realizatsiyasi aktsiz solig'iga tortilmaydi. Vazirlar Mahkamasiga aktsiz osti tovar va xizmatlar ro'yxatini qisqartirish yoki kengaytirish, aktsiz stavkasini oshirish yoki pasaytirish huquqi berilgan.

Daromad solig'i.

Mazkur soliqni to'lovchilari bo'lib jismoniy shaxslar va respublika hududida doim turgan chet el fuqarolari (kalendar yilining kamida 183 kuni) hisoblanadilar. Soliq ob'ekti bo'lib fuqarolarning 1 oylik yoki yillik daromadlari bo'lib hisoblanadi. Ayrim kategoriyadagi fuqarolarga soliq to'lashdan imtiyozlar beriladi, masalan mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan shaxslarga. Ushbu soliqdan barcha turdagi pensiyalar, xaloq bo'lgan harbiy xizmatchilar oilalariga beriladigan nafaqalar, stipendiyalar, lotereya yutuqlari, alimentlar va boshqalar ozod etiladi. 1,2 mln. manatgacha bo'lgan yillik foizlar summasidan soliq undirilmaydi.

Ushbu summadan oshgan daromadlar 12%li stavka bo'yicha, 60 mln. manatdan ko'p bo'lgan summa esa 35%li stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Mol-mulk solig'i.

Soliq to'lovchilar bo'lib yuridik shaxslar, horijiy investitsiyasi bor korxonalar va xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar hisoblanadilar. Soliq ob'ekti bo'lib, tashkilot balansida mavjud bo'lgan asosiy vositalar hisoblanadi. Korxonalar soliqni mol-mulk bahosiga nisbatan 0,5% miqdorida, jismoniy shaxslar esa bino inventarizatsion bahosiga nisbatan 0,1% miqdorida to'laydilar.

Davlat boji.

Bojlar sudlarga berilgan davomi arizalardan, o'tkazilayotgan notarial operatsiyalardan, nikohlarni ro'yxatga olishlarda, horij safarlarini rasmiylashtirayotganda undiriladi. Boj stavkalari respublika hukumatining maxsus qarorlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy sug'urta solig'i.

Ozarbayjonda mablag'lari pensiya va nafaqalarga to'lashga ishlatiladigan pensiya fondi ishlab turadi. Ushbu fond mablag'lari, ijtimoiy sug'urta solig'i va davlat byudjeti tomonidan to'g'ri transfertlar hisobiga shakllanadi. Ijtimoiy sug'urta solig'i stavkasi 40% (1993 y.) dan 33% (2000 y.) gacha pasaytirilgan.

4. Belarus mamlakati soliq tizimining tuzilishi.

Belarusiya respublikasi soliq tizimi 1991 yilgi “Belarusiya respublikasi byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig’imlar to’g’risida”gi qonuni bilan belgilangan.

Bundan tashqari byudjetga turdagi to’lovlar ham kelib tushadi. Soliq va yig’imlarning mahalliy byudjetga kelib tushishi “Belarusiya Respublikasida mahalliy boshqaruv va o’zini o’zi boshqarish to’g’risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Soliq tizimi o’z ichiga 17 ta soliq va yig’imlarni oladi. Ayrim soliqlar va bir necha alohida mustaqil turdagi to’lovlardan iborat. Masalan yo’l fondiga to’lovlar o’zining soliq bazasi va hisoblash metodiga ega bo’lgan 7 ta soliq, yig’im hamda ajratmalardan iborat.

Eng muhim soliqlardan biri bo’lib QQS hisoblanadi, u byudjetni 25%ga shakllantiradi.

Respublikada soliq xarakteriga ega bo’lmagan, hukumat tomonidan hamda qonunchilikda belgilanadigan, davlatning maqsadli fondlariga kelib tushadigan birmuncha to’lovlar bor. Jumladan, qishloq xo’jaligi mahsulotlari va oziq ovqatlarini ishlab chiqaruvchilar madad fondiga, ajratmalar, uy-joy fondi ta’minoti harajatlarini moliyalashtirish uchun ajratmalar, yo’l fondiga to’lovlar, Chernobil AES avariya oqibatlarini oldini olish fondiga, bolalarning maktabgacha bo’lgan muassasalari ta’minotiga to’lovlar va h.k.

Belarusiya Respublikasi soliq va yig’imlarini to’lash manbalariga ko’ra quyidagicha tasniflash mumkin.

Mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan tushum	Daromad	Ishlab chiqarish va muomola harajatlari
1	2	3
<p>Soliq va yig'implar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. QQS 2. Aktsizlar 3. g'qilg'i sotish solig'i 4. Xizmatlar uchun yig'implar <p>Ajratmalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yo'ldan foydalanuv-chilar uchun yo'l fondiga 2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi-lar madad fondiga 3. Mahalliy byudjet-ning maqsadli fondlariga (uy-joy fondiga, qishloq xo'jaligi fondiga va h.k.) 	<p>Soliq va yig'implar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Daromad solig'i 2. Ko'chmas mulk solig'i 3. Avtotranspot vositalarini sotib olish solig'i 4. Transport yig'imi 	<p>Soliqlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bojxona boji 2. Davlat boji 3. Ekologiya boji 4. Er to'lovlari 5. ChAES fojiasi oqibatlarini oldini olish, fav-qulodda solig'i 6. Avtotransport vositalarini o'tkazish yig'imi <p>Ajratmalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aholigi ijti-moyi himoyalash fondiga 2. Bandlikni ta'minlash fondi va boshqalarga

Tayanch so'z va iboralar.

Integratsiya

Ikki yoqlama soliqqa tortish

Milliy valyuta

Soliq imtiyozlari

Ssuda to'lovlari

Ijtimoiy sug'urta solig'i

Transfert

Davlat innovatsiya fondi

Xususiy soliq

O'z-o'zini nazoar qilish uchun savollar.

1. MDH ichkarisida savdo amalga oshirilayotganda QQS undirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. MDH mamlakatlar bojxona hududlarida rasmiylashtiruv chog'ida qanday muammolarga duch kelinmoqda?
3. MDH mamlakatlarida daromad solig'i undirish tartibining farqli jihatlarini aytib bering.
4. Ozarbayjonda daromad (foyda) solig'i undirish tartibi qanday?
5. Ozarbayjonda QQS sub'ektlari, ob'ektlari, stavka va imtiyozlari qanday belgilangan?
6. Ozarbayjonda aktsiz solig'i undirilish haqida ma'lumot bering.
7. Ozarbayjonda ijtimoiy sug'urta solig'i qay tartibda undiriladi?
8. Ukrainada ijtimoiy himoyalash va davlat innovatsiya fondiga yig'implar qanday o'tkaziladi?
9. Ukraina soliq tizimiga ta'rif bering.
10. Belarusiya soliq tizimidagi soliq turlari hamda yig'implarini ta'riflab bering.
11. Belorussiyada soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri va egri soliqni farqini aytib bering.
12. Moldova soliq tizimiga ta'rif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabietlar: 1,4,7,8

Qo'shimcha adabiyotlar: 2,4,5,6,11,13

13-mavzu: Rossiya Federatsiyasi soliq tizimining tuzilishi

(4 soat)

Reja:

1. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi.
2. Korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq.
3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i.
4. Rossiya Federatsiyasining boshqa soliqlari va Rossiya Federatsiyasi soliq tizimining o'ziga hos xususiyatlari.

1. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi.

Rossiya soliqlar tizimi 3 xil soliqlarga bo'linadi: federal, respublika va mahalliy soliqlar.

Federal soliqlarga - QQS, jismoniy shaxslar daromadiga soliq, sovg'a va meros sifatida o'tadigan mol-mulk solig'i, korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq, aktsizlar, boj to'lovlari, davlat poshlinasi, gerb yig'imi va boshqa soliqlar kiradi. Respublika soliqlariga korxonalar mol-mulkiga soliq, o'rmon solig'i va boshqalar misol bo'ladi. Mahalliy soliqlar - jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq, sr solig'i va mahalliy hukumatlar o'z ehtiyojlariga ko'ra qabo'l qilgan soliqlar kiradi. Nafaqa va boshqa ijtimoiy fondlarga badallar umumfederal xarakterga ega bo'lib, bu sohadagi byudjetdan tashqari fondlar orqali shakllanadi. Jami Rossiya Federatsiyasida 300 ga yaqin soliq va har turdagi yig'imlar amal qiladi. Soliq yig'imlari ichida QQS va korxonalar foydasiga soliq tushumlari asosiy o'rinni egallaydi.

Federal soliqlar, ularning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazilishi tartibi, ularning stavkalari hajmi, soliqqa tortish ob'ektlari, soliq to'lovchilari Rossiya Federatsiyasi soliq qonunchiligi amal qilingan holda federatsiyaning barcha hududlarida undiriladi. Federal soliqlar stavkalari RF Federal kengashi (yig'ini) tomonidan o'rnatiladi. Shuningdek, tabiiy resurslarni ayrim turlariga soliqlar, mineral xom-ashyolarning ba'zi bir turlariga aktsizlar va boj poshlinalari, ularning stavkalari federal xukumat tomonidan hal egiladi. Federal soliqlar bo'yicha imtiyozlar faqat soliqlar haqidagi federal iqtisodiy asosida qabo'l qilinadi. Federal soliqlar rivojlangan mamlakatlardan kelayotgan mahsulotlarga nisbatan kam stavkalar qo'llaniladi.

mamlakati aniqlanmagan tovarlar uchun boj stavkasi 2 marta ko'paygan bo'ladi.

Mol-mulk solig'i.

Rossiya fuqarolari tomonidan shuningdek mol-mulk solig'i ham to'lanadi. Mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib quyidagi mulk egalari hisoblanadi: shaxsiy uy-joy kvartiralar, garajlar, turli xil imoratlar va korxonalar egalari, motor lotkalar, vertolstlar, samolyotlar, va boshqa transport vositalari egalari (avtomobil mototsikllar va boshqa o'zi yurar mexanizm egalari tanqari).

Mol-mulk solig'i stavkasi mulk qiymatiga qarab differentsiyalangan transport vositalari esa dvigatsl quvvatiga qarab belgilanadi. Sovg'a va meros tariqasida olingan mol-mulklar, jumladan: joylar, dachalar, kvartiralar, garajlar, kichik xovlilar, uycharlar, avtomobillar, motor qayiqlar, yaxtalar va boshqa transport vositalari, san'at asarlari, antikvariat, zargarlik buyumlari, qimmatbaxo qog'ozlar, valyuta boyliklari va boshqa ham mol-mulk solig'iga tortilgan. Soliq mol-mulk rasmiylashtirish jarayonida undiriladi.

Quyidagilar ushbu soliqqa tortilmaydilar:

- turmush o'rtoqlarini birortasiga mol-mulk utgan, sovg'a kilipgap bo'lsa:
davlat himoyasi paitida vafot etgan shaxsning mol-mulki.

RF da soliq tizimi asosan quyidagi muhim tamoyillarga asoslangan:

1. .To'g'ri va egri soliqlarning mutanosibligini saqlash (Rossiyada bitta yoki ikkita tushum bo'lib, yuqori stavka qo'llagandan ko'ra, bir nechta soliq. turi mavjud bo'lib, soliq stavkalari pastdir).

2. Soliqqa tortish tizimining universallasuvi. Bu esa o'z navbatida:

1. mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, soliq to'lashda hammaga talab bir,
2. daromad manbaidan iqtisodiyot sohasi tarmog'idan qat'iy nazar, hamma uchun birday shlits hisob-kitobi amalga oshiriladi;

3. Bir yoqlama soliqqa tortish, ya'ni xar bir ob'ekt faqat bir marta soliqqa tortiladi;

4. Bir vaqtning o'zida ham soliq to'lovchining, ham davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda konkret va aniq soliq stavkasini qo'llash;

5. Daromad darajasiga qarab soliq stavkalarini differeptsiyalash;

6. Soliq stavkalarini qat'iyligi (bunda soliq stavkalari nisbatan uzok vaqtga amal qilishi va to'lovlarini hisoblashning soddaligi nazarda tutiladi);

7. Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish (bunda soliq imtiyozlari hamma uchun bslgilangan tartib asosida amal qilishi lozim);

8. Davlat boshqaruviga qarab soliqlarni aniq taksimlanishi nazorat kilinishi lozim, ya'ni:

- fedsral (markaziy) soliqlar:

- respublika (o'lkalar, okruglar, avtonom respublikalar) soliqlari;

- mahalliy soliqlar.

Quyidagi korxonalar foyda solig'i to'lashdan ozod etiladi:

- diniy tashkilotlar;

- invalidlar tashkiloti, ularning o'quv ishlab chiqarish korxonalar va muassasalari; •

- protez-ortopediya mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Korxonalar foyda SOLIRI xar kvartalda to'lanishi lozim. Shuningdek korxonalar tomonidan avans to'lovlari ham o'tkaziladi, ya'ni kvartalning xar oyning 10-25 sanalarida belgilangan

summaning 1.6 qismi to'lanadi. Agar to'lanadigan summa uncha katta bo'lmasa, u holda kelishuv asosida ushbu summani xar oyda 1 marta-oyning 20 sanasida 1.3 kvartallik soliq summasi to'lanadi.

1. QQS

2. mahsulotlarning ayrim guruhlari va turlariga aktsizlar

3. banklar daromadiga soliq.

4. sug'urta faoliyati daromadiga soliq,

5. birja faoliyatiga soliq. (birja solig'i)

6. qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalarga soliq,

7. boj poshlinasi

8. RF byudjetdan tashqari maxsus fondiga o'tkaziladigan moddiy va xom-ashyo bazasining qayta ishlab chiqarilishiga ajratmalar.

9. RF tarkibidagi jumxuriyatlar respublika byudjeti, federal byudjetga o'lka va viloyatlarning, viloyat byudjeti tumanlarning tuman byudjetlariga o'tkaziladigan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar.

10. Korxonalar daromadi va foydasiga soliq;

11. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq;

12. Yo'l fonllarini tashkil etadigan soliqlar;

- yoqilg'i-moy materiallarini realizatsiya qilinganiga soliq;

- avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarga soliq;

- transport vositalari egalariga soliq;

- transport vositalarini sotib olishga soliq;

13. gerb yig'imi

14. davlat poshlinasi

15. vorislik va sovg'a tariqasida o'tadigan mol-mulkka soliq,

16. «Rossiya», «Rossiya Federatsiya» va shu so'zlar asosida go'zilgap iboralarni ishlatish uchun yig'im.

Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi o'lkalar, viloyatlar, avtonom okruglar. Rossiyadagi mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq

2. Er soliri

3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarini ro'yhatga olish yirimi

4. Kurort zonalarida ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga soliq;

5. Kurort yirimi

6. Savdo huquqi uchuy yirim

7. Militsiya, xududni obodonlashtirish, ta'lim ehtiyojlari va boshka maqsadlar uchun fuqarolar, korxonalar, tashkilot, muassasalardan yig'imlar

8. Reklama SOLIRI

9. Hisoblash texnikasi, kompyuter, avtomobillarni olib sotishga soliq

10. It egalaridan yig'imlar

11. Aroq vino mahsulotlari bilan savdo qilish huquqi litsenziya YIRIMI

12. Mahalliy auksionlarni o'tkazish va lotereyalar o'yinlarini o'tkazish huquq uchun litsenziya yig'imi

13. Uy-joy kvartirasi orderini berishga YIRIMI

14. Avtotransportni tuxtash joyi uchun YIRIM

15. Max,alliy timsollardan foydalanishga huquq uchun YIRIMI

16. Otchoparda katnashish uchun YIRIM

17. Otchoparda yutuq uchun YIRIM

18. Otchoparda totalizatorlarda ishtirok etayotganlardan YIRIM

19. Kino va telesuratlar huquqi uchun YIRIM

20. Axoli punktlarini tozalash uchun yig'im

21. O'yin biznesi ochganligi uchun yig'im

22. Uy-joy fondini va ijtimoiy-madaniy sohani ta'minlash uchun soliq

Er solig'i, jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan ro'yxatga olish yig'imi stavkalari RF sub'ektlari va mahalliy o'zini boshkaradigan organlari tomonidan qabul qilinadi. Kurort joylarida ishlab chiqarish ob'ktlaripi kurishga soliq, kurort yig'imi va bosh rayon va shaxar davlat xukumatlari tasarrufida xal etilishi mumkin.

3. Korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq.

RF da korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq 1991 yil dekabrda boshlab qonun kuchiga kirdi. Bu soliq turida 2 xil soliq stavkasi amal qiladi:

- birinchi stavka bo'yicha soliq 13% xajmida federal byudjet foydasiga;
- ikkinchi soliq stavkasi esa RF sub'ektlari darajasida aniqlanib, ularning byudjetlariga tushadigan soliqqa aylanadi.

RF sub'ektlari mustaqil holda bu soliq stavkalarini o'rnatishlari mumkin (faqat ularni hisoblash va undirish qoidalaridan tashqari), bu chegara 22%dan oshmasligi lozim (vositachilik faoliyati, banklar, sug'urta kompaniyalari, birjalar va xokazolar uchun 30%gacha). Shunday qilib, bu stavkaning maksimal kursatkichi 35%ni (banklar uchun - 43%ni) tashkil etdi.

Rossiyada foyda solig'ini to'lovchilari bo'lib qonun asosida huquqiy shaxs bo'lgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, aloxida balansi va hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan uning bo'limlari hisoblanadi. Shuningdek bu soliq turi bilan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sohasida byudjet tashkilotlari ham soliqqa tortiladi. O'zining mustaqil hisob schyotiga va balansiga ega bo'lmagan, hamda boshqa xududlarda boshqarmasi va ro'yhatga olinish joyi qayd etilgan bo'lsa RF sub'ektlari ularning xududida joylashgan xududii maxsuslashtirilgan tuzilmalar bo'limlariga ham bu soliqni qo'llagdlariga xaklidirlar. Bu holda foyda qismining aniqlanishi hisob-kitob usuli bilan korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlari umumiy qiymati va ish haqi umumiy fondidagi ushbu bo'linmaning ulushi orqali amalga oshiriladi. Foydaning ana shu qismi ulushi korxonalar boshqarmasining solig'i hisoblanayotganida soliqqa tortilish bazasidan chiqarib tashlanadi.

RF sub'ektlari unga taalluqli bo'lgan korxonalar foydasining bir qismiga o'z soliq stavkalarini qo'llashlari mumkin. RF xukumatini temir yo'l va aloqa korxonalari, gazifikatsiya va gaz xujaligi tarmoklariga xizmat kursatish korxonalar va birlashmalariga maxsus tartibda soliq solinadi.

Rezident korxonalar Rossiyadan tashqari xududlarda va o'zining barcha daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladi. Chet mamlakatlarda to'langan daromad solig'i foyda solig'ini undirilishida hisobga olinadi, lekin bu hisob summasi Rossiya konunchiligi asosida daromad summalariga to'g'ri keladigan soliq majburiyatlari xajmini oshirishi mumkin emas.

O'zining doimiy vakolatxonasi orqali xorijiy davlatlar Qonuniga binoan tashkil etilgan kompaniya, firma va turli tashkilotlar Rossiyada tadbirkorlik faoliyatini olib borsalar foyda solig'iga tortiladi. Doimiy vakolatxonalar bo'lib tabiiy resurslarni razvedka qilish qurilish, montaj, sozlash ishlab chiqarish qurollari bo'yicha xizmatlar agentliklari, idora bo'limlari hisoblanadi. Rossiya hududida shaxsiy foydasi maqsadida tashkilot va fuqarolardan foydalanganligi uchun chet el korxonalar foyda solig'iga tortilishlari mumkin. Soliqqa tortilish bazasi bo'lib korxonaning yalpi

foydasini belgilanadi: korxonaning mahsulotlarini sotishdan xizmatlar ko'rsatilishidan va ishlar bajarilishidan, korxonaga tegishli bo'lgan er uchastkalari va asosiy fondlarning sotilishidan, realizatsiyadan tashqari operatsiyalardan va boshqa mol-

mulkni sotishdan tushgan yalpi daromadlar bilan ushbu faoliyat va operatsiyalar bilan bog'liq. xarajatlar urtasidagi tafovut orqali aniqlanadi. Korxonaning yalpi daromadi QQS va aktsizlarni, to'langan eksport poshlinalari hisobiga olmagan xolida hisoblanadi. Korxonaning mol-mulkini sotilishidan sof daromadni aniqlanishida mol-mulkni birinchi bahosi yoki qoldiq qiymati aniqlanadi. Korxonaning yalpi daromadini kamaytiradigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. normativlar va cheklanishlar asosida -

- ishlab chiqarish jarayonida iste'mol kilingan xom-ashyo va materiallarning xakki, xarajatlari, ishchilarning mehnat haqi xarajatlari;
- asosiy vosita ta'mirlashga xarajatlar;
- ishlab chiqarishni boshqarish xarajatlari;
- olingan ssuda va kreditlar foizlarini to'lash xarajatlarini (asosiy vositalarni sotib olinishida ishlatiladigan kreditlardan tashqari).

2. O'rnatilgan limit va normativlar asosida:

- xizmat safari xarajatlari;
- ishchilarni o'qitish bo'yicha xarajatlar; • ,
- reklama xarajatlari;
- vakolat xarajatlari.

Foyda solig'ining asosiy stavkalari (%)

18-jadval

Soliq to'lovchilar, faoliyat turi, soliqqa tortiladigan daromadlar	Umumiy stavka	Federal byudjetga	Hududiy byudjetga
1. Asosiy faoliyat bo'yicha korxonalar va tashkilotlar	35	13	22 gacha
2. Bank, sug'urtachilar, vositachilik faoliyati, birjalar, brokerlik idoralari	40	13	30 gacha
3. Sarmoyadan daromadlar (dividendlar, foizlar)	15	13	2
4. Video ko'rsatuv, video prokat, video mahsulotlarining ijarasi	70	13	57
5. Kazino va o'yin biznesi	90	13	77
6. Fraxtdan daromadlar	6	6	-

Foyda solig'i ob'ekta quyidagilarga kamaytiriladi:

1. Ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga, qurilishga va ijtimoiy infratuzilma sohasini rivojlantirishga ketgan mablag' kattaligiga;
2. Tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning 30%ga (korxonalar ixtiyorida qoldirilgan foyda hisobiga amalga oshirilgan bo'lsa);
3. Korxonalar o'z xodimlariga shaxsiy va kooperativ uy-joy qurilishi uchun yunaltilgan foydaning 50 % ga;
4. Korxonalar ixtiyorida qoldirilgan foyda hisobidan korxonalar balansida turgan sog'liqni saqlash ob'ektlarini, qariyalar va invalidlar uylarini, maktabgacha bolalar muassasalarini ta'minlashga ketgan xarajatlarning summasiga;
5. Xayriya maqsadida kilingan ajratmalar summasiga (bunda soliq summasi 50 % dan kamayib ketmasligi lozim).

Rossiya fedsratsiyasida quyidagi soliq pmtiyozlari mavjud:

1. Korxonalar ishchilar sonini 70 % va undan ko'pini invalidlar va pensionerlar tashkil etsa soliq stavkasi 50 % ga kamaytiriladi;
2. Agar korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan xalk iste'mol mollarini ishlab chiqarish bilan, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan (asosiy faoliyati 70 % dan oshsa shug'ullansa, birinchi 2 yili soliq to'lashdan ozod kilinadi.
3. Agar kichik korxonalar o'z foydasini qurilishga, ishlab chiqarish fondlarini qayta jixozlashga va yangilashga yo'naltirgan bo'lsa, shu qismi soliqqa tortishdan ozod etiladi. Kichik korxonalar:
 - ishlab chiqarishda va qurilishda - 200 kishi;
 - fan maorif — 100 kishi;
 - qolgan ishlab chiqarish sohaslarida - 50 kishi;

- noishlab chiqarish sohasida, chakana savdoda — 15 kishi.

3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i.

Jismoniy shaxslarni daromad solig'ini to'lovchilari bo'lib, RF fuqorolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi. RF fuqarolarining daromad solig'iga tortish ob'ekti bo'lib RF xududida va undan tashqarida olingan daromadlar hisoblanadi. Daromad chet el valyutasida olingan bo'lsa, soliq rublda ham undirilishi mumkin (soliq hisoblangan kundagi valyuta almashtirish kursi bo'yicha to'lanadi).

Soliqqa tortiladigan daromad tarkibiga: ish haki, turli xil go'lov turlari va rag'batlantirishlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiyalar % lari kiradi.

Soliqqa tortiladigan daromadga quyidagilar kiritilmaydi; ijtimoiy sug'urta bo'yicha davlat pafakalari, ijtimoiy ta'minot nafaqalari (vaqtincha ishsizlik uchun beriladigan nafakalari tashqari), davlat nafakalari, amaliyotlar, studentlar va aspirantlar stipendiyalari, xayriya jamg'armalari, o'rta maxsus va professional texnik o'quv muassasalarining stipendiyalari, o'quv muassasalari nomi bilan beriladigan stipendiyalar, davlat zayomlari va lotoreyalari bo'yicha yutuqlar, majburiy va ixtiyoriy sug'urta bo'yicha jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar, shaxsiy xo'jalik mahsulotlarini sotishdan tushgan daromad.

2002 yil soliqqa tortish stavkasi-yagona soliq stavkasi bo'lib -13,5% kilib belgilangan soliq to'lovchilarga eng asosiy soliq imtiyozlari bu — soliqqa tortilmaydigan minimum hisoblanadi (soliqqa tortilmaydigan minimum - 83 r 49 kop.). Ayrim soliq to'lovchilarga bu summaning 2-4 barobargacha ko'paytirib beradi. Masalan qishloq xo'jalik faoliyatidan olingan daromad oluvchilarga birinchi 5 yil daromad SOLIRI to'lashdan ozod etiladi xarbiy xizmatchilar, IIV va soliq. politsiya xodimlari ish hakidan olingan daromad solig'idan ozod etiladi.

4. Rossiya Federatsiyasining boshqa soliqlari va Rossiya Federatsiyasi soliq tizimining o'ziga hos hususiyatlari.

QQS to'lovchilari bo'lib, ishlab chiqarish va tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, hamda yuridik shaxslar tashkil qilmay turib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi (agar ularning mahsulot sotishdan tushgan tushumi yiliga 100 ming rubldan oshsa). Asosiy oziq ovqat mahsulotlari va bolalar mahsulotlari kamaytirilgan 10% stavka asosida soliqqa tortiladi, kolgan barcha tovarlar - 20% li stavka asosida soliqqa tortiladi.

QQSda quyidagilar ozod etiladi: mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti va ular bilan bog'liq transport operatsiyalari,

davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy tekshiruv va tajriba konstruktorlik ishlari, kommunal xo'jalik va ekspluatatsiya xizmatlari, sug'urta xizmati, bank xizmatlari, maorif sohasidagi xizmatlar, yo'lovchilar tashish xizmatlari.

Aktsiz solig'iga vino arok mahsulotlari, pivo, shokolad, baliq ikresi (ro'yhati bo'yicha), tamaki mahsulotlari, engil aptomobillar va shinalar, zargarlik va mo'yna buyumlari va boshqalar. Aktsiz solig'i stavkalari RF xukumati tomonidan belgilanadi. Aktsiz solig'i stavkasi % larda yoki absolyut miqdorda belgilanishi mumkin. Aktsiz solig'i summasi mahsulot realizatsiyasi baxosiga qo'shiladi. Ayrim xollarda RF xukumati tomonidan: bsnzinga, motor yonilg'isiga, gaz, kumir, mineral rudalar, foydali qazilmalar, yog'och, foydali mineral suvlarga nisbatan belgilanishi mumkin. Aktsiz solig'ini to'lash muddatlari turlicha: arok vino mahsulotlari uchun aktsiz soliq xar kuni to'lanadi, qolgan mahsulotlar uchun xar dekadada (10 kunda) — 13 oyining 23 va 30 sanalarida to'lanadi.

Bojxona bojlari chegaradan olib o'tiladigan mahsulotlarga nisbatan undiriladi, bojxona bojlarini bekor qilish, o'rnatish, o'zgartirishlar kiritish mamlakat Prezidsnti aniqlab beradi. Bojxona bojlari 2 xil bo'ladi: olib kiriladigan import mahsulotlarga nisbatan va olib chiqiladigai eksport mahsulotlarga nisbatan belgilanadi. Boj qiymatini aniqlash usullari mavjud. Ayrim mahsulot turlari uchun mavsumiy bojlari xoli o'rnatilishi mumkin, ularning muddati 4 oydan oshmasligi lozim, shuningdek, antidemning, kompsnsatsion-ichki bozor himoyasi, maxsus bojlar qo'llaniladi.

Eng yuqori boj stavkalari-sngil avto, spirtli ichimliklar, pivo, tamaki mahsulotlariga o'rnatilgan:

Tayanch iboralar

Er rentasi.

Jarima.

Zayom.

Ijara haqi

Qo'shma korxonona

Daromad solig'i

Deklaratsiya

Konvertatsiya

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Rossiya soliq tizimi necha pog'onadan iborat?
2. Korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq qanday tartibda to'lanadi?
3. Foyda solig'ining asosiy stavkalari qanday?
4. Foyda solig'idan qanday chegirma va imtiyozlar mavjud?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
6. QQS va aktsiz solig'i qaysi mahsulotlarga nisbatan solinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,4,5,7

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,3,5,9,14

14-Mavzu: Markaziy Osiyo davlatlarida soliq tizimini tuzilishi.

(4 soat)

Reja:

1. Markaziy Osiyo davlatlarining soliq tizimini o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qozog'iston Respublikasining soliq tizimining tuzilishi.
3. Qirg'iziston va Tojikiston Respublikasining soliq tizimining tuzilishi.

1. Markaziy Osiyo davlatlarining soliq tizimini o'ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil Davlat hamdo'stligi mamlakatlari bundan 11-12 yil oldin vujudga kelgan bo'lib, lekin soliq tizimining umumiy xususiyatlari va ba'zi bir aloqalar saqlanib qolgandir.

Hozirgi kunda MDX mamlakatlarida o'zaro yagona «Tovar nomenklatura»si saqlanib qolishga erishilgan bo'lib, ikki yoqlama soliqqa tortish va boshqa soliqqa oid, o'zaro yordam, soliq qonunchiligini xurmat qilish va boshqa soliqqa oid masalalarni o'zaro xurmat asosida amalga oshirishga erishilgan.

MDX mamlakatlarida shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayrim soliq turlari bo'yicha o'xshashliklar saqlanib qolgan. Masalan, daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar.

Shunga qaramasdan Markaziy Osiyo mamlakatlarida: Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmanistonda egri soliqlar, to'g'ri soliqlar va mahalliy soliqlar byudjet daromadlarining asosini tashkil etmoqda.

Ushbu mamlakatlarda daromad (foyda) solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari, QQS, aktsiz, solig'ini undirish tartibi bir-biriga juda o'xshashdir. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i Tojikistonda 0,5 %ni tashkil etsa, Qozog'istonda 1 %ni, Qirg'izistonda olinmaydi. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarga imtiyozlar berilgan bo'lib, ikkiyoqlama soliqlardan ozod etish ko'rib chiqilmoqda.

4. Qozog'istonda davlat byudjetini tartibga soladigan umumdavlat soliqlar hamda mahalliy byudjetlar manbalari bo'lmish mahalliy soliqlar tizimi amal qilmoqda

3. Qozog'iston Respublikasining soliq tizimining tuzilishi.

19-jadval

Umumdavlat soliqlar	Mahalliy soliq va yig'imlar
1	2
1. Yuridik va jismoniy shaxslar daromad solig'i; 2. QQS; 3. Aktsizlar; 4. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga soliq; 5. Er osti boyliklarida foydalanuvchilari uchun soliq va yig'imlar	1. Er solig'i; 2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'i; 3. Transport vositalariga soliqlar; 4. Alohida turdagi faoliyat bilan shug'ullanish huquqi uchun yig'imlar; 5. Auktsion sotuvlari uchun yig'im

QQS Qozog'iston soliq tizimidagi eng muhim soliqdir. Soliq ob'eti va soliqqa tortiladigan oborot Rossiya nikidan amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar bo'lib tashkilotlar orqali faoliyatini amalga oshirayotgan barcha yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan barcha jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Mazkur soliq o'zining xususiyatlariga ega. Jumladan aktsizosti tovarlarining soliqqa tortish oborotiga aktsizlar summolari kirmaydi; import tovarlari bo'yicha soliqqa tortish bazasi bo'lib tovar va transport vositalarining faqatgina bojxona bahosi hisoblanadi va bu o'z navbatida bir martalik soliqqa tortish printsipligiga to'g'ri keladi.

QQS stavkasi soliq tortiladigan oborotga nisbatan 20% miqdorida belgilangan bo'lib, oziq-ovqat tovarlari, ya'ni mol va parrandalarning tirik og'irligiga, bolalar ovqatlanish mahsulotlari va boshqalarga 10%li stavka belgilangan. Nolli stavka bo'yicha eksport qilinadigan tovarlar, tashiladigan xalqaro tovarlar, yo'lovchilar, hayvonlar, pochta va boshqalar soliqqa tortiladilar.

Finlyandiya mamlakat rezidentlari - Evropa hamjamiyati yoki Iqtisodiy rivojlanish va Tarakkiyot tashkiloti a'zolarining biznes ochishlari uchun anchagina imtiyozlar belgilangan. Ular Finlyandiya xududida hech qanday chegarasiz faoliyatni asoslash va amalga oshirish xuquqiga ega. Boshqa barcha xollarda yirik Finlyandiya kompaniyalariga egalik davlat tomonidan nazorat qilinadi, shuningdek chet el investorlari sanoat Vazirligi va Savdo-sotik Vazirligidan korxonaga aksiya paketining 1/3 dan ko'p kismiga ega bo'lgan xolda maxsus ruxsatnoma olishlari shart. Finlyandiyadagi chet ellik mulkdorlarga nisbatan hech qanday chegara mavjud emas, zero chet ellik fukoro Finlyandiyada dam olish maqsadlarida ko'chmas mulkka ega bo'lsa, Davlat boshqaruv Palatasidan ro'xsatnoma olishi shart. Shunday qilib, Finlyandiyaga chet ellik investitsiyalarning okib kelishiga hech qanday tqsik yo'q. Shu bilan birga barcha chet ellik investitsiyalar Finlyandiyaning *Markaziy Bankidan majburiy tarzda ro'yxatdan qtnshlari shart. Bu muolaja chet el investitsiyalarini tartibga solish uchun amalga oshiriladi. Shuningdak chet ellik iqtisodiy sub'ektni soliq maqsadlyrida ro'yxatga olishda Markaziy Bankning ro'xsatnomasi kerak. Moliyaviy va sug'rta kapital qo'yilmalar maxsus Qonun bilan kafolatlangan. Kapitalni olib chikish va iqtisodiy faoliyatdan olingan daromad hech qanday chegaralarga ega emas, Nisbatan ko'p tarkalgan tashqiliy- xukuy tadbirkorlik faoliyati ko'rinishi .- bu chegaralangan ma'suliyatli kompaniya va aksionerlik jamiyatlari, Qonunga muvofiq chegaralangan ma'suliyatli jamiyatlar savdo registrida ham ruyxatdan o'tishi shart. Ustav kapitalining minimal miqdori-5000 finlyandiya markasn

Aksionerlik jamiyatlari uchun savdo registri xabarnomasi majburiy emas, shu bilan birgalikda ixtiyoriy ravishda shu registrga kiritilishi mumkin.

Chet el korxonalarining nisbatan keng tarkalgan tashqiliy xuquqiy shakl- kompaniyalar filiallari. Mulchilikning aksionerlik shakli chet ellik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida kam uchraydi.

Finlyandiya xududida chet ellik vaqolatxonaning ochilishida qo'yidagi shart bajariyaishi shartsni ijrochi raxbar va minimum sifatida kompaniyalarning boshqaruvining yarmisi Evropa Ittifoqi (EI) soliq rezidentlari bo'lishlari shart. Xuquqiy xol faqatgina maxsus ro'xsatnoma olgan xolda bo'lishi mumkin. Finlyandpyaning rivojlanayotgan rayonlarida ishlab chiqarish tarmogiga va turizmga kapital qo'yish maxsus soliq erkinliklari, ya'ni amortizatsiya ajratmalari stavkasini 50%ga oshirish bilan kengaytiriladi.

Munitsipalitet rivojlanayotgan zonalardagi korxonalarni kengaytirib faoliyatga imtiyozli kreditlarni ham amalga oshiradi. Davlat darajasida moliyalashtirish manbai va xo'jalik • yurituvchi sub'ektlar uchun maslaxat - yordam sifatida xizmat kiluvchi maxsus fondlar tashkil qilinadi.

Korporativ solig'i barcha daromadga, bevosita daromadga va shu bilan birga mamlakat rezidentlari kapitapi qsimidan daromadga solinadi. Norezidentlarning faqatgina finlyandiya manbalaridan olingan daromadiga soliq majburiyati solinadi. Agar kompaniya Finlyandiya Qonunchiligi bylan asoslangan va ro'yxatdan o'tgan bo'lsa rezident hisoblanadi.

Finlyandiyada dividendlarni soliqqa tortish maqsadida ularni chegirish faktlari asosida soliqni hisoblash usulidan foydalaniladi. 1996 yilda divyentlar bo'yicha kompaniyalarning minimal solnk majburiyati e'lon qilingan dividendlarning umumiy summasidan 7/18. Finlyandiya rezidentlariga butun ushlab kolingan dividendlar summasiga soliq krediti beriladi. Norezidentlar agar soliq shartnomalarida ko'zda tutilgan bo'lsa to'la bo'lmagan xajmda olingan dividendlar summasiga soliq krediti beriladi. (xozirgi paytda faqatgina Bugok Britaniya va Irlandiya Finlyandiya bilan shunday shartnomalar tuzishgan).

Finlyandiya korporativ solig'i stavkasi 28%ni tashkil; etadi, taqsimlangan va taqsimlanmagan foyda uchun soliq stavkasi tabakalashtirilmagan.

Soliqqa tortiladigan daromad jaxon amaliyotida qabul qilingan korxonaning moliyaviy hisobotiga asoslangan usul bilan aniqlanadi. Zaxiralar bozor baxosining quyi chegarasi bilan baxolanadi. 1993 yilgacha soliqqa tortish bazasini korxonada o'tgazilgan inventarnzatsiyadan keynn olnngan rezervlar baxosnnng 25% gacha bo'lgan summasnga kamaytirish imkoni bo'lgan lekin 1993 yil 1 yanvardan boshlab bu faqat yo'q qilingan xozirgi patda vaqtinchalik 1992 yildan bunga muvofiq inventarizatsiya natijasida olingan rezervlar oralik rezervlar xnsobiga o'tgazilishi, keyin asta-syokin daromad va xarajatlar xnsobiga 1997 yil oxirigacha o'tgazilishi kerak. Xaqiqiy qiymati bo'yicha amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagi stavklar bilan o'rnatilgan:

- 30% ishlab chiqarish uskunasi bo'yicha
- 4% ofis binosi bo'yicha
 - 7% kolgan bino va inshootlar bo'yicha
- 20% kazib chiqaruvchi kurilmalar bo'yicha

Nomoddiy aktivlar bqiicha 10 yil davomida bir xil amortizatsiya ajratmasi hisoblash usuli qo'llaniladi. Ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlarga va turizmning industriyasiga kapital qo'yilmalar maxsus qoidalar bilan oshirilgan stavkalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari kafolatlanadi. Kapitalni sotishdan daromad sotish narxi minus xakchkin tannarx sifatida hisoblanadi va odatdagi daromad sifatida soliqqa tortiladi.

Finlyandiya kompaniyalaridan olingan deidentlar soliqqa tortiladi, ammo ular bo'yicha to'langan deidentlar summasiga soliq krediti beriladi. Ish beruvchi tomonidan sug'rtaga summa to'lovi - 23%, sotsiaya fondlarga 4 dan 6,5% ga o'zgaradi,ular daromad solig'ini hisoblashda soliq solish bazasidan butunlay chegirib tashlanadi.

Rezident kompaniya soliq tortish bazasiga fiilyandiyadan tashqarida joylashgan vaqolatxona va filiallardan olinadigan yarcha daromadlarni, shunnngdek chet elda olingan deidentlarni kiritishi lozim. Ayni bir daromadni ikki marta soliqqa tortishning oldini olish maqsadida soliq shartnomalari yoki maxalliy Qonunchilik aktlari orqali tartibga solinadi.

Norezident kompaniya finlyandiya manbalaridan olinadigan daromadga soliqning to'liq bo'lmagan majburiyatiga egalar. Agar faoliyat doimiy vakil orqali amalga oshirilsa, u xolda norezidentlar shu doimiy vakillikdan olingan daromaddagina soliq to'laydilar. Soliq summasi rezident kompaniyalar usulidek hisoblanadi. Finlyandiya bo'linmalari mol-mulkning xaqiqiy qiymatidan 1% miqdorida soliq to'laydilar, bu miqdor soliq kelishuvlari orqalm pasaytirilishi mumkin.

1996 yildan boshlab soliq deklaratsiyalarni kalendar yili tugagunga qadar 6 oy davomida amalga oshirilishi zarur. Soliq hisobot yili davomida bo'nakli to'lovlar asosida to'lanadi. hisobot yili .oxirida soliqning to'lanmagan summasi byudjetga 2 ta to'lov orqali to'lanadi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish aniq xususiyatga ega. Finlyandiya xududida 6 to'liq oydan ko'p bo'lgan jismoniy shaxs soliqqa tortish maqsadlari uchun shu mamlakat uchun rezident hisoblanadi. Finlyandiyada rezidentlik printsiplari aniqlash uchun shu narsa hisobga olinadiki, shaxs uning xududida doimiy uy-joy yoki boshqa mol-mulkka egaligi. Finlyandiyadan ko'chib kelgan fukorolar kamida 3 yil davomida unnng rezidenti hisoblanadi, agar xokimiyatning Finlyandiyada xech qanday bog'liqligi mavjud emasligi xaqida rasmiy xabarnomasi ishlab chikilmagan bo'lsa.

Finlyandiya fukorolari va chet ellik fukorolari rezident statusiga ega bo'lsalar, mamlakat va uning tashqarisida olingan daromaddan ham davlat, ham maxalliy soliqlarni to'lashga majbur.

Norezidentlar faqatgina finlyandiya manbalaridan rlingan daromadga soliq majburiyatiga egalar. Er-xotinlar soliq summasini bir-biridan aloxida tarzda hisoblaydilar va to'laydilar.

Munitsipal soliq maxalliy Qonun aktlariga muvofiq xolda 15 va 20% li darajadagi stavka bilan olinadi. Soliqlarni shuningdek Finlyandiya cherkovlariga kelganlar 1-2% bilan to'laydilar. Qo'shimcha sifatida fukorolarga quyidagi soliq solinadi: sotsial fondlarga badallar 1,9% stavka bilan, 80000 Finlyandiya markasidan oshgan daromatlarga 3,35%, pensiya fondiga 4,3%, va bandlik fondiga 1,5%. Sotsial fondlariga va bandlik to'langan summalar soliqqa tortish bazasidan to'la chegiriladi.

Davlat daromad solig'i 7 dan 39% gacha tabakalashgan progressiv stavkalarda bilan undiriladi. 43000 finlyandiya markasigacha bo'lgan daromad bunday soliqdan ozod etiladi. Doromad solig'i ish beruvchi tomonidan itchilarning ish xaqidan undiriladi. To'lanmay kolgan soliq qo'shimcha ushlab qolinadi, qo'shimcha to'lab yuborilgani o'tgaziladi. Norezidentlar finlyandnya manbalaridan daromaddan devidentlar bo'yicha 28% stavka bilan, mualliflik mukofotlari , % larga ham 28%, ish xaqi va pensiyaga 35%.

Soliq solish bazasidan quyidagi daromadlar chegiriladi: -% to'lovlari u(iste'mol kreditiga % lar bundan mustasno) kapital qo'yilmadan, ya'ni kapitalning qsimidan kelgan daromaddan chegiriladi, mol-mulkni ijaraga berishdan daromad, % lar? Lbvidentlar va boshqalar. Agar kapital qo'yilmalardan daromad kichik bo'lsa, soliqqa tortiladigan daromad 28% gacha kamaytirilishi mumkin, lekin 8000 finlyandiya markasidan yuqori bo'lmasligi kerak Lg'lnp kishilar farzandssh oilalar uchun bu ko'rsatkich 16000 finlyandiya markasini tashkil qiladiL! ta farzandi bor er-xotinga 18000 finlyandiya markas^2 va undan ftik farzandlari border-xotinlarga 20000 finlyaidiya garkasi. Shuningdek sug'rta to'lovlari Lasaba uyushmalarig badallar Bishesni yuritishga umumiy xarajatlar chegirib tashlanadi.

Munitsnpal soliq barcha daromad 8800 finlyandiya markasidan kam bo'lsa to'lanmaydi. Umumiy daromaddan qo'shimcha chegirmalarga 65 yoshdan oshgan fukorolar yoki akliy zaif odamlar egadirlar.

Aktsiyalar sotishdan va ko'chmas mulk operatsiyasidan olingan daromad kapital qo'yilmadan olingan daromatlardan olinadigan stavkalar bo'yicha soliq undiriladi. Olingan daromad daromadlar summasinn xaqikiy xarajatlar summasiga kamaytirish usuli bilan aniqlanadi. Umumiy daromadga kamaytirilgan xarajatlarning maksimal summasi aktsiyalarning yoki ko'chmas mulkning sotilish baxosining 30%ini tashkil etadi (1989 yilgacha sotib olingan aktivlar uchun 50%).

Kapital aktivlarni sotishda ko'rilgan zararlar ayni shu yil olingan daromaddan chegiriladi, yoki keyingi yil daromadiga o'tgaziladi. Birok o'tgazish muddati 3 yildan oriq bo'lmasligi kerak.

Kapital qo'yilmadan olingan daromad shu daromad olingan yili soliqqa tortiladi ham pul shaklida ham natura shaklida. Bank % va davlat obligatsiyalaridan daromad 28%li stavka bilan soliqqa tortiladi.

1989 yildan boshlab Finlyandiyada chet el mutaxassislari va ekspertlarining uning xududidagi faoliyatini tartibga soluvchi maxsus Qonun aktlari qabul qilingan. Bu kategoriyadagi soliq to'lovchilar uchun natural shaklda i(n xaqi va daromadlarni Finlyandiya 2 yil davomida 35% li stavka bilan soliqqa tortiladi. Barcha soliq to'lovchilar soliq organlariga soliq deklaratsiyalarini hisobot yilidan keyingi yilning 31 yanvarigacha takdim etishlari shart.

Finlyandiyada QQSni olishda umumevropa qoidalari mavjud, QQSning standart stavkasi 22%, zsr ba'zi sotsial muxim ahamiyatga ega tovar va xizmatlar uchun pasaytirilgan stavka mavjud. Aktsiz tovarlari uchun chakana savdoda aktsiz solig'i undiriladi. *

Meros va xadyalardan kelgan mol-mulkka soliq stavkalari karindoshlik darajasiga qarab o'zgaradi (yakin karindoshlar uchup bu stavka 10% dan 16% gacha, karindoshlik bo'lmagan shaxslarning o'zaro kelishuviga 30% dan 48%gacha). Finlyandiya rezidenti hisoblangan jismoniy shaxslar hamma mol-mulkka shu jumladan mamlakatdan tashqarisida joylashgan mulkka qiymati 1,1 mln markasidan oshmagan mulkka 0,9%li stavka bilan soliq to'laydilar. Norezidentlar Finlyandiya xududida joylashgan mol-mulkigagina soliq to'laydilar, agar bu shart xalkaro soliq shartnomalarida ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Undiriladigan soliq summolari bo'yicha chegaralar o'rnatilgan. Byudjetga to'lash uchun mo'ljallangan soliqlar summasi davlat daromad solngi summasining 70%idan oshib ketmasligi kerak. Agar bu tendentsiya mavjud bo'lsa, u xolda davlat solig'ining stavkasi pasaytirilishi kerak.

3. Norvegiya mamlakati soliq tizimining tuzilishi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar kabi Norvegiya ham Fo'qorolardan olinadigan daromad solig'i byudjetni ta'minlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Norvegiya xududida o'n oydan ko'p vaqt istikomat qilgan yoki istikomat qilmoqchi bo'lgan jismoniy shaxs xududga kelgan kundan boshlab soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Norvegiya Fo'qorolari va chet-el Fo'qorolari, rezident komusiga ega bo'lganlar soliqlarni milliy hamda maxalliy daromadlaridan to'lashlari shart. Norezidenlar esa faqat Norvegiyadagi kelgan daromadlarining manbalaridan to'lashlari shart.

Norvegiyada soliqlardan butunlay ozod bo'lish qo'yidagi shaxslarga kafolatlanadi: davlat rezidentlari bo'lgan, Norvegiya bilan soliqqa doir roziligi bo'lgan, shu bilan birgalikda soliq yilida 183 kundan ko'p Norvegiya xududida xaqikatda bo'lmasalar. Agar chet-el Fo'qorosi yuridik shaxs sifatida mamlakatda norezident bo'lsa, xalkaro shartnoma bo'yicha Norvegiyada ikki yoklama soliq to'lamaslik sharti bajarilishi mumkin. Agar chet-el Fo'qorosi Norvegiya korxonasi tomonidan ishga

olingan bo'lsa, unda bu Fo'qoro Norvegiyaga kirgan kundan boshlab soliq rezidenti hisoblanadi. Chet-el korxonalaridan olinadigan dividendlar soliqqa umumiy ravishda tortiladi.

Manbadan to'langan soliq odatda soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Soliqqa tortiluvchi yalpi daromad qo'yidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: ish xaqi, ish beruvchining ishchilarga berayotgan kushimcha imtiyozlar va boshqa ragbatlantirishlar, ijtimoiy sug'rta fondini koplanishi, pensiyalar, alimentlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar va kapitalga berilgan foizlar.

er-xotinlar soliq summalarini bir-biriga bog'lig' bo'lmagan xolda to'lab boradilar. Soliq to'lovchilar ikki guruxga bo'linadi: yolgiz yashovchi ayol yoki erkak kishi o'zida bir yoki undan ortiq bog'imandasi bo'lsa.

Munitsipal soliq stavkasi 21% plus 7% tenglashtirish fondiga, agar birinchi gurux uchun sof foydasi 23000 Norvegiya kronasidan va ikkinchi gurux uchun 46000 Norvegiya kronasidan oshgan xolda to'lanadi. Individual daromad soliqqa tortish predmeti bo'lib hisoblanadi. Milliy soliq ikki xil stavkada bo'ladi. Soliq to'lovchilarning 1-turi daromadlari 220501-248500 Norvegiya kronasidan iborat bo'lsa unda 9,5% va shu bilan birgalikda daromadi 248500 Norvegiya kronasidan oshsa 13,7% soliq stavkasida undiriladi. 2-turga 9,5% daromadi 267501-278500 Norvegiya kronasini tashkil etadi va 13,7% agar daromadi 278500 Norvegiya kronasidan oshib ketsa. Ishchilar o'zlarining ish xagidan ijtimoiy sug'rta fondiga 7,8% miqdorda badaddar-to'lashadi. Erkin tadbirkorlar ucho'n~daromadlardan 10,7%ini ijtimoiy sug'rta fondiga to'laydilar agarda 447600 Norvegiya^1sr'nasiday>2 oshmasa, oshsa esvGCh,8% to'lanadi. Pensiya summasidan ham ijtimoiy sug'rta fondiga soliqqan ushlanib golinadi, lekin ancha past stavkalar bo'yicha 3%, xuddi shu stavka 17 yoshga etmagan va 69 dan oshganlarning daromadlari soliqqa tortiladi. Chet el Fo'qorolari umumiy xolda sug'rta badallarini to'lashlari shart. Kontinent shelfida ishlovchi chet el fugarolari sug'rta badallarini to'lashdan ozodlar.

Olingan daromad xagikiy xarajatlar hisobiga kamayishi mumkin, fagat daromadning 20% gacha, shuningdek, 1-gruppa soliq to'lovchilar uchun 3600 kronasi migtsorida 2-gruppa uchun 29800 Norvegiya kronasi migtsorida soliqqa tortilmaydigan gismi chegirilib tashlanadi.

Soliq bazasini soliqqa tortiladigan bazasini kamayishiga olib keladigan, golgan daromadlarga quyidagilar kiradi - bu foizlar, alimentlar va boshgalar kiradi. Agar jismoniy shaxs chet elda ko'chmas mulk ob'ekti bo'lsa unda ushlanadigan foiz summasi cheklangan. Masalan, agar ko'chmas mulkning 30%i Norvegiyadan tashgarida bo'lsa, olingan foiz summasidan 70% soliqqa tortiladigan bazadan chegirilib tashlanadi.

Aktsiya va obligatsiyalardan keladigan foyda soliqqa 28% stavkada tortiladi. Soliq deklaratsiyalari daromad olingan yil uchun keyingi yilning 31 yanvarigacha soliq organlariga tagdim etilishi shart.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va ish beruvchilar ishchilar xagidan ushlab golingan soliq summasini ko'rsatish uchun soliq ajratmalari kartochkasini olishi kerak. Bu muolajani ish beruvchi xar ikki oyda bajaradi. Oxirgi hisob-kitoblar keyingi soliq yilida-yuqorida aytib qtilgan kartochkalarda aks ettiriladi va soliq summasi to'lanadi. To'lanmagan summa esa qo'shimcha to'lovga kiritiladi.

QQSga tortiladigan faoliyat bilan shugullanuvchi korxonalar majburiy ravishda QQS to'lovchilarning Davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi shart, agar QQSga tortiladigan realizatsiya kilmagan tovar va xizmatlar oboroti 12 oylik davr mobaynida 30000 Norvegiya kronasi miqdorida to'lashi shart. Soliq organlari qsha korxonani ro'yxatga olishni muddatdan olishlari mumkin.

QQS tovar va xizmatlar realizatsiya oboroti va eksportga chiqarilgan tovarlardan 23% soliq stavkasida soliqqa tortiladi. Bir xil operatsiyalar QQS dan ozod qilingan. Masalan, moliya faoliyati bilan shugullanuvchi, sururta xizmatlari, ta'lim, meditsina xizmatlari bir xil professional va eksport xizmatlari. Kapital qo'yilmaga 7% stavka ishlab chiqarish jixozlariga QQS qrniga olinadi. Eng muxim soliq; turi bu korxonalar foydasiga solinadigan soliqdir.

Odatda Norvegiyada korxonalar ochish uchun aloxida ruxsat olish shart emas, lekin bir xil faoliyatlar uchun, masalan bank ishi va sug'rta albatta xokimiyatdan ruxsat olishlari shart. Xar bir faoliyatni amalga oshirish uchun xar bir yuridik shaxs, shu bilan birgalikda yakka tadbirkorlar Markaziy koordinatsiya Registorida va maxalliy soliq organidan ro'yxatdan o'tishlari lozim. Bu Qonun Norvegiya xududida bo'lgan chet el korxonalari va vakillarga ham tegishlidir.

Asosan aksioner kompaniyalar soliqqa tortiladi. Davlatlararo shartnomaga ko'ra Evropa hamjamiyatining ishtirokchilari aniq turdagi aksiyalar uchun ustav kapitalining minimal 50000 Norvegiya kronasi miqdorida belgilangan, ochiq turdagi aksionerlar uchun 1 mln. Norvegiya kronasidan iborat. Ustav kapitalining hammasi chet el kapitalidan shakllanishi mumkin, agar boshqaruv personalining 50%i oxirgi ikki yil davomida shu mamlakat soliq rezidentlari bo'lsa.

Aloxida faoliyat turlari, masalan, qishloq xo'jaligi va bir xil boshqa ishlab chiqarish faoliyati, rakobatbardosh, davlat tomonidan subsidiya qilingandir. Yakka tartibdagi korxonalarga eksport bilan shugullansa yordam beriladi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishni markazdan chiqarish va yirik shaxarlaridan mamlakatning ijtimoiy rayonlariga kqchirishni kengaytirgan xolda Qonunchilik organlari quyidagilarni shimoliy tumanlarda 0%ni, 14,1% gacha markaziy tumanlarda belgilab qo'yilgan.

Norvegiyaning soliq rezidenti bo'lib hisoblangan kompaniyalar to'liq hamma manbalaridan soliq to'lash majburiyatlariga ega. Norezident kompaniyalar faqat Norvegiyaning manbalaridan olingan daromaddan to'lashlari shart.

Kompaniya - soliq rezidenti bo'lib hisoblanadi, agar boshqaruvchisi yoki asosiy ofisi Norvegiya xududida bo'lsa. Korporatsiya soliq stavkasi 28% qilib belgilangan. Soliqqa tortiluvchi

foyda balansidagi foydadan ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari va Norvegiya soliq organlariga to'langan soliq summaları chegirib tashlangan summaga teng. Xar xil qiziqarli tadbirlarga o'tgazishga sarflangan xarajatlar soliq bazasidan chegirshpyaydi.

Amortizatsiya ajratmalari faqatgina 15000 Norvegiya kronasi va ishlatilishi uch yildan oshgan ishlab chiqarish aktivlariga qilinadi. Amortizatsiya ajratma summasi soliq bazasini kamaytiruvchi jadvalda ko'rsatilgan stavkalardan oshmasligi kerak.

Aktiv stavkalari bo'yicha amortizatsiya ajratmalari stavkalari.

Dividentlar ham, korporatsiyalar kabi soliqqa tortiladi. Aksionerlar to'lagan dividendlar ularni oluvchilardan ham soliqqa toritladi. Norvegiya rezidentlari bo'lgan aksionerlar to'liq soliq summasiga teng bo'lgan soliq kreditini olishga xaklidirlar. Norvegiya norezidenti yopik jamiyatlardan olingan daromadiga soliq krediti berilmaydi. Shuningdek ular dividendlariga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Ular 25% lik soliq stavkasida to'lab borishadi. Agar ular mamlakat rezidentlari bo'lsa va ikki yoklama soliq to'lamaslik to'g'risida shartnomasi bo'lsa, hisobdan chiqariladigan chiqimlar un yilga suriladi. Odatda chiqim juda qisqa muddat ichida bo'lishi mumkin emas.

Amortizatsiya stavkalari belgilanish tartibi

Aktivlar guruxlar	Amortizatsiya stavkasi (%)
1. Korxonalar jixozlari	30
2. Sotib olingan Qimmatbaxo buyumlar	30
3. Yuk tashish vositalari, avtobuslar	25
4. Engil mashina, jixozlar, ish kurollari	20
5. Dengiz yuk tashish vositalari	20
6. Xavo sudalari	12
7. Bino, restoran, mexmonxona	5
8. Ofis joylashgan bino	2

Kompaniya - soliq rezidenti bo'lib hisoblanadi, agar boshqaruvchisi yoki asosiy ofisi Norvegiya xududida bo'lsa. Korporatsiya soliq stavkasi 28% qilib belgilangan. Soliqqa tortiluvchi foyda balansidagi foydadan ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari va Norvegiya soliq organlariga to'langan soliq summaları chegirib tashlangan summaga teng. Xar xil qiziqarli tadbirlarga o'tgazishga sarflangan xarajatlar soliq bazasidan chegirilmaydi.

Amortizatsiya ajratmalari faqatgina 15000 Norvegiya kronasi va ishlatilishi uch yildan oshgan ishlab chiqarish aktivlariga qilinadi. Amortizatsiya ajratma summasi soliq bazasini kamaytiruvchi jadvalda ko'rsatilgan stavkalardan oshmasligi kerak.

Aktiv stavkalari bo'yicha amortizatsiya ajratmalari stavkalari.

Dividentlar ham, korporatsiyalar kabi soliqqa tortiladi. Aktsionerlar to'lagan dividendlar ularni oluvchilardan ham soliqqa tortiladi. Norvegiya rezidentlari bo'lgan aktsionerlar to'liq soliq summasiga teng bo'lgan soliq kreditini olishga xaklidirlar. Norvegiya norezidenti yopik jamiyatlardan olingan daromadiga soliq krediti berilmaydi. Shuningdek ular dividendlariga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Ular 25% lik soliq stavkasida to'lab borishadi. Agar ular mamlakat rezidentlari bo'lsa va ikki yoklama soliq to'lamaslik to'g'risida shartnomasi bo'lsa, hisobdan chiqariladigan chiqimlar un yilga suriladi. Odatda chiqim juda qisqa muddat ichida bo'lishi mumkin emas, kutilmagan chiqimlar keyingi 2 yil davomida daromaddan chegirilib tashlanadi. Ijtimoiy sug'rtada badallarini ish beruvchi 0%dan 14,1%gacha to'laydi, bu summa to'liq soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Shuningdek 656000 Norvegiya kronasidan oshgan daromadni beruvchi 10% soliq to'lashi kerak.

Chet el manbalaridan olingan daromadlar odatda shunday payt soliqqa tortiladiki kachonki solyk shartnomasi yo'q bo'lsa va Norvegiyadagi soliq manbai kam bo'lganida. Agar soliq shartnomasi yo'q bo'lsa, unda odatda soliq krediti berilmaydi. Chet el manbalaridan olingan daromad xuddi korporatsiyalarday soliqqa tortiladi.

Korporatsiya daromadlari bo'yicha soliq deklaratsiyasini soliq summasini tasdiqlatgan xolda soliq organlariga hisobot yilning 28 fevralidan kechiktirmay topshirishlari shart. Soliqlar xar kvartalda to'lanadi, avans to'lovlar tartibida olingan daromaddan hisoblangan xolda oldingi soliq yilida olingan va bir xil miqdorda ikki marta nakd pulsiz shaklida o'tgazib beriladi (15 fevral va 15 aprelda). Kolgan ikki to'lov topshirigi (15 sentyabr va 15 noyabrda) utgan kvartalda olingan daromad hisoblanib qkaziladi. Meros yoki xadya jarayonida o'tuvchi mol-mulk 18%dan 30% gacha o'zgaradi va bu mulkning qiymati va karindoshlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Utadigan mol-mulk birini 100000 Norvegiya kronasilik kismi soliqdan ozod qilingan. Agar xadya kiluvchi qlgan inson doimiy Norvegiya soliq rezidenti bo'lsa, u xolda soliq Norvegiya va Norvegiyadan tashqarida joylashgan mulkdan to'lanadi.

Chet ellik jismoniy shaxs Norvegiyada bir necha yildan beri joylashsa, u xolda faqat mamlakada joylashgan aktivlarga soliq to'laydi. Agar chet ellik Norvegiyaning doimiy rezidenti bo'lsa, u xolda uning mulki etnografik joylashuvidan kat'iy nazar soliqqa tortiladi.

Barcha jismoniy va yuridik shaxslar xar yili kapital aktivlarning xaqikiy qiymatidan kelib chikib soliq to'lashga majbur. Birok aktsioner jamiyatlar bu soliqni to'lashdan ozod, jismoniy shaxslar, rezidentlar, Norvegiyada, shuningdek, undan tashqarida ham mol-mulk SOLIG'INI to'laydi,

norezidentlar faqatgina «0» dan 1,5% ga o'zgargan stavka bo'yicha to'lanadi. Agar mol-mulk solig'i summasi umumiy soliqqa tortiladigan foydaning 65%idan oshib ketsa, u xolda soliq stavkasi pasaytirilishi mumkin, agar sof aktivlar qiymati 1 mln. Norvegiya kronasidan oshsa imtiyozli stavka 0,6% faqat 1 mln. dan oshgan aktiv kismiga kullaniladi.

To'langan mol-mulk solig'i soliq solish bazasiga kamaytirilmaydi. Er kuchatlari sotib olishdan 2,5% davlat boji to'lanadi.

Maxsus soliq bilan gaz va neft kompaniyalari tortiladi. Duxi, spirt, benzin tovarlarini sotishdan soliq 70% dan ko'p bo'lmagan miktsorda belgilab qo'yilgan.

4. Shvetsiya mamlakati soliq tizimining uziga xos xususiyati.

90 yillarning boshlariga kelib Shvetsiya mamlakati jaxon mikiyosida YaIM ulushi, hamda soliq stavkalari yuqoriligi, soliq imtiyozlarining kamligi bilan dunyo bo'yicha eng yuqori qrshshi egallab kelayotgan edi. Shunday xollar ham mavjud bo'lganki soliq to'lovchining umumiy daromadi barcha mol—mulk va daromad solig'idan. kam chiqardi, itstisodiy qsishning sustlashishi jaxon bozorlarida Shved mamlakatiga nisbatan ratsobat va talabning tushib ketishi, investitsiyalar okimining tsistsarishi va bir qator^ ishlab—chatsarish soxalarining mamlakat tashtsarisiga chikib ketishi munosabati bilan Davlat boshqaruv Xokimiyati tomonidan soliq isloxoti o'tgazildi. Isloxot masalalari tsuyidagilardan iborat edi:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi pasaytirildi.

2. Korxonalar va axolidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tsqshimcha soliq imtiyozlari yaratildi.

3. Soliq tamoyillaridan adolatlilik tamoyilini tiklashga katta e'tibor karatildi.

Byudjstning uchdan ikki qismini egri soliqlar tashkil etadi, 20 foizini to'g'ri soliqlar tashkil etadi, qolgan qismini ijtimoiy sugurtaga tashkil etadi.

Shvetsiya byudjeti ikki poropali byudjetdan iborat, ya'ni:

- umumdavlat byudjeti;
- maxalliy byudjet.

Shvetsiya umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- axolidan olinadigan. daromad solig'i,
- korporatsiyalar foydasiga soliq,
- qo'shilgap qiymat solig'i, va boshqalar.

Shvetsiya maxalliy soliqlari tarkibiga quyidagilar kiradi: mol—mulk solig'i, meros va ssjga solig'i, gerb yirimi (bu soliq kichik soliqlar turiga kirada).

Shvetsiya Parlamenti, Shvetsiya mamlakatining soliq to'rlarini o'rnatuvchi va bekor tsiluvchi Oliy organ bo'lib koldi. Shvetsiya Davlat byudjetini Moliya vazirligi nazorat qiladi.

Korporatsiyalar foydasiga soltrshng o'ziga xos xususiyati.

Korporatsiyalar daromadiga soliq aksionerlik jamiyatari, kooperativlar va 'Shvetsiyada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanuvchi xorijiy kompaniyalar soliqqa tortiladi. Yirik korxonalar bo'lib aktivlari 35 million kronadan yuqori O'sha ishchilar soni 200 kishidan ortits bo'lgan korxonalar -hisoblanadi. Ularning soliq stavkasi 28 % qilib belgilangan.

Aksionerlik kompaniyalari uchun eng oz kapital miqdori 50 million kronadan past bo'lmasligi lozim. Kichik va o'rta biznes bilan shug'illanuvchi korxonalarda soliq stavtsi 10% qilib belgilangan.Rezident korxonalardan olingan daromad summasi Shvetsiyadan tashqarida bo'lsa umumiy tartib asosida soli^a tortiladi. Kolgan barcha korxonalar, shu jumladan qo'shma korxonalar, xorijiy kompaniyalar umumiy tartib asosida soliqqa tortiladi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib yalpi daromad hisoblanadi.

Yalpi daromaddan. tsuyidagi chegirmalar mavjud:

1. g'llangan ishchilarning ish xatstsi;
2. Material va xom—ashyo xarajatlari.

Yangi tashkil etilgan korxonalar birinchi yili solixda tortilmaydi. hisobot muddati bir yil qilib belgilangan, bunda hisobotni 1chi yanvar, 1chi mart, 1chi may, 1chi iyul, 1chi sentyabr,dan boshlanishi mumkin. Daromad solig'idan avans to'lovlari 18 yanvar, 18 mart, 18 may, 18 iyul, 18 sentyabr va 18 dekabrgacha to'lab borilishi shart.

Agar korxonalar soliq deklaratsiyasini vatstida taqdim etmasa 1000—4000 krona gacha jarimas olinadi. Avans to'lovlari o'z vaqtida tu^anmasa to'lanishi lozim bo'lgan summaning 2%ni, keyingi marotaba ham to'lanmasa 4%—6% miqdorida jarima to'lanadi. Jarima sanktsiyalari oyiga 1 %dan tsqshilib boriladi.

Jismoniy shaxslardfn undiriladitn daromad solig'ining ahamiyati.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 3 manba asosida solshdea tortiladi:

1. g'llangan ishchilarning ish—xatstsi;
2. Tijorat faoliyati bilan shug'illanuvchilarning olgan daromadlari;
3. Kapitaldan olingan daromadlar.

Jimsoniy shaxslar yollangan ish bo'yicha va tijorat faoliyatidan daromad olayotgan bo'lsa 11000 krona soliqqa tortilmaydigan minymumi belgilangan. Ushbu shaxslarning yillik daromadi 200000X kronadan yuqori bo'lsa 20000 kronagacha chegirma belgilangan.

Tijorat faoliyati bilan shurillanuvchilarning yillik daromadi 230000 kronadan oshsa oshgan qismi 25%li soliq stavkasi. asosida soliqqa tortiladi. Progressiv shkala asosida soliqda tortilib 10%dan 25%gacha differentsiyalashgan.

Kapitaldan olinadigan daromadlari 25%li stavka asosida solsh^a tortiladi. Ijodiy kasb bilan shug'illanuvchilar, sportsmenlar, xorijiy sportsmenlar ham, Shvetsiyadagi daromadi bo'yicha

yagona 15%li stakaa asosida soliqqa tortiladi. Soliq to'lovchilar uchun hisobot yili qilib 1 yil belgilangan va deklaratsiyalar keyingi yilning 15 fevraligacha taqdim etilish shart.

Tijorat faoliyati bilan shug'illanuvchilarning bu muddati 31 martgacha cho'zilgan. Norezidentlar yollangan mexnati bo'yicha ish xatsi va pensiya olayotgan bo'lsa deklaratsiya tqldirilmaydi. Soliq deklaratsiyasi o'z vatstida takdim etilmasa 500—2000 kronagacha jarima solinadi.

Daromad yashirilganda yoki kamaytirilib ko'rsatilgan va imtiyozlardan notsonuniy noto'g'ri foydalanilganda jarima sanksiyasi ham belgilangan. Ijtimoiy sururtaga ajratmalar ishga yollovchi tomonidan ishchining umumiy ish xaqi summasidan 33% m^dorida byudjetga o'tgaziladi. Norezidentlar ham agar mexnat shartnomalrida aks xolati ko'rsatilmagan bo'lsa, ijtimoiy sug'rta ajratmalarini to'laydilar.

Shvetsiya mamlashtida yollanma ishchilarning ish—xaqiga nisbatan belgilangan. ustamalar

24-jadval

№	Ustama xak turlari	Ish-xaqiga nisbatan % da
1.	Nafaka ta'minotiga	13%
2.	Medsina sug'rtasiga	8,8%
3.	Xalk nafakasiga (mexnat staji etmaganlarni ta'minlash uchun)	5,8%
4.	Nafaka sug'rtasiga	0,2%
5.	Ishlab-chiqarish jarayonida travma olinsa	1,3%
6.	Xodimlarning pepreventiv ximoyasi uchun	0,2%
7.	Ishsizlik nafakalarini tulashga, ishini yukotganlarning malakasini oshirishni moliyalashtirishga	2,1%
8.	Bankrot bulgan korxonalarda ish xaqini kafolatlash uchun	0,2%
9.	Xayotni sug'rtalash	0,6%
10.	Guruxli sug'rta	0,9%
11.	Ishdan bushagan xoldagi shaxslarga nafaka	0,3%
12.	Kushimcha nafaka	3,1%
13.	Travmadan sug'rtaga	1,0%
14.	Nafaka tulovlariga soliq	0,6%
15.	Kafolat fondiga	0,06%

Shvetsiyada maxalliy va egri soliqlarning (o'ziga xosligi) tarkibi.

Maxalliy soliqlar ham maxalliy byudjet daromadlarining 90%ni tashkil etadi. Maxalliy byudjetlar 2 pogonadan, daromadlari 2 tsismdan iborat:

1. LENlar soliqlari^{1)*}

2. Kommuna soliqlari.

Shvetsiyada 24 LEN va 284 kommuna tashkil topgan. (24ta byudjetni maxsus boshqar). Maxalliy soliqlarning asosiy soliqlaridan biri meros va sovgaga soliq hisoblanadi. Rezidentlar ushbu soliqni to'lashdamol— mulxning qiymatiga qarab va karindoshlik jixatlarining yaxinlik darajasiga qarab progressiv shkala asosida solshdea tortiladi. (er—xotin ajrashsa mol—mulk qoldirilsa soliqqa tortilmaydi).

Mol—mulk solig'i mulkning qiymatiga qarab belgilanadi:

- rezidentlar uchun 800000 kronadan yuqori baxolangan mol—mulklar uchun shvetsiya xududida yoki uning tashtsarisida joylashganidan. kat'iy nazar 1,5%li stavka asosida soliqqa tortiladi.

- Norezidentlar uchun faqat Shvetsiyada joylashgan mol— mulklar

1 %li soliq stavkasi asosida soliqqa tortiladi. Aylanma kapitalni tashkil etadigan mulklar soliqqa tortilmaydi.

Xar—xil fond va xayriya tashkilotlarning mulki 25000 Shved kronasidan yuqori bo'lsa 0,15%li stavka miqdorida soliqqa tortiladi. Ko'chmas mulkga soliq. Ishlab chiqarish va tijorat ko'chmas mulkdan tashtsarilari xususiy mulk bo'lib hisoblanagan kuchmas mulk[^]ob'ektlari soliqqa tortiladi. Soliq bazsi bo'lib ob'ektlar kadastr baxosi belgilab tsvyilgan. bozor narxidan 75%ni tashkil etadi. Soliq stavshsi o'z uyi uchun 1,7%, kvartiralar uchun 2,5%ni tashkil qiladi.

Gerb yigimi—xar xil bitim. va operatsiyalar ramiylashtirilganda undiriladi. Ko'chmas mulk olib sotilganda gerb yigimi 1,5%—3%ni tashkil qiladi, brinchi aktsiyalar chiqarilishida 2%ni tashkil etadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilan tadbirkorlik maqsadida Shvetsiyada amalga oshirilayotgan tovar va xarajatlarning realizatsiyasiga. nisbatan soliqqa tortiladi. Yillik oboroti 1 million Shved kronasidan yuqori bo'lgan korxonalar

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lib hisoblanadi. Soliq to'lovchilar o'zlarining deklaratsiyasida daromad solig'ini hisoblash uchun, Qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham ko'rsatib o'tishlari lozim. Import operatsiyalari Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Eksport ayaeratsiyalari Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etilgan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar xorijiy kompaniyalar odatiy xolda Qo'shilgai. qiymat solig'ini to'laydilar. Qo'shilgan. qiymat solig'i bo'yicha quyidagi soliq stavkalari belgilantn:

- o'rtacha stavkasi 25%, shmaytirilgan stavkasi 12% — ozits—ovtsat maxsulotlari, turizm xizmatlari uchun belgilangan;

- quyi stavka 6% qilib belgilangan — davriy nashriyot gazea va jurnallarga nisbatan belgilangan;

- eng yuqori stavka 32% qilib belgilangan bo'lib, Qimmatbaxo buyumlarga nisbatan. (zargarlik. Mqyna va boshqalar) belgilangan. Qo'shilgan. qiymat solig'ining hisobot davri bo'lib 2 oy belgilangan. Deklaratsiyasi esa hisobot davri tugagandan so'ng 35 kundan kechiktirilmasdan taqdim etilishi lozim. Katta oborotga ega bo'lmagan kichik korxonalar, xususiy firmalar uchun hisobot davri 1 oy ktlb belgilangan. Deklaratsiya kechiktirilib taqdim etilganda 1000 krona miqdorida jarima solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i kamaytirilib ko'rsatilganda kamaytirilib ko'rsatilgan summadan 20% miqdorida jarima solinadi.

Aktsiz solig'i spirtly ichimliklar, tamaki maxsulotlari, pivo ichimligiga solinadi.

Tayanch so'z va iboralar.

Meros va hadya solig'i

Soliq agentligi

Soliq modeli

Soliq vektori

Muntazam daromad

Nomuntazam daromad

Ijtimoiy sug'urta solig'i

Ihtiyoriy ravishda beriladigan dekloratsiya

Informativ dekloratsiya

Maxsus dekloratsiya

Gerb yig'imi

Ko'chmas mulkka soliq

Soliq islohati

Soliq rezidenti

Imtiyozli kredit

Soliq krediti

Progressiv stavka

Iste'mol krediti

Munitsipal soliq

Subsidiya

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Ispanyaning soliq tizimi qanday darajalardan iborat? .
2. Soliq agentligi nima?
3. Fo'qorolardan olinadigan daromad solig'ining soliqqa torignig bazasiga nimalar kiritiladi?
4. QQSni qo'llanish xususiyatlarini aytib bering.
5. Mintaqaviy soliqlar strukturasi qanday?
6. Ispaniya soliq tizimida deklaratsiyalarning qanday turlari mavjud?
7. Qimor biznesining qaysi turlari soliqqa tortiladi?
8. Shvetsiyada mahalliy byudjet qanday shakllantiriladi?
9. Shvetsiyada mol-mulk solig'i qanday belgilanadi?
10. Gerb yig'imi nima?
11. Shvetsiyada yollanma ishchilarning ish haqiga nisbatan belgilangan ustamalarni aytib bering.
12. Shvetsiyada QQS qanday hisoblanadi?
13. Korporatsiyalar foydasiga soliq qanday hisoblanadi?
14. Finlyandiya korporativ soliq qanday daromadlarga solinadi?
15. Finlyandiya dividendlarni soliqqa tortish qanday amalga oshiriladi?
16. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmasi qanday hisoblanadi?
17. Finlyandiya jismoniy shaxslarni soliqqa tortish qanday amalga oshiriladi?
18. Finlyandiya munitsipal soliqlar haqida axbort bering.
19. Norvegiya kimlarga soliqlardan butunlay ozod bo'lish kafolatlanadi?
20. Munitsipal soliq stavkalarini aytib bering.
21. Ijtimoiy sug'urta fondiga to'lanadigan badallar haqida so'zlang.
22. Norvegiya jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tartibi qanday?
23. Norvegiya QQS ning stavkasi, ob'ekti, imtiyozlari haqida so'zlang.
24. Korxonalar foydasiga solinadigan soliq hiqida so'zlang.
- 25. Ishlab chiqarish aktivlariga amortizatsiya qanday hisoblanadi?**

Foydalanilgan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar: 2,5,8,9

Qo'shimcha adabiyotlar: 1,2,5,7,11,13

16-mavzu: Rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimi tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlari (4 soat)

Reja:

1. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda soliq siyosatining muhim jihatlari.
2. Rivojlangan xorijiy davlatlarining soliq tizimida soliq yukini kamaytirish masalalari.
3. Bilvosita soliqlar turkumiga kiruvchi oborot solig'ini undirish tartibi.
4. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda aktsiz solig'ining qo'llanilishi va ularning tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.

1. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda soliq siyosatining muhim jihatlari.

Soliqlar — bozor iqtisodiyotining eng muhim vositasi bo'lgani uchun ham g'arbdagi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar xo'jaliklarini boshqarishda ulardan foydalanish tajribasi Biz uchun ham qiziqarlidir. Yangi soliqlar joriy etib, qaysidir oldingi soliqlar va yig'imlarni bekor qilib, stavkalarni oshirib yoki pasaytirib, boshqa vositalardan foydalanib, davlat, faqat o'z milliy byudjetniy shakllantirmaydi, balki jamiyatda tegishli iqtisodiy, axloqiy va siyosiy vaziyatni, fuqarolarning mehnat faolligini rag'batlantiruvchi muhit yaratadi va mana shu ma'noda soliqlar mamlakatning farovonlikka erishishi uchun zamin yoki bu yo'lda unga to'siq xizmatini o'tashi mumkin.

Jahondagi ayrim mamlakatlarning soliq tizimi turli sharoitlarda shakllangan. Faqat XX asr o'rtalaridagina soliq solish tizimi rivojlanishda urushdan so'nggi iqtisodiy isyaohotlar bilan bog'liq bo'lgan umumiy qonuniyatlar paido bo'la boshladi. Yuqori darajadagi davlat xarajatlari o'sha vaqtlarda tabiiy suratda katta hajmdagi soliqlarni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, hatto Evropa Mamlakatlari Hamdo'stligida (EMH) ham soliq solishning juda ham murakkab va ko'pqirrali tizimlari amadtsa qo'llanilgan bo'lib, soliqlarning ahamiyatligi turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Frantsiyada bilvosita soliqlarning byudjet daromadlaridagi hissasi 62,7%ni, Niderlandiyada esa faqat 41,3%ni tashkil qiladi.

Shuni aytish kerakki, davlat moliyaviy resurslarini markaziy va mahalliy organlar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmi, hokimiyatning har bir darajasi ixtiyoridagi soliq ko'lamlari, ularning bajarayotgan vazifalari va avtonomiya tamoyillari mamlakatning konstitutsiey tuzilishiga qarab belgilanadi. Mamlakatlarda hokimiyatning tabaqalanishiga qarab soliq tizimi ham ikki yoki uch pogonali bo'lishi mumkin. Masalan, federatsiyalarga bo'lingan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Kanadada) soliq siyosati uch pog'onada — federal organlar, regional organlar (shtatlar, departa-mentlar, zaminlar va shu kabilar) darajasida, va hokimiyatning mahalliy organlari (munitsipalitet, grafliklar, kommunalar va boshqalar) darajasida amalga oshiriladi.

Federativ bo'linmalarga ega bo'lmagan davlatlar (Frantsiya, Yaponiya va shu kabilar)da umumdavlat va mahalliy soliq'larga asoslangan ikki pog'onali soliq tizimi mavjud.

O'zbekiston Respublikasida umumdavlat va mahalliy byudjet'larga asoslangan ikki pog'onali davlat byudjeti tizimi shakllangan. Respublika faoliyatining bozor munosabatlari sharoitida soliqlar, yig'imlar va byudjetning boshqa daromad manbalarini boshqarish tizimi o'zgarmoqda. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi qonuniy aktlar qabo'l qilinishi bilan hokimiyatning mahalliy organlarini moliyaviy ta'minlash muammosi, ayniqsa, alohida qiziqish uyg'otadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tegishli hududiy birliklar (shaharlar, tumanlar, grafliklar, shtatlar, erlar va shu kabilar) muhim rol o'ynaydi. Mahalliy byudjetlardan transport, suv va gaz ta'minotini rivojlantirishga, maktablar, kasalxonalar, ijtimoiy infrato'zilmalar va qator boshqa ob'ektlar qurilishiga pul ajratiladi. Shaharlarni qayta qurish, yo'llar va parklarni obodonlashtirishga, kommunal va joriy qurilishlarga sarflangan xarajatlar qoplanadi. Bundan tashqari, mahalliy ma'muriyat organlari, politsiya va sud ham mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiriladi.

Hukumat mahalliy organlari byudjetining daromad qismi asosan soliq tushumidan (Yaponiyada 30%, Frantsiyada 54%, AQShda 65%) va shuningdek, markaziy byudjetlar subsidiyalari va dotatsiyalardan tashkil topadi. Masalan, AQShda shtat byudjetdan hokimiyat mahalliy organlariga tushadigan subsidiyalar ular daromadlarining 33%ni, federal baddjetdan tushadigan dotatsiyalar 7%ni tashkil qiladi. GFR zaminlari (zemellari) daromadlarining umumiy summasida davlat subsidiyalari 26%ni tashkil qiladi. Frantsiyada markaziy byudjetdan keladigan pullar hokimiyat mahalliy organlari daromadlarining taxminan 30%ni ta'minlaydi.

2. Rivojlangan xorijiy davlatlarining soliq tizimida soliq yukini kamaytirish masalalari.

Xorijiy davlatlarning aksariyati uchun to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita mahalliy soliq'larning ko'pligi (umuman mamlakatlar bo'yicha 100 turgacha) o'ziga xos xususiyatdir. Faqatgina Buyuk Britaniyada mahalliy byudjetlar daromadiga soliqlar kelib tushishi manbai bittagina soliq, — jon boshiga solinadigan soliqdir. Jon boshiga solinadigan soliq — yagona universal soliq bo'lib, uni 18 yoshga etgan barcha fuqaro to'laydi. Aslida bu munitsipalitetlar darajasidagi daromad solig'idir. U xazinaga tushadigan daromadning uchdan birini beradi.

Mahalliy soliq solish tizimi xilma-xil bo'lishi bilan birga, bizning davlatimizda ham asoslangan o'ziga xos soliq siyosatini amalga oshirish uchun imkoniyat beruvchi bir qator soliq'larni mavjud. Bo'lar huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq'larni (AQSh, GFR va Frantsiyadagi jismoniy shaxslardan va korporatsiyalardan olinadigan daromad soliq'lari, Buyuk

Britaniyadagi jon boshidan olinadigan soliq, merosdan olinadigan soliq), mol-mulkdan va erdan olinadigan soliqlar (AQShdagi mol-mulkdan olinadigan soliq, GFR va Frantsiyadagi er solig'i; qurilishlardan olinadigan er solig'i va Frantsiyadaga uy-joy solig'i), resurslardan olinadigan soliqlar (bizda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq), tovarlar qiymatlariga qo'yiladigan soliqlar (AQShda tovar sotishdan olinadigan soliq; GFR va Frantsiyadagi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS); benzin, tamaki, spirtli ichimliklar narxlariga qo'shiladigan aktsizlar), turli xil yig'imlar va to'lovlar (avtomobil uchun, mashinalarni bo'yash uchun, restoranlar, ko'ngilochar tomoshalar uchun, ovchilik, atrof muhitni muhofaza qilish uchun, itlar uchun, turli xil litsenziyalar va hujjatlar berish uchun) kabi soliqlar ana shu soliqlar jumlasidandir.

Mahalliy organlar avtonomiyasi moliyaviy asosini mulkdan olinadigan soliq tashkil etadi. Ularni yig'ish va olingan mablag'larni sarflash faqat mahalliy darajada amalga oshiriladi. Bu soliqlar solinadigan ob'ektlarga quyidagilar kiradi: er, qurilishlar (sanoat va uy-joy qurilishlari) va ko'chmas mulkning boshqa turlaridir. Soliq solishning manbai deyarli barcha mamlakatlarda **mulkning baho qiymatidir**. Mulkdan olinadigan soliqni undirish yoki soliq olmaslik o'zini-o'zi boshqaruvchi mahalliy organlar qonunchiligi bo'yicha amalga oshuvi sababli, soliqning stavkalari turlicha bo'ladi va mulk qiymatiga qarab foizlarda, shuningdek, mulk qiymati birligidan qat'iy miqdor sifatida belgilanadi. Mulk kamdan-kam qayta baholanishi (o'rtacha 10 yilda 1 marta) munosabati bilan ham mulkka solinadigan soliq moliyaviy siyosatning o'ziga xos asosiy quroli emas.

Hokimiyatning mahalliy organlari darajasida eng fiskal ahamiyatga ega soliq — savdodan olinadigan soliqdir. Masalan, AQShda mahalliy hokimiyatlarning barcha soliq tushumlaridan taxminan 32%i soliqning ushbu turiga to'g'ri keladi. Soliqni yig'ish shtatlar darajasida 3%dan 7%gacha stavkada amalga oshiriladi. AQSh qonunchiligi bo'yicha savdo soliqlari ob'ekti faqatgina tovar aylanishining har bir bosqichida olingan yalpi pul emas, balki aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha tushgan pul hamdir. Bu esa xizmat ko'rsatish sohasi o'sishi sharoitida shtatlar va munitsipalitetlarning soliq solish bazalarini birmuncha kengaytiradi.

AQSh munitsipalitetlari joylashgan shtatning qonunlari tomonidan ijozat berilganda, ular chakana savdolarga ham o'z soliqlarini belgilashlari mumkin. Sharb mutaxassislarining fikricha, har bir darajadagi soliqlar tizimlarining shakllanishi o'z soliqlarini kiritish yo'li bilan ham, birgalikda olinadigan soliqlarni bo'lish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Masalan, GFRda amaldagi qonunda federatsiya va jamoalar darajasida bir xil soliqlarni olishga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni joylarda faqat federal byudjetga o'xshash bo'lmagan soliqlar olinishi mumkin.

Bir qator mamlakatlarda mahalliy soliqlar markaziy hukumat soliqlariga qo'shimcha soliqlar sifatida solinadi. Ular hokimiyatning mahalliy organlari hududlarida yig'iladigan davlat soliqlariga ma'lum foizda belgilanadi. Masalan, Italiyada mahalliy byudjetlarga er va qishloq xo'jaligi

solliqlari bo'yicha yig'implarning bir qismigina tushadi. AQSh, GFR va Frantsiyada mahalliy organ hokimiyatiga daromad solig'ini (jismoniy shaxs va kompaniyalardan) yig'ish va qo'shilgan qiymat solig'ini (GFR va Frantsiyada) yig'ish vazifasi yuklatilgan, shu bilan birga yig'ilgan pullarni davlat byudjetiga topshirishda moliya mablag'larining ma'lum foizi joylarda qoldiriladi va ulardan mahalliy muammolarni hal etish uchun foydalaniladi.

Keyingi yillarda jahondagi rivojlangan mamlakatlarda hokimiyatning ish yuritishida mahalliy organlarning roli ancha oshganligi va bu turli qonunlarda o'z aksini topganligi ma'lum. Masalan, Amerika federatsiyasi, shtatlar federal hokimiyatlarining va hokimiyat mahalliy organlarining faoliyat doiralarini keskin ravishda chegaralash printsiptiga asoslanadi. Hokimiyat mahalliy organlari AQShda soliq-byudjet siyosatini yurgizishda mustaqil bo'lib, soliqlar va yig'implar joriy etish bo'yicha keng huqukdarga egadirlar. Mahalliy byudjetlar federal byudjet tarkibiga kirmaydi va mamlakatda yagona umumdavlat byudjeti yo'q. g'arb mamlakatlaridagi mahalliy hokimiyatlar, mahalliy soliq siyosati davlatning moliya siyosatiga qarshi bormaydi. Aksincha, mahalliy boshqaruv organlari mustaqilligining kengayishi, mamlakat moliya tizimining ravnaqi yo'lida xizmat qiladi, markaziy byudjet mablag'larini boshqa tomonga tortmasdan regional va mahalliy darajadagi iqtisodiy muammolarni hal etish imkonini beradi.

Federal soliqlar — federal byudjetlarning daromad manbaidir. Federal byudjeti — bu davlat to'zumining federativ shakliga ega bo'lgan davlatlardagi markaziy hukumat byudjetidir. Federativ davlatning byudjet sistemasi uch qismga ega: federal byudjeti, federatsiya planlari byudjeti (AQShda — shtatlar, GFRda erlar, Kanadada — provintsiyalar, Shvetsariyada — kantonlar) va mahalliy hokimiyat organlari byudjetlaridan iboratdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, byudjet tizimining barcha bo'limlari rasmiy jihatdan mustaqil va ular federal byudjetga kirmaydi. Federal byudjetga eng muhim daromadlar va xarajatlar birlashtirib qo'yiladi.

Masalan, AQShda federal byudjet daromadlariga eng muhim to'g'ridan-to'g'ri soliqlar (shaxsiy daromad solig'i, korporatsiyalarning foydalariga solinadigan soliq, ijtimoiy sug'urtaga solinadigan badallar, meroslardan va tortiqlardan olinadigan soliqlar), bir qator bilvosita soliqlar (spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, benzin, bojxona to'lovlaridan olinadigan soliqlar) kiradi. GFRda federal byudjet daromadlariga bir qator yirik soliqlar kiradi, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri soliqlar tarkibida — ish haqiga solinadigan soliq (40%dan ko'proq), korporatsiya solig'i (50%), bilvosita soliqlar — qo'shilgan qiymat solig'i (66—67%), import oborotidan olinadigan soliqlar bor. Bundan tashqari, federal byudjetga 10 dan ortiq individual aktsizlar to'liq birlashtirilgan bo'lib, ularning eng muhimlari — tamakiga, yoqilg'iga, vinoga, kofega, qandga soliqlar, bojxona to'lovlari va ba'zi bir boshqa soliqlardir.

Jahonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida eng ko'p tarqalgan ayrim soliqlarga qisqacha tavsif beramiz.

Qo'shilgan qiymat solig'i — Evropa Iqtisodiy Ittifoqi mamlakatlarida, shuningdek, Shvetsiyada, Avstriyada va jahondagi iqtisodiy rivojlangan ba'zi bir boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan tovar va xizmat ko'rsatish uchun solinadigan bilvosita soliqlardan iboratdir. Bu soliq turi birinchi bo'lib 1954 yilda Frantsiyada amalga kiritilgan. 70-yillarning o'rtalaridan boshlab esa, Evropa iqtisodiy birlashmasi a'zolari bo'lgan mamlakatlarda soliq solishning ajralmas qismi bo'lib qoladi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq bazasi — tovar ishlab chiqarish va uni sotishning har bir bosqichida qo'shilgan qiymatdir. Soliq solinadigan ob'ektda tovarlarni sotishdan yoki ko'rsatilgan xizmatdan tushgan pulning hammasi emas, balki tovar ishlab chiqarishda va uni sotishdagi har bir bosqichga qo'shilgan qiymatgina (maosh, unga qo'shib yozilgan ustama, amortizatsiya, foyda) kiritiladi. Soliq stavkasi sotilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarning (oldingi bo'g'inda to'langan soliq bunga kirmaydi), umumiy qiymatidan olinadigan soliqqa tengdir. Byudjetga muntazam ravishda mablag' kelib tushishi natijasida va qo'shilgan qiymat solig'ining universalligi — eng samarali fiskal qurollardan biri. Uning hissasiga Frantsiyadagi birinchi bilvosita soliqlarning 80%ga yaqini, Buyuk Britaniya va GFRda esa 50%dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu soliqning keng tarqalganligiga sabab, inflyatsiya sharoitida byudjetga mablag'larni jalb etilishining nisbatan yuksak samaradorligi va ishlab chiqarishni nazorat qilish uchun foydalanish, shuningdek, narxlarni, investitsiyalarni tartibga solish imkoniyati kengligidir. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiyotni tartibga solish va g'arbiy Evropa mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasi vositasidir. Davlat eksportini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilib, uni rag'batlantirish esa ayni muddaodir.

Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i — bilvosita soliqning milliy tizimini bir shaklga keltirish (Rim shartnomasiga asosan) va Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligi mamlakatlari byudjetining yagona daromad bazasini yaratish maqsadida qo'llaniladi. EIHning asosiy daromad manbai 1975 yildan beri qo'shilgan qiymat solig'idan — a'zo mamlakatlar har biri yig'imining 1% miqdorida (1986 yildan boshlab 1,4% miqdorida) tushgan mablag'dir. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'la-to'kis bir shaklga keltirishga EIH a'zolari bo'lgan turli mamlakatlardagi joriy stavkalar darajasi bir xil emasligi va imtiyozlar tizimi turlicha bo'lganligi to'sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i hamdo'stlik mamlakatlari soliq siyosatini uyg'unlashtirish namunalari biri sifatida misol bo'lishi mumkin. 1991 yilning yozida deyarli barcha EIH a'zolari (Buyuk Britaniya bundan mustasno) QQSning minimal normativ stavkasini 15% etib belgilash zarurligiga rozilik bildirdilar. Bu vaqtga qadar QQSning tavsiya qilingan stavkasi 9-19% oralig'ida (pasaytirilganligi 4—9%) belgilangan. Biroq, bizningcha, QQS stavkalari kattaligi masalasi bo'yicha yakdil kelishuvga erishilganiga qaramasdan, uyg'unlashuv jarayoni haqida gapirishga hali erta. Ijtimoiy jihatdan boshqa bilvosita soliqlarga nisbatan diapazoni kengligi va yuqori stavkalari bilan (agar Buyuk Britaniyada va Ispaniyada QQSning normal stavkasi 15%, GFRda 14%ni tashkil qilsa, Frantsiyada stavka 18.6%, Italiyada 19%, Daniyada esa

hatto 25%ni tashkil qiladi) aholi turmush darajasining oshuviga olib kelmoqda deyish mumkin. Xuddi mana shunday jarayonlar, shunga o'xshash soliqlardan keng foydalanayotgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida (shu jumladan, O'zbekistonda ham) ayniqsa sezilarli bo'lmokda.

Pul kapitallaridan olinadigan daromadlarga solinadigan soliqlar ba'zi rivojlangan mamlakatlarda, masalan, Avstriya, Kanada, Ispaniya va Frantsiyada mavjud. Bunday soliqlar dividendlarga, aktsiya va obligatsiyalardan olinadigan foizlarga, bankka qo'yilgan pullardan olinadigan foizlarga, zayomlardan olingan yutuqlarga va ba'zi boshqa daromadlarga solinadi.

Korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliq ob'ekti soliq qonunchiligi tomonidan belgilangan chegirmalardan tashqari kompaniyalarning yalpi foydalariga tengdir. Chegirmalarga — ishlab chiqarish, tijorat, transportga oid xarajatlar, qarzlarni bo'yicha foizlar, zararlar, reklama, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, shuningdek, dividendlar kiradi.

Qonunlarga muvofiq turli xil imtiyozlar va chegirmalar beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha oldin to'langan soliqlarni qaytarib berish, soliq qarzlarni bekor kdlash, soliq to'lovchilarning ayrim guruhlarini soliqdan ozod qilish ko'zda tutiladi. Soliq solinishida yirik monopoliyalar katta imtiyozlarga egadirlar. Aktsiyadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, bank monopoliyalarining daromadlaridan oladigan chegirma va siyovlarning umumiy miqdori 40—60%ga etadi. Kompaniyalar uchun, ularni foydadan undiriladigan soliqlardan ozod qiluvchi bir qator imtiyozlar mavjud: foyda hisobiga turli xil soliqdan ozod qilinuvchi fondlar (rezerv fondlari, nafaqa va xayriya fondlari va boshqa fondlar) tashkil qilish; ishga oid chiqimlarni daromadlar hisobidan chiqarish; menejerlarga yuqori maoshlar to'lash; aktivlarni qayta baholash; foydani imtiyozli soliq rejimiga muvofiq boshqa mamlakatlarga o'tkazish va boshqalar.

Natijada korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliqlar nisbatan qisqarish mayliga ega. Keyingi 20 yil ichida AQSh markaziy hukumatining byudjeti daromadlarida bu soliqlarning salmog'i 21,8%dan 9,9%ga, Buyuk Britaniyada esa 11,9%dan 6,2%ga pasaydi.

Eng muhim vositalardan biri dividendlar to'lovlariga soliq, solinishidir. Odatda bu soliqni to'lash aksionerning yuridik shaxsligiga, rezidentligiga (mamlakatda muntazam yashovchilarga) yoki xorijiy fuqaro ekanligiga bog'liqdir. Dividendlarga soliq solishga yondoshishning ahamiyati juda katta, chunki ular ko'p holatlarda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tib ketishida imkon yaratishi mumkin.

Ko'p mamlakatlarda foyda soliqlari yana mahalliy to'g'ridan-to'g'ri soliqlar bilan ham to'ldiriladi. Masalan, Italiyada, bu stavkalarining o'ta murakkab tizimlari bo'yicha olinadigan mahalliy soliq (yangi belgilangan narxning 5%idan oshmagan miqdorda) bo'lishi lozim.

Korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliq ob'ekti soliq qonunchiligi tomonidan belgilangan chegirmalardan tashqari kompaniyalarning yalpi foydalariga tengdir. Chegirmalarga — ishlab chiqarish, tijorat, transportga oid xarajatlar, qarzlarni bo'yicha foizlar, zararlar, reklama, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, shuningdek, dividendlar kiradi.

Qonunlarga muvofiq turli xil imtiyozlar va chegirmalar beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha oldin to'langan soliqlarni qaytarib berish, soliq qarzlarni bekor qilish, soliq to'lovchilarning ayrim guruhlarini soliqdan ozod qilish ko'zda tutiladi. Soliq solinishda yirik monopoliyalar katta imtiyozlarga egadirlar. Aktsiyadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, bank monopoliyalarining daromadlaridan oladigan chegarma va siyovlarning umumiy miqdori 40—60%ga etadi. Kompaniyalar uchun, ularni foydadan undiriladigan soliqlardan ozod qiluvchi bir qator imtiyozlar mavjud: foyda hisobiga turli xil soliqdan ozod qilinuvchi fondlar (rezerv fondlari, nafaqa va xayriya fondlari va boshqa fondlar) tashkil qilish; ishga oid chiqimlarni daromadlar hisobidan chiqarish; menejerlarga yuqori maoshlar to'lash; aktivlarni qayta baholash; foydani imtiyozli soliq rejimiga muvofiq boshqa mamlakatlarga o'tkazish va boshqalar.

Natijada korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliqlar nisbatan qisqarish mayliga ega. Keyingi 20 yil ichida AQSh markaziy hukumatining byudjeti daromadlarida bu soliqlarning salmog'i 21,8%dan 9,9%ga, Buyuk Britaniyada esa 11,9%dan 6,2%ga pasaydi.

Eng muhim vositalardan biri dividendlar to'lovlariga soliq solinishidir. Odatda bu soliqni to'lash aksionerning yuridik shaxsligiga, rezidentligiga (mamlakatda muntazam yashovchilarga) yoki xorijiy fuqaro ekanligiga bog'liqdir. Dividendlarga soliq solishga yondoshishning ahamiyati juda katta, chunki ular ko'p holatlarda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tib ketishida imkon yaratishi mumkin.

Ko'p mamlakatlarda foyda soliqlari yana mahalliy to'g'ridan-to'g'ri soliqlar bilan ham to'ldiriladi. Masalan, Italiyada, bu stavkalarining o'ta murakkab tizimlari bo'yicha olinadigan mahalliy soliq (yangi belgilangan narxning 5%idan oshmagan miqdorda) bo'lishi lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i foydadan olinadigan soliq bilan o'zviy bog'langan. An'anaga muvofiq, daromad solig'i foydadan olinadigan soliqqa nisbatan ishlab chiqarishni joylashtirishga, u yoki bu investitsiyaga oid strategiyalar ishlab chiqilishiga unchalik ko'p ta'sir ko'rsatmaydi deb hisoblangan. Biroq, ishchi kuchining yagona bozori shakllanayotgan paytda, barcha cheklashlar olib tashlangan hozirgi tizimda, ayniqsa, daromad solig'ining maksimal stavkalaridagi tafovutlar muhimlashib bormoqda.

Korporatsiyalar shtab-kvartiralarini joylashtirishga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot markazlarini, yuqori malakali va katta maosh to'lanadigan ishchi kuchidan foydalanuvchi korxonalarni joylashtirishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari stavkalarini taqqoslash, daromaddan olinadigan soliqlarni tahlil qilish yanada murakkabroq vazifadir.

Asosiy muammo shundaki, Evropa Hamdo'stligi mamlakatlarining barchasida progressiv harakteristikasi butunlay bir-biriga o'xshamagan, soliqning turli xil bazalarga va maksimal stavkalariga ega daromad solig'ining progressiv stavkalar tizimi qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq — Evropa Hamdo'stligi fuqarolaridan olinadigan soliq boshqa soliqlar kabi ular yashagan mamlakatlarda olinishi shart. Kim rezident deb hisoblanishi va kim norezident deb hisoblanishi mezon — uning mamlakat hududida bo'lishi muddatidir. Masalan, Frantsiyada shu mamlakatda yarim yildan ortiq vaqt yashagan odam rezident deb hisoblanadi.

Evropaning yagona soliq maydoni nuqtai nazaridan xorijda olinadigan daromadni soliqqa tortish alohida qiziqish tug'diradi. Xorijda olinadigan daromadga qo'llaniladigan soliqning ikkita asosiy tamoyili mavjud:

1) **hududiy tamoyil** (Frantsiyada qo'llaniladi): daromadga solinadigan soliq daromad manbaiga qarab turli stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi. o'zining asl ko'rinishida bu tamoyil faqat mamlakat ichidagi manbalardan olinadigan daromadga soliq solishni nazarda tutadi, ayni bir vaqtda chet elda olingan daromadlar soliqdan ozod kilinadi;

2) **rezidentlik tamoyili**: soliqlar stavkasi daromad olish manbaiga bog'liq bo'lmaydi.

Bu tamoyil deyarli barcha mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi va natijada bir daromadga avval u olinayotgan mamlakatda, keyin esa daromad oluvchining o'z mamlakatida soliq solinadi. Ikki karra soliq undirilishining oldini olish maqsadida Evropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan ko'p mamlakatlarda xorijda to'langan soliqlar mamlakatning o'zidagi hisob-kitob jarayonida e'tiborga olinadi.

Kapitalning ortib borishiga solinadigan soliq bir talay sanoati rivojlangan kompaniyalarda amalda qo'llanilmoqtsa. Ko'pchilik mamlakatlarda bu soliq o'sish jarayonida emas, balki uning amalga oshirilish paytida (masalan, aktsiyalar sotilgan paytdan keyin) undiriladi. Bu soliqlar mulkdan foydalanishning barcha shakllaridan: sotish, almashtirish, tortiq qilish va boshqalar — jismoniy shaxslardan qanday olinsa, yuridik shaxslardan ham shunday olinadi. Belgiya va Frantsiyada mazkur soliq foydadan olinadigan soliqning odatdagi stavkasiga nisbatan kamaytirilgan stavka bo'yicha olinadi. Buyuk Britaniyada kapitalning o'sib borishiga solinadigan soliq stavkasi jismoniy shaxslar uchun 30%ga yaqinni tashkil qiladi. Belgiya, Germaniya, Niderlandiya va Italiyada o'zok, muddatga qo'yilgan mablag'lardan kapital o'sgani uchun fuqarolardan soliq umuman olinmaydi. To'g'ri, masalan, Italiyada mulkdan foydalanishdan tushgan daromadlarga soliqlar, daromadlar olibsotarlik va tijorat operatsiyalari natijasida paydo bo'lgan hollardagina solinadi. Kapital o'sishining o'ziga xos shakli valyuta kursi o'zgariganda foyda olishdan iboratdir. Odatda, bunday daromadlarga foydaga solinadigan soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi, biroq ba'zi mamlakatlarda bunday soliq qo'llanilmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyada qator hollarda valyuta kursi o'zgarishi tufayli daromadning o'zgarishi ba'zi moliyaviy natijalarning biror turi deb hisoblanmaydi. Foydaga solinadigan soliq jahondagi rivojlangan mamlakatlardagi oldingi davrda ma'lum o'rtacha hajmdan oshadigan

yuridik (korporatsiyalar) va jismoniy shaxslar daromadining bir qismiga solinadigan soliqdir. Bu soliq, odatda, davlat jiddiy inqirozga uchraganida, shuningdek, asosan urushlar va keskin inqiroz hollari, monopoliyalar daromadi keskin o'sganida, favquloddagi choralar sifatida qo'llaniladi. Bunday soliq birinchi marta Buyuk Britaniyada (1915 yil) va Chor Rossiyasida (1916 yil)da qo'llanilgan. qator mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Yaponiya) Ikkinchi jahon urushi yillarida, AQShda Quriya urushi davrida, Buyuk Britaniyada o'zoq muddatli moliya dasturini mablag' bilan ta'minlash davrida qo'llanilgan.

Mazkur soliq ikki usul bilan — **foiz va me'yor** usullari bilan hisoblab chiqiladi. Birinchi usulda soliq stavkasi kapitalga nisbatan ma'lum foizda, masalan, Buyuk Britaniyada Ikkinchi jahon urushi yillarida bu stavka 6 foiz zayomli kapitalni, 1951—1954 yillarda esa — 10 foiz aksiyadorlik kapitalini tashkil qildi. Me'yor oldingi bir necha yil (odatda 3—4 yil) da olingan o'rtacha (normal) daromaddan oshib ketadigan foydaning bir qismiga stavka foizi bilan belgilangan. Barcha davlatlarda mazkur soliqning yuqori stavkalari qo'llanilgan: AQShda 1943—1945 yillarda ular qo'shimcha foydaning 80 foiziga, Buyuk Britaniyada 1939—1945 yillarda 100 foizga etgan.

Qimmatli qog'ozlarga nisbatan soliqlar quyidagi holatlarda qo'llaniladi: 1) aksiyadorlik kompaniyalaridan olinadigan emissiya aksiyalariga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga solinadigan soliqlar. Stavkalar, odatda, qimmatli qog'oz turiga qarab belgilanadi; 2) birja bitimlariga solinadigan soliq. Bu mulk huquqining qimmatli qog'ozlarga o'tishida qo'llaniladi. Masalan, GFRda bitim to'zilgan kundagi bozor narxiga yoki nominal narxga nisbatan foizda belgilangan stavkalar bo'yicha qimmatli qog'ozlar sotib olinganda to'ziladigan birja bitimlari. bo'yicha oborotdan olinadigan soliqlar mavjud.

Merosdan va hadya (tortiq)dan olinadigan soliq — meros huquqi bo'yicha yoki tortiq shaklida biri-biriga beradigan tortiq sifatida bir shahardan ikkinchi shaharga o'tadigan jismoniy yoki yuridik shaxsning ko'char va ko'chmas mulkdan olinadigan soliq turi ham mavjuddir. Ba'zi mamlakatlarda (AQShda, Buyuk Britaniyada) ikkita soliq — meros solig'i va hadya solig'i mavjud, boshqa mamlakatlarda, masalan, GFRda meros va hadyadan olinadigan soliq joriy etilgan. Soliq meros va tortiqning butun qiymatiga (AQSh, Buyuk Britaniyada) yoki mulkni oluvchilarning har biri hissasiga solinadi (GFR, Frantsiya). Soliq stavkalari o'suvchan (progressiv) bo'lib, ularning hajmi mulkning bozor narxiga bog'liq, ba'zida esa meros egasi va meros oluvchining qarindoshlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Buyuk Britaniyada tortiqlardan olinadigan soliqning stavkasi 5%dan 30%gacha, merosdan olinadigan soliqning stavkasi 30 %dan 60%gacha. GFRda meros va tortiq qarindoshlik darajasiga qarab (to'rtta soliq guruhi) va mulkning katta va kichikligiga qarab soliq solinadi hamda quyidagi miqdorni tashkil qiladi: 1-guruh uchun 3—35%; 2-guruh uchun 6—50%; 3-guruh uchun 11—65%; 4-guruh uchun 20— 70%ni. Soliq

stavkasi nisbatan baland bo'lishiga qaramasdan, undan keladigan mablag' tushumi uncha katta emas (masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada ular davlat byudjeti daromadining 2—3%ini tashkil qiladi).

3. Bilvosita soliqlar turkumiga kiruvchi oborot solig'ini undirish tartibi.

Oborot solig'i bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri — mamlakat ichkarisida (ba'zi davlatlarda — xorijda ishlab chiqarilgan tovarlardan), ishlab chiqarilgan tovarlar oborotidan, shuningdek, turli xizmat ko'rsatishlardan olinadigan universal aksiz solig'idir. Ba'zi tovarlar va xizmatlar uchun solinadigan individual aksizdan farq qiluvchi oborot solig'i korxonaning yalpi oboroti qiymatidan olinadi. Oborot solig'i asosan ommaviy iste'mol tovarlari va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari xizmatlaridan olinadi.

Oborot solig'i Birinchi jahon urushi davrida Germaniya va Frantsiyada joriy etildi va keyinroq boshqa mamlakatlarga yoyila boshladi. Oborot solig'ining kiritilishi fiskal maqsadlarni: qo'shimcha mablag'larga bo'lgan talabni qondirish, byudjetning o'ta taqchilligini qoplashni nazarda tutgan. Bu soliقدan keladigan mablag'ning o'sishi o'z-o'zidan ta'minlanadi. Bu esa inflyatsiya sharoitida narxlarning o'sishi hisobiga, shuningdek, xizmat ko'rsatish ob'ektlarining kengayishi natijasida ro'y beradi. Avval korxonalar tovar oborotining narxi ko'ppog'onali (kaskadsimon) yoki kumulyativ deb ataluvchi usul bilan soliqqa tortilgan, ya'ni soliq ishlab chiqarishning yoki tovar aylanishining har bir bosqichida (tovarning kompaniya ichida aylanishi bundan mustasno) olingan. Bunday tizim GFR, Belgiya, Avstriya va boshqa davlatlarda 60-yillarning oxirigacha amalda qilgan. Ko'p martalab soliq solinishi to'lov operatsiyalarini qiyinlashtirgan, chunki juda ko'p hujjatlar yuritilishini talab qilgan. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi o'tgan soliq solishning eng oddiy usuli oborotdan bir marotaba — ishlab chiqarish, ulgurji yoki chakana savdo bosqichida ancha kulay stavka bo'yicha soliq olishdan iboratdir. Oborot solig'ining boshqacha ko'rinishi — ulgurji savdo bo'g'inida olinadigan soliq hisoblanadi. Bu soliqning ob'ekta tovar ishlab chiqarish paytida tovar aylanishi va uni ko'tarasiga tovar oluvchi firmalarga sotish jarayonida namoyon bo'ladi. Agar sanoat kompaniyalari ulgurji savdodan voz kechib, tovarlarini bevosita chakana tarmokda sotsa, unda ularning oborotlari ham sotib olingan molga solinadigan soliqqa tortiladi. Soliqning bu shakli Buyuk Britaniyada — 1940 yildan, Shveysariyada — 1941 yildan, Portugaliyada — 1966 yildan bue qo'llaniladi.

Bir qator mamlakatlar (Norvegiya — 1940 yildan bue, Shveysiya — 1960 yildan bue, AQShning ba'zi shtatlari, Kanada provintsiyalari) chakana savdoda sotilgan mollarga soliq solish turidan keng foydalanadi. Soliq solinadigan ob'ekt — oxirgi iste'molchiga tovar sotish oborotidir. Soliqning bu turini qo'llash mayda savdo korxonalarining ko'psoshsh ekanligi sababli murakkablashadi. 1960 yillarda oborot solig'ining boshqa bir ko'rinishi — **qo'shilgan qiymat solig'ning** keng tarqalishi yuzaga keldi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda oborot solig'idan keng foydalanilishiga sabab, nafaqat uning inflyatsiya jarayonida katta fiskal ahamiyatga ega ekanligi, balki undan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilish uchun foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izoxdanadi. Chet elga mol chiqaruvchi firmalarni oborot solig'idan ozod qilish yo'li bilan hukumat chet elga tovar chiqarilishinn rag'batlantiradi. Bu soliqda sotib olishga ruxsat berish asltdsa tovarlar va xizmat ko'rsatishlar dempingini amalga oshirish uchun monopoliyalarga imkon beruvchi eksportni davlat tomonidan mablag' (subsidiya) bilan ta'minlashdan iborat. Oborot solig'ining jahondagi rivojlangan davlatlar byudjetiga kelib tushish jarayoni tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Masalan, Frantsiyada keyingi 10 yil ichida ular uch barobar oshdi va byudjet barcha daromadlarining yarmini ta'minladi. Bunday o'sishga sabab soliqlar stavkalarining birmuncha oshganidir. GFRda oborotdan olinadigan soliq 12 foizdan 14 foizga, Buyuk Britaniyada esa 8 foizdan 15 foizga oshdi. Bundan tashqari, soliq tovarlar va xizmat ko'rsatishlarning tobora ko'proq turiga joriy bo'lib bormoqda. Aslini olganda, barcha iste'mol tovarlari oborot soligiga tortilishi kerak edi. **Oborot solig'ining mohiyati bitta** — barcha bilvosita soliqlar singari, u tovar va xizmat ko'rsatish narxiga qo'oiladi, iste'molchilar tomonidan to'lanadi va regressiv harakterga ega bo'ladi.

4. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda aktsiz solig'ining qo'llanilishi va ularning tajribalarini respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.

Universal aktsiz aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ayniqsa og'irlik qiladi. Barcha iste'mol tovarlarining oborot soligiga tortilishi, narxlarning umumiy o'sishiga sabab bo'ladi va aholi turmush darajasining keskin yomonlashuviga olib keladi.

Aktsizlar — asosan ommaviy iste'mol tovarlari (xizmat ko'rsatish)ning narxi yoki tarifiga kiritiladigan bilvosita soliqlar turidir. Aktsizlarning to'lovchilari — tovarlarga yoki xizmat ko'rsatilishiga haq to'layotgan iste'molchilardir. Aktsizlar harid qiluvchilar real daromadlarining qisqarishiga olib keladi va aktsiz solig'i solinishi regressiv xarakterga egadir.

To'zga va boshqa ommaviy iste'mol buyumlariga solinadigan aktsiz soliqlari hatto qadimiy Rimda ham mavjud bo'lgan. Tovar — pul munosabatlari rivojlanishi bilan soliqqa tortishning aktsiz shakli ko'proq qo'llanila bordi. Soliqqa tortishning turli usullari: aktsizga tortiladigan tovarlar xomashyosi etishtiriladigan er, so'ngra xom ashyo, keyinroq yarim tayyor mahsulotlar va, nihoyat, soliq solishning asosiy ob'ekti bo'lgan tayyor mahsulotlarga nisbatan qo'llanilgan.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda aktsizlar davlatning muhim daromadiga aylanib qolmokda, masalan, Frantsiyada va GFRda bu soliq byudjet daromadining 50 foiziga yaqinini, Buyuk Britaniyada — 38 foizini, Yaponiyada — 16 foizini ta'minlaydi. Byudjetning daromad manbaini takomillashtirish va takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish maqsadida aktsiz soliqlari solinadigan ob'ektlar kengaytirilmokda va aktsiz stavkalari oshirilmokda. Aktsiz soliqlari solinishiga

turli kommunal, transport, madaniyat va boshqa keng tarqalgan xizmatlar jalb qilinmokda. qator mamlakatlarda, ichki ishlab chiqarish tovarlaridan tashqari, agar xuddi shu tovarlarga mamlakatlarda aktsiz solig'i solinsa, chet el mollariga bojxona bojlaridan tashqari aktsiz soliqlari ham solinadi. Aktsiz soliqlarining quyidagi stavkalari belgilangan: **yagona soliqlar** — nav, sifat va narxlari bilan bir-biridan kam farq qiladigan tovarlar uchun (to'z, gugurt, qand); **darajalangan soliqlar** — turli belgilariga: sifatiga, o'tkirligiga (vino, mato) qarab; **o'rtacha soliqlar** — navlari turli narx darajalariga ega bir turdagi (tamaki mahsulotlari) tovarlar uchun va hokazo.

Soliq solinishi usuliga qarab aktsizlar individual va universal soliqlarga bo'linadi. Masalan, GFRda 20 ga yaqin individual aktsizlar, Yaponiyada 600 dan ortiq aktsizlar bor. Keyingi yillarda korxonalar umumiy oborotida olinadigan (oborot soliq) universal aktsizlar juda keng tarkalmokda. Yuqorida aytib o'tilgan soliqlardan tashqari Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda juda ko'p boshqa turdagi soliqlar mavjud. Odatda, bu soliqlar yagona tizim doirasida ko'rib chiqilishi qiyin. Ular o'ziga xos ravishda shakllangan va davlatlarning o'zok tarixiy rivojlanishida turli ta'sirga uchragan. Masalan, GFRda bu oborot kapitaliga solinadigan soliqlar (ustav kapitalining 1% asosida firma tashkil qilinadi va 2,5% kapitalda qatnashish usuliga ega bo'lganda), hunarmandchilik solig'i (ishlab chiqarish fondining 5% daromadi va 0,2% qiymatidan), mol-mulkdan olinadigan soliq (0,5—0,6%), er solig'i, transport vositalariga solinadigan soliqlarni tashkil etadi. Frantsnyada bo'lar kapitalni oshirishga solinadigan soliq, (yoki ro'yxatga oid yig'im — 1%), kasbiy korxonaga egasiga taallukli soliq va boshqalardan iboratdir.

EIHa'zolari bo'lgan mamlakatlarning soliq, tizimlari turli imtiyozlar sonining ko'pligi bilan ham ancha murakkabdir. Ko'pgina mamlakatlarda (ayniqsa Irlandiyada, Frantsiyada, shuningdek, Buyuk Britaniyada), ba'zi rayonlarda soliqlar pasaytirilgan stavka bo'yicha olinadi yoki kompaniyalar soliq to'lashdan umuman (ma'lum muddatga) ozod qilinadilar. Soliq solinishidan, shuningdek, qayta investitsiyaga yunaltilayotgan daromadlar ozod qilinadi. Aslini olganda, EIHa'zolari bo'lgan barcha mamlakatlarda imtiyozlar mavjud bo'lib, ularga binoan maorifga va kadrlar tayyorlashga qaratilgan xarajatlarning ma'lum qismi soliq to'lashdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligining soliq solish sohasidagi rasmiy siyosati hamdo'stlik a'zolari bo'lgan mamlakatlarning soliq sistemalarini Rim shartnomasidan boshlab soliq solish uslubi va mexanizmi nuqtai nazaridan, soliq solish stavkalarining hajmi nuqtai nazaridan bir-biriga yaqinlashtirish, ma'lum darajada ularning soliq tizimlarini bir shaklga keltirishdan iborat. Bilvosita soliqqa tortish, fuqarolarning shaxsiy daromadlariga soliqlar solish va mahalliy soliqlar sohasidagi ishlar uncha yaxshi shakllanmagan.

1975 yildayoq EIHa mamlakatlari korporatsiyalar daromadiga 45%dan 55%gacha bo'lgan darajadagi stavkalar bilan soliq solish tizimiga o'tish haqida kelishib olishgan. hozirgi vaqtda soliq stavkalarining tavsiya qilinayotgan darajasi 30%dan 40%gacha etadi. Bu bir qator mamlakatlar (Germaniya,

Fransiya va Gretsiya) korporatsiyalar daromadlariga soliq solish hajmini qisqartirishlarini taqozo etadi. Boshqa bir tomondan qaraganda, pastki intervalga tushib qolgan mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Ispaniya va Niderlandiya) korporatsiya soliqlarini boshqa pasaytira olmaydilar.

Hozirgi vaqtda davlatlarning soliq solish tizimida qatnashishlari muammosi faol ravishda muhokama qilinmoqda. Ishga bunday yondoshish juda muhim, chunki EIH kapitali deyarli erkin harakat sharoitida, 1992 yildan boshlab, kapitalni -daromadga nisbatan imtiyozli soliq, solish bilan mamlakatlarga qayta jalb etish mumkin. Davlatning iqtisodga aralashmasligi tarafdorlari shuni ta'kidlaydilar, erkin bozorni yaratish nafaqat soliq stavkalari me'yorlarini belgilashni, balki bunday me'yorlar ortiqcha ekanligini ham ko'rsatadi, chunki davlatlararo raqobat soliqning yuqori darajasini belgilashga ziddir. Bunday sharoitda soliqlarning belgilangan pastki stavkalari ham kerak bo'lmay qoladi, chunki soliqlarni haddan tashqari pasaytirish byudjet defitsiti birmuncha ortishiga olib keladi, bu esa boshqa noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, ishbilarmon doiralarning bir qismigina erkin bozor kapitalining o'z holicha rivojlanish va foydadan soliq to'lashga qodir deb hisoblaydi. Buning o'ziga xosligi shundaki, daromadga soliq solishning milliy tizimlari bir-biridan nafaqat stavkalari hajmi bilan, balki buxgalteriya hisob-kitobi tizimi, soliq solinishi lozim bo'lgan daromad miqdorini aniqlash, tegishli qonunlarni qo'llash samaradorligi va, nihoyat, soliq to'lashdan bosh tortgani uchun ko'riladigan choralarning qat'iyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, Germaniyada korporativ soliqning stavkasi EIXda eng baland hisoblanadi. Biroq, nemis kompaniyalari boshqa mamlakatlar kompaniyalariga qaraganda tannarxning ko'pgina amortizatsiyaga oid mablag'larini hisobdan chiqarish huquqiga egadirlar.

Ulardagi investitsion soliq kredita olish imkoniyati shuni ko'rsatadiki, nemis korporatsiyalari, odatda, pulni asosiy kapitalni yangilash, yuqori darajadagi dividendlarni to'lamasdan aksiyalarning bozordagi tannarxini oshirishni afzal biladilar.

Shunday qilib, qonunchilik tafovutlari, bir tomondan, davlatlararo raqobatni, nisbatan mustaqillik va bozor mexanizmining erkin harakat qilishini qiyinlashtiradi. Boshqa bir tomondan, qonunchilik tafovutlari EIH ichida kapital oqimining yo'qolishiga juda ham katta ta'sir qiladi. Daromadga solinadigan soliq stavkalari pastligi nuqtai nazaridan qaraganda ayrim mamlakatlar qandaydir bir qonunlar, cheklanishlar nuqtai nazaridan (masalan, soliq solish maqsadi uchun daromad belgilash va shu kabilar) qulay va noqulay bo'lishi mumkin.

Daromadga solinadigan soliqlarni bir-biriga yaqinlashtirishga urinishlar, soliq solish ob'ektining yagona ta'rifi bo'lmas ekan, kam ma'noga egadir. Bu muammoni hal qilish uchun soliq solinadigan foyda minimal imkoniyatli to'ziminining bir shaklga keltirilgan standarti kiritilishi taklif qilinadi.

Ayrim davlatlarning amortizatsiyalash siyosati ham garmonizatsiyani talab qiladi. Amortizatsiyaga mablag' ajratishlar hisob-kitobi fondlarning dastlabki qiymatiga qarab amalga oshiriladi deb taxmin qilinadi. Biroq, inflyatsiya tufayli paydo bo'lgan kapitalning o'sishi soliq solishchdan ozod qilinadi.

Soliq solish tizimini takomillashtirish jarayonida EIHmamlakatlarda soliqlar birmuncha kamaytirilishi ko'zatiladi. Hozirgi vaqtda shu davlatlarning ko'pchiligida korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliqlar AQShdagiga nisbatan kam. Ayni bir vaqtda turli mamlakatlarning soliq belgilashga xilma-xil yondoshuvi sababli soliqni o'rtacha yoki bazali stavkalar asosidagina qiyoslash unchalik samara bermaydi. Bir tomondan, kator Evropa mamlakatlari kichik firmalar va ba'zi korporatsiyalar uchun mablag' sarflashdagi soliqlarni ancha kamaytirsalar, ikkinchi tomondan, ba'zi davlatlar qo'shimcha soliqlar belgilaydilar. Masalan, Buyuk Britaniyaning soliq gavanlarvdagi va bo'sh zonalaridagi daromadlaridan stavka bo'yicha 20% soliq olinadi; Irlandiyadagi Dublin zonasida joylashgan sanoat kompaniyalari daromadidan olinadigan soliq bor-yo'g'i 10%ni tashkil etsa, ayni bir paytda Italiyada mahalliy hokimiyat korporatsiyalar daromadidan olinadigan soliqlarni 36%dan 46%ga ko'paytiradilar. Buning barchasi hamdo'stlik mamlakatlarda soliq tavsiyalari o'zgartirilishini talab qiladi. Ushbu o'zgarishlarga binoan ruxsat etilgan soliq intervali doirasi (30—40%) atrofida bo'lib, mahalliy soliqlar ham e'tiborga olinishi kerak.

Bizningcha, EIHa'zolari bo'lgan mamlakatlarda soliq tizimlarini uyg'unlashtirish uchun juda qat'iy qadamlar qo'o' ilmoqtsa. Biroq, bu siyosatning asosiy yo'nalishlari qanchalik izchil bo'lmasin, ular borasvda, hatto taxminan bo'lsa-da, tegishli shartnomalar to'zish va ayniqsa ularning bajarilishi me'yorlarini belgilashning imkoni yo'qqa o'xshaydi. Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligida soliq solish masalalari bo'yicha har qanday qarorlar EIHa'zolari bo'lgan barcha mamlakatlar tomonidan bir ovozdan tasdiklanishi va tan olinishi bugunning dolzarb muammosi bo'lib qolmokda.

Yuqorida keltirilgan konkret misollardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning ichki va tashki siyosatini muvofiklashtirish maqsadida soliq tizimlarini, byudjet jarayonlarini, davlat xarajatlarini, nazorat tizimini muvofiklashtirish zarur. Bunday kelishuv ayniqsa, soliqlar sohasi bo'yicha juda zarur. Aynan shu yo'lni Evropa Iqtisodiy hamdo'stliga mamlakatlari bosib utmokdalar.

Shu bilan birga, hozirgi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarning har birida bir-biri bilan kelishiladigan o'ziga xos soliq qonunchiligi ishlamokda. Bunday o'zaro kelishilmagan moliyaviy siyosat hozirgi kundayoq, aynan bir mahsulotga turli narxlar qo'llanishi, turli soliqlar va stavkalar mavjudligi sababli o'zaro hisob-kitoblarda o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Bu kabi tafovutlar shunga olib keladiki, aynan o'sha bir mahsulot uchun ayrim davlatlar ortiqcha pul to'lasa, boshqalari ularga nisbatan kam pul to'laydilar, ya'ni MDXdagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda narxlar tengligi bo'ziladi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi soliq islohotlari tajribasi shundan dalolat beradiki, yangi soliqlar solish bo'yicha qarorlar qabo'l qilishda umummilliy qonunlarga tayanilganda eng ko'p samaraga erishilishidan darak beradi, biroq hokimiyat mahalliy organlari qarorlari bo'yicha ish ko'rilganda bunchalik samara bo'lmaydi, bu esa keyingi vaqtda respublika uchun xos xususiyat bo'lib qoladi. Boshqa bir tomondan, mahalliy byudjetlar markaziy byudjet tarkibida hisobga olinmaganda markaziy hokimiyat va hokimiyatning mahalliy organlari faoliyatlari doirasining, ularni o'z-o'zini mahalliy ta'minlashini cheklash siyosati katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida ham o'z aksini topishi mumkin bo'lgan holdir.

Respublikamizda, boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, soliqlarning eng asosiy turlaridan biri qo'shilgan qiymat solig'idir. Biroq u bizda mahsulotning iste'molchiga etib borishidagi faqat bir bo'g'inda emas, balki aslida barcha bo'g'inglarda (qishloq xo'jaligidan tashqari) olinadi.

Qishloq xo'jaligiga yuborilayotgan tovarlar (traktorlar, o'g'itlar va boshqalar) aktsizlari solinadigan ro'yxatni kengaytirilishi o'zini oqlamaydi. Bu mahsulotlarga qo'yiladigan narxlar keskin kutarilishiga va qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ahvoli yanada yomonlashuviga olib keladi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda foydadan olinadigan barcha soliqlar birlashtirilganda 35—40%ni tashkil qiladi, O'zbekiston Respublikasida esa soliqlar bir qator korxonalarda deyarli bir yarim, ikki barobar baland, bu esa har qanday tashabbusni so'ndiradi va ishlab chiqarishni hamda ishchanlikni rivojlanishga ma'lum to'sqinliklarni vujudga keltiradi. Bunga oid misollarni xalq xujaligi korxonalaridan ko'plab keltirish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar.

Soliq siyosati
Subsidiyalar
Dotatsiya
Soliq solish bazasi
Federal byudjet
Xududiy tamoyil
Rezidentlik tamoyili
Oborot solig'i
Universal aktsiz
Yagona soliq
Darajalangan soliq
O'rtacha soliq
Individual aktsiz solig'i
Universal aktsiz solig'i

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Federal byudjetga qaysi soliqlar undiriladi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i qaysi rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladi?
3. Kimlar rezident va kimlar norezident deb tan olinishini sharhlab bering.
4. Qimmatli qog'ozlarga nisbatan soliqlar qaysi holatlarda undiriladi?
5. Soliq yukini kamaytirish ta'rifiga izoh bering.
6. Evropa Iqtisodiy Hamdo'stligi mamlakatlarida qaysi soliq turi keng tarqalgan?
7. Bilvosita soliqlar turkumiga kiruvchi oborot solig'i kimlardan olinadi? Uning mohiyatini ta'riflang.
8. Merosdan va hadya (tortiq)dan olinadigan soliq qaysi davlatlarda ko'proq rivojlangan, ularning stavkalarini bilasizmi?
9. Soliq solinish usuliga qarab aktsizlar necha turga bo'linadi?
10. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda aktsiz solig'ining qo'llanilishi va o'rni haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,5,7,9

Qo'shimcha adabiyotlar: 2,4,5,8,9,12,14

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» Toshkent. «O'zbekiston» 1998 y.
2. I.A. Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent. «O'zbekiston» 1998 y.
3. I.A. Karimov. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini asosiy tamoyillari» Toshkent. «O'zbekiston» 1999y.
4. I.A. Karimov. «O'zbekiston XIX asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent. «O'zbekiston» 2000 y.
5. Volkov A.M. «Shvetsiya sotsialnaya- ekonomicheskaya model» M.; Misl 2000 g.
6. Eydxovn «Niderlandi obzor nalogovoy sistemi» mejdunarodniy tsentr menedjmenta obshchestva 1999 g.
7. S. Alimboev va boshqa. Soliqlar. O'quv qo'llanma.-T., 2000
8. T. Malikov. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari.-T., Akademiya, 2002.
9. Nalogi i nologooblojenie v Rossiyskiya Federatsii (Uchebnik dlya VUZ ov). –M., Knijniy mir, 1999.
10. L. Xvan Soliq huquqi.-T., Konsaudit inform, 2001

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Knyazev V.G., Chernik D.G., Nalogovie sistemi zarubejnix stran. M. «YuNITI» 1997 g.
2. Chernik D.G., «Nalogi» 4 izdanie M.; Finansi i statistika 2000g.
3. Milyakov N.V., «Nalogi i nologooblojenie» M.; Infra M.; 2000g.
4. Yutkina T.F., «Nalogi i nologooblojenie» M.; Infra M 2000 g.
5. Sutirin S.; Pogorletskiy A. «Nalogi i nalogovoe planirovanie v mirovoy ekonomike» Sankt-Peterburg.; Polius 1999 g.
6. Rusakova I. «Nalogi i nologooblojenie» M.; Yuniti 2000 g.
7. Pochinok M., Morozov V., Chernik D. «Osnovi mirovoy nalogovoy sistemi» M.; Yuniti 1999 g.
8. Dernberg R. Mejdunarodnoe nologooblojenie, M.; 1999 g.
9. Richard D Irwin, Inc «International Business» 1999 y.
10. Raymond V. Lesikar John D. Pettit, JP Marie E. Flatey «Lesikar's Basic Business Communication » Chicago 2000 y
11. Donaid A. Ball Wendell H «International Business » Boston 2000 y
12. Gregori Waniw «Macroekonomik» bu Warth Publishers Inc 1992.

13. <http://www.finstat.ru> sayti.
14. <http://www.alpbook.ru> sayti
15. <http://www.taxesites.com/international.htm> sayti

**«Chet mamlakatlar soliq tizimi» fanidan
ma'ruza matnlari to'plami
-T.: TMI, 2005. – 15,0 b.t.**

Muharrir: E. Bozorov

**Bosishga ruxsat etildi:
Adadi:
Shartli bosma tabog'i:
Buyurtma № _____**

**Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida «RISO» nusxa
ko'paytirish qurilmasida chop etildi.**

700084, Toshkent shahri X.Asomov ko'chasi, 7-uy.